Hokimiyatlarning bo'linishi zamonaviy konstitutsiyaviylik va qonun ustuvorligining asosiy tamoyillaridan biridir [1]. "Agar sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan ajratilmagan bo'lsa, erkinlik yo'q. Agar u qonun chiqaruvchi hokimiyatga qo'shilsa, fuqarolarning yashash va erkinlik huquqi o'zboshimchalik bilan bo'ladi; chunki sudya qonun chiqaruvchi rolda bo'ladi. Agar u ijro etuvchi hokimiyatga topshirilsa, sudya zulm qiluvchi hokimiyatga ega bo'ladi [2, 294-b.]". Mazkur fikrlarni davom ettirib, agar (...) hokimiyat odil sudlov rolini o'z zimmasiga olsa, u shaxsiy huquqlarni jamoat manfaatlariga bo'ysundirish, davlat manfaatlarini yuzasidan mulk, erkinlik masalalari nuqtayi nazaridan noto'g'ri hukm chiqarishga duchor bo'ladi va bu qonun o'rniga hakamlik qiladi. Adolat hokimiyat qo'lida bo'ladigan kunda fuqarolarning adolatga ega bo'lishiga kafolat ham, xavfsizlik ham bo'lmaydi [3, 18-b.]. Shu bois, birinchi navbatda, qonun ustuvorligining ikkita asosiy xarakterli tamoyili: davlat hokimiyati faoliyati samarali ishlashida hokimiyatlar bo'linishi va sud hokimiyati mustaqilligi muhimdir. Bu bevosita O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan.

Odil sudlovning mustaqilligi, eng avvalo, hokimiyatning boshqa tarmoqlaridan tashkiliy jihatdan ajratilgan sud hokimiyati mavjudligi bilan ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasida sudyalar mustaqil ekanligi, faqat qonunga bo'ysunishlari, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmasligi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi kabi muhim normalar mustahkamlab qo'yilgan. Sudyalar mustaqilligi deganda, demokratik davlatning konstitutsiyaviy prinsipini

tushunish, unga ko'ra, siyosatchilar, davlat organlarining har qanday aralashuvidan himoyalani tushuniladi. Sudya mutlaq ma'noda mustaqil bo'lmay, uning mustaqilligi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda o'z-o'zidan maqsad emas. Sud hokimiyati mustaqilligi prinsipi odil sudlovning xolisligi, beg'arazligi va adolatligini ta'minlashdan iborat muhimroq konstitutsiyaviy maqsadga bo'ysunadi. Sudyalar mustaqilligi jamiyatda aynan shunday darajada zarurki, u sudlarning konstitutsiyaviy vakolati va uni samarali amalga oshirish vazifasini talab qiladi [4, 24-b.]

Bir qator davlatlarning asosiy qonunida sud hokimiyati mustaqilligi bilan bir qatorda sudyalar mustaqilligi prinsipi ham mustahkamlangan. Masalan, sudyalar mustaqilligi, sud/sud hokimiyati mustaqilligi (Andorra, Belarusiya, Boliviya, Vengriya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Kuba, Lixtenshteyn, Nikaragua, Polsha, Portugaliya, Tojikiston, Estoniya); sudyalar mustaqilligi (Avstriya, Argentina, Belgiya, Germaniya, Gretsiya, Irlandiya, Italiya, Latviya, Moldova, Monako, Ruminiya, Turkmaniston); sud/sud tizimi mustaqilligi (Albaniya, Bolgariya, Braziliya, Gaiti, Gvatemala, Gonduras, Daniya, Dominikan Respublikasi, Kanada, Kosta-Rika, Makedoniya, Malta, San-Marino, Finlandiya, Fransiya, Xorvatiya, Shveysariya) va ularni to'ldiruvchi moddiy normalar mustahkamlangan (Ozarbayjon, Armaniston, Venesuela, Ispaniya, Litva, Peru, Slovakiya, Sloveniya, O'zbekiston, Chexiya) [5, 26-b.].

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida quyidagi savolga javob berishga harakat qilindi: 1) hokimiyatlar bo'linishi prinsipi mazmuni, unda sud hokimiyatining o'rne qanday; 2) Konstitutsiyaviy sud mustaqilligini belgilovchi mezonlar qaysi?

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, sintez, tizimli metod, mantiqiy, statistik va funksional metodlar hamda qiyosiy huquqiy usul kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Sud hokimiyati tizimida Konstitutsiyaviy sud o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, Konstitutsiyaviy sud sudyalarining mustaqilligi prinsipi amalga oshirish konstitutsiyaviy sudlov organlarini tayinlash, ularning vakolatlari va davlat hokimiyati organlari tizimidagi o'рни bilan belgilanadigan xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Huquqshunos olim E.P. Jurba nuqtayi nazariga ko'ra, sudyalar mustaqilligining zamonaviy konsepsiyasi bir-birini to'ldiradigan uch yo'nalishda rivojlanmoqda: moddiy-huquqiy, ijtimoiy-huquqiy va huquqni himoya qilish yo'nalishida [6, 13-b.].

Shu bilan birgalikda, huquqshunos olim A.V. Sixoskiy sud mustaqilligining ikki jihati ajratadi: tashqi va ichki. Agar tashqi tomon sudning sud funksiyalari va sud boshqaruvi sohalarida tashqi ta'sirlardan mustaqilligi, uning qoidalarni mustaqil ravishda qo'llash huquqini tavsiflasa, ichki tomon esa sudyalarning o'ziga bog'liq, ya'ni odil sudlovning inson omili bilan bog'liqligi. Muallif erkinlik darajasini aks ettiruvchi tashqi tomonga ustuvor ahamiyat beradi, ammo sudyalarning intellektual darajasi bilan belgilab qo'yilgan omillar sudyalarning tashqi tomonini bekor qilishi mumkinligini ta'kidlaydi [7, 13-b.].

Mazkur fikrga qo'shilgan holda, ta'kidlash joizki, sudyalarning ichki mustaqilligi faqat qonun doirasida va adolatli qaror qabul qilishi sud mustaqilligining eng muhim jihati aks ettiradi. Yevropa Konvensiyasining 6-moddasi 1-bandi hamda Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi talqiniga muvofiq, sudyalardan nafaqat mustaqil bo'lish talab etiladi, balki "sudyaning mustaqilligiga shubha tug'dirmaydigan yetarli kafolatlar berish" majburiyatini ham o'z ichiga oladi [6, 13-b.]. Polsha Respublikasi Konstitutsiyaviy tribunalining qarorlarida sud mustaqilligiga alohida tavsif berilgan bo'lib, Konstitutsiyaviy sudning mustaqilligi: 1) protsess ishtirokchilariga nisbatan xolislik; 2) organlarga (suddan tashqari muassasalarga) nisbatan mustaqillik; 3) sudyaning hokimiyat va boshqa sud or-

ganlari bilan munosabatlaridagi mustaqilligi; 4) siyosiy ta'sirlardan mustaqillik (xususan, siyosiy partiyalar ta'siridan); 5) sudyaning ichki mustaqilligi [8].

V.I. Anishina sud hokimiyati mustaqilligi prinsipi mazmunida to'rtta asosiy element (mustaqillik mezonlari)ni ajratib ko'rsatadi: 1) institutsional (normativ asos va organlarning alohida tizimi); 2) funksional (hokimiyatning boshqa institutlari funksiyalaridan farq qiluvchi konstitutsiyaviy funksiyalari); 3) vakolat (o'z konstitutsiyaviy va huquqiy vakolatlarning mavjudligi, shu jumladan, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar ustidan nazorat); 4) resurs (o'z moliyaviy, kadrlar, moddiy-texnik salohiyat) [9, 48-b.].

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, Konstitutsiyaviy sudning sudyalari qaror qabul qilar ekan, o'zining huquqiy nuqtayi nazarini amaliy maqsadga muvofiqlik mulohazalari, siyosiy moyilliklar va boshqa tashqi ta'sirlardan xoli bo'lgan holda ifodalaydi, deb belgilangan. Konstitutsiyaviy sud sudyalarining mustaqilligi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyati Konstitutsiya va alohida qonun bilan tartibga solinadi; Konstitutsiyaviy sud sudyalarining mustaqilligi Konstitutsiyaga zid deb topilgan normativ hujjatlarni bekor qilish uchun asos bo'lgan qarorlarining yuridik kuchi, ularning umumiy ahamiyati, qat'iyligi va shikoyat qilishning mumkin emasligi bilan ta'minlanadi. Konstitutsiyaviy sud faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi;

ikkinchidan, Konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish kollegial tarzda amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy sud ishlarini ko'rib chiqishda har bir sudya ham, ishni ko'rayotgan butun tarkib ham mustaqil bo'lishi kerak. Bunda sudning mustaqilligi kollegiya tarkibiga kiruvchi sudyalarning mustaqilligi bilan ta'minlanadi. Konstitutsiyaviy sudning ko'pchilik fikriga qo'shilmagan sudyasi

o'zining alohida fikrini yozma shaklda bayon etishga haqli (ayrim davlatlarda alohida fikrlar rasmiy e'lon qilinadi);

uchinchidan, Konstitutsiyaviy sudning sudyasi o'z vakolatlari muddati davomida almashtirilmaslighi. Ya'ni sudyalarni boshqa sudyalik lavozimi yoki boshqa sudga o'tkazish faqatgina ularning roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin;

to'rtinchidan, Konstitutsiyaviy sud sud-yalarining immunitet huquqiga egaligi, Konstitutsiyaviy sud sudyasi Konstitutsiyaviy sudning roziligisiz jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortilishi, shuningdek, qamoqqa olinishi mumkin emas;

beshinchidan, konstitutsiyaviy sudlov organlari uchun boshqa sudlarga nisbatan siyosiy kuchlardan mustaqillik eng dolzarb muammo hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish doirasida ko'pincha siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalar hal etilib, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning oliy organlari vakillari jarayonda taraf sifatida ishtirok etadilar. L.M. Karapetyan ta'kidlaganidek, "Konstitutsiyaviy nazorat bo'yicha sud organi o'zini siyosat muammosidan chetlab o'tolmaydi, chunki siyosat Konstitutsiyaning o'zida singdirilgan. U, shuningdek, qarama-qarshilik mamlakat konstitutsiyaviy tuzumiga tahdid soladigan hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi vositachilik missiyasidan o'zini chetlab o'tolmaydi, chunki uning vakolati mohiyatan uni himoya qilish bo'yicha eng yuqori sud organidir" [10, 64-b.].

Konstitutsiyaga muvofiqlik siyosiy va huquqiy islohotlarning turli yo'nalishlarini baholashda asosiy masala hisoblanadi. Ayniqsa, Konstitutsiyaviy sud uzoq muddatli manfaatlariga javob berishi va siyosatchilarning qisqa muddatli imkoniyatlarini oshirishiga yuqori darajada to'sqinlik qilishi kerak. "Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqqan siyosatchilar uning rolini belgilaydilar. Shuning uchun dizayn ularning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lishi mumkin. De-

mak, markazlashtirishni tanlash, sudning lavozimi, hajmi, qo'llaniladigan tayinlash mexanizmi hamda mavhum va aniq nazorat bilan shug'ullanish vakolati bo'lajak loyihachilar duch kelishi mumkin bo'lgan yoki kutilayotgan muammolarga javob berishi lozim. Biz Konstitutsiyaviy sudning rolini konstitutsiya ishlab chiqarishda yotgan siyosiy jarayonga e'tibor bermasdan turib tushuna olmaymiz [11]. Umuman olganda, sudlarni qonunning sof posbonlari yoki ba'zan sud faolligi bilan shug'ullanadigan innovatsion qonunchilar sifatida ko'rish mumkin. Konstitutsiyaviy sudlar ham bundan mustasno emas. AQSh modelida konstitutsiyaviy sudlar jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashish uchun yangi qonunni samarali ishlab chiqadigan konstitutsiyaviy talqinlarni taqdim etadi. Sudning dadilligi siyosatchilar bilan jiddiy ziddiyatlarini keltirib chiqarishi mumkin, ammo, umuman, jamiyat tomonidan konstitutsiyaviy islohotlar uchun juda kam bosim mavjud.

Kontinental modelda Konstitutsiyaviy sudlar konstitutsiyalarni talqin qilishda ko'proq konservativ bo'lishga mo'ljallangan va faol qonun ijodkorligini qo'llashdan cheklanadi. Siyosatchilar bilan kichik mojarolar bo'lsa ham, tez-tez mazmunli konstitutsiyaviy islohotlar uchun jiddiy bosim bo'lishi mumkin. Ikkala modelda ham sud nazorati siyosati juda muhim rol o'ynaydi [12]. O'zbekiston misolida oladigan bo'lsak, Konstitutsiyaviy sud tom ma'noda huquq ijodkorligi bilan shug'ullanmaydi, biroq siyosiy jihatdan ta'sirdan to'la xoli emas. Xususan, 2019-yilda hukumat taklifiga binoan, O'zbekistonga tashrif buyurgan BMTning sudyalari va advokatlar mustaqilligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Diego Garsiya-Sayanning hisobotida "Konstitutsiyaviy sud va Oliy sud raislari, rais o'rinbosarlari va sudyalarni saylash tartibi sudyalik lavozimlariga tayinlovlarni siyosiy lashtirishni kamaytirish maqsadida qayta ko'rib chiqilishi kerak. Agar Senat (Oliy Majlis) sudyalarni rasman tayinlash vakolatini o'zida saqlab qolsa, tayinlash Sudyalari oliy kengashi

taqdimnomasiga ko'ra, shaffof jarayon orqali amalga oshirilishi kerak, parlament bunga amalda amal qilishi lozim" [13].

Amaldagi qonunchiligimizga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi tavsiya etgan mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog'iston Respublikasining vakilini qo'shgan holda saylanishi belgilangan. Sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan professional organning mavjudligi yuqori malakali kadrlarni tanlab olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq mazkur organning shakllanishida ham Prezident va Senatning ishtiroki mavjudligi Konstitutsiyaviy sudning siyosiy ta'sirlardan xoli ekanligini to'liq ta'minlab bera olishi masalasi o'rganilishi kerak. Shuningdek, yuridik fanlar nomzodi A. Rahimovning ta'biri bilan aytganda, "Konstitutsiyaviy sud «hujjatlarni sud qilishi» [14] qoidasidan kelib chiqib, Konstitutsiyaviy sud sudyalari tavsiya etish uchun tanlab olishda yuqori darajadagi mezonlarga amal qilish kerak. Bu borada, haqiqatan ham, Konstitutsiyaviy sud sudyalari tayinlash shaffof bo'lishi lozim. Shu bilan birgalikda, Konstitutsiyaviy sudda bo'sh (vakant) sudyalik lavozimlarini to'ldirish tartibi, muddati aniq yoritilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va sudyalarning mustaqilligi kafolatlarini nazariy jihatdan uch turga bo'lishimiz mumkin: institutsional, protsessual va ijtimoiy. Institutsional jihatdan sudyalarni tanlash va tayinlashning demokratik tizimini nazarda tutadi; sudyalarni almashtirib bo'lmasligi, daxlsizligi va ularning faoliyatiga aralashmaslikning konstitutsiyaviy va huquqiy institutlari. Protsessual kafolatlar, asosan, sud ishlarini ko'rib chiqishning kollegial shakli, o'z-o'zini rad etish instituti, sudlov normalari, protsessual qonun hujjatlarida nazarda tutilgan prinsip va boshqa tartib-taomillarni o'z ichiga ola-

di. Sudyalari mustaqilligining ijtimoiy kafolatlari sudyaning yuksak mavqeyiga mos keladigan davlat hisobidan moddiy va ijtimoiy ta'minotini ta'minlashni nazarda tutadi. Mazkur kafolat adabiyotlarda "shaxsiy kafolatlar" sifatida ham keltiriladi. Shaxsiy mustaqillik yoki sudyaning huquqiy pozitsiyasiga asoslangan mustaqillik; bu sudlov organlari xodimlarini lavozimga tayinlash va ishdan bo'shatish, haq to'lash, baholash, ko'tarilish, nomuvofiqlik, tayinlash muddati, boshqa joyga o'tkazish va ishdan bo'shatishdan himoya qilish, intizomiy jazo choralari, shikoyatlarni ko'rib chiqish va boshqa elementlar bo'yicha huquqiy pozitsiyasiga kiritilgan kafolatlarga taalluqlidir [15, 19-b.].

Konstitutsiyaviy sud sudyasi faoliyatining eng muhim prinsiplaridan biri – bu Konstitutsiyaviy sud sudyasini almashtirib bo'lmasligidir. Konstitutsiyaviy sudning sudyasi lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi, qoida tariqasida, yetmish yoshni tashkil etadi. Konstitutsiyaviy sud sudyalari faoliyatidagi eng muhim jihatlardan biri ularning intizomiy javobgarligi hisoblanadi. Biroq bu to'g'rida Konstitutsiyaviy sud faoliyatini tartibga soluvchi qonunda biror-bir masala yoritilmagan. Sudyaning intizomiy javobgarligi O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunining 11-bobida keltirilgan bo'lib, sudya faqat tegishli sudyalari malaka hay'ati qaroriga binoan intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi keltirilgan.

Biroq Konstitutsiyaviy sud sudyasining sodir etgan harakatlari sudyalik qasamyodini buzish deb hisoblansa, Qonunning 16-moddasiga muvofiq, vakolatlari muddatidan ilgari tugatiladi. Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish asoslari aniq keltirilgan bo'lsa-da, ularning intizomiy javobgarligi masalasi oqibatlari tegishli qonunda to'liq aks ettirilmagan. "Sudlar to'g'risida"gi Qonun tatbiq etiladigan bo'lsa, ogohlantirish, hayfsan, o'rtacha oylik

ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima, malaka darajasini bir pog'onaga pasaytirish, vakolatlarini mud-datidan ilgari tugatishni qachon va qay tartibda qo'llash masalasi ochiqlanishi lozim. Xususan, ogohlantirish asoslari, sudya tomonidan intizomiy huquqbuzarlik sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirish, sudyaning yozma yoki og'zaki tushuntirish berish huquqi, masalani ko'rib chiqish muddati, ovoz berish tartibi va intizomiy jazoni bekor qilish shartlari aniq keltirilishi lozim.

Shuningdek, Konstitutsiyaviy sud sudyalarning moddiy va ijtimoiy ta'minoti "Sudlar to'g'risida"gi Qonunga havola qilinadi. Biroq mazkur qonunda ham bu masalalar batafsil keltirilmagan hamda qonunosti hujjatlariga havola qilinadi. Fikrimizcha, Konstitutsiyaviy sud sudyalarning moddiy va ijtimoiy ta'minotiga oid kafolatlar batafsil qonun orqali tartibga solinishi lozim. Unda Konstitutsiyaviy sud sudyalari faoliyatining moddiy, ma'naviy va ijtimoiy kafolatlari aniq keltirilishi zarur. Masalan, ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan Konstitutsiyaviy sud sudyalari beriladigan imtiyozlar, iste'fodagi faxriy Konstitutsiyaviy sud sudyalari nisbatan beriladigan ta'minot, Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilganda beriladigan bir martalik to'lovlar, ularning oila a'zolariga beriladigan imtiyozlar qonun darajasida aniq keltirilishi kerak. Hozirgi kunda mazkur masalalar to'liq qamrab olinmagan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlariga havola qilinadi.

Konstitutsiyaviy sud sudyalari faoliyatining eng muhim kafolatlaridan bo'lgan moddiy va ijtimoiy ta'minoti masalalari kengroq va batafsil yoritilishi mustaqilligini ta'minlashdagi muhim qadam hisoblanadi.

Xorij tajribasida oliy davlat organlarining qurilishi tizimini o'rganish shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda ko'plab aralash boshqaruv shaklidagi mamlakatlar vujudga kelmoqda. Hokimiyat tarmoqlarini tashkil etish jarayoni ham bevosita boshqaruv shakliga ta'sir qiladi [16].

Xulosalar

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, jamiyatda sud organlarining nufuzini oshirish, sudyalarning chinakam mustaqilligi va faqat qonunlarga asoslanib ish yuritishini ta'minlash, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichga o'tish hayotiy zaruratga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi mustaqilligi uni shakllantirish tartibi, tarkibi, vakolatlari bevosita Konstitutsiyada belgilab qo'yilganligi bilan ta'minlanadi. Shu bois Konstitutsiyaviy sud sudyalari mustaqilligini ta'minlash borasidagi tadqiqot doirasida quyidagilar taklif etiladi:

"O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunda konstitutsiyaviy sudlov mustaqilligining Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan kafolatlari sifatida institutsional, protsessual va ijtimoiy kafolatlarini aniq yoritish;

Konstitutsiyaviy sudni shakllantirish va uning faoliyati, saylash (tayinlash) tartibida xolislik va siyosiy ta'sirlardan xoli bo'lishni ta'minlash;

sudyalari faoliyati kafolatlariga oid normalarni institutsionallashtirish.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyaviy sud sudyalarning har tomonlama mustaqilligini ta'minlash huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishdagi muhim shartlardan bo'lib, Konstitutsiyaviy sudning boshqa hokimiyat organlari ta'siridan xoli bo'lishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Troper M. Separation of powers. Montesquieu Electronic Dictionary. Available at: <http://dictionnairemontesquieu.ens-lsh.fr/index.php?id=286/>.
2. Montesquieu, De l'Esprit des lois [On the Spirit of Laws]. Ed. Garnier-Flammarion. Paris, 1979, vol. 1, book XI, chap. 6, pp. 294–295.
3. Vivien A.F.A. Études administratives [Administrative Studies]. Guillaumin & Cie Bookstore, Rue Richelieu. Paris, 1859, vol. 1, pp. 17–18.
4. Shelomanova L.V. Nezavisimost' sudey kak konstitutsionnyy printsip pravosudiya [Independence of judges as a constitutional principle of justice]. PhD thesis. Belgorod, 2013, p. 24.
5. Zakharov S.S. Samostoyatel'nost' i nezavisimost' pravosudiya kak bazovyye konstitutsionnyye printsipy [Autonomy and independence of justice as basic constitutional principles]. Abstract of PhD thesis. Belgorod, 2019, p. 26.
6. Zhurba Ye.P. Sovremennyye tendentsii razvitiya nezavisimosti sudey [Modern trends in the development of the independence of judges]. Saratov State Academy of Law, 2008, p. 13.
7. Tsikhotskiy A.V. Teoreticheskiye problemy effektivnosti pravosudiya po grazhdanskim delam [Theoretical problems of the effectiveness of justice in civil cases]. Novosibirsk, 2007, p. 13.
8. Independent, impartial and independent court. Available at: https://ccu.gov.ua/sites/default/files/ndf/IndependenceJudiciary_PL.pdf/.
9. Anishina V.I. Konstitutsionnyye printsipy kak osnova samostoyatel'nosti sudebnoy vlasti [Constitutional principles as the basis for the independence of the judiciary]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Moscow, 2016, p. 48.
10. Karapetyan L.M. Garantii nezavisimosti organa konstitutsionnogo kontrolya [Guarantees of Independence of the body of Constitutional Control]. *Bulletin of the Constitutional Court of the Russian Federation*, 1997, no. 2, pp. 64–70.
11. Kommers D.P. The Constitutional Law of Abortion in Germany: Should Americans Pay Attention? *Contemp. Health L. & Pol'y*, 1994, vol. 10 (1). Available at: https://scholarship.law.nd.edu/law_faculty_scholarship/733/.
12. Easterbrook F. H. What's So Special About Judges? *Univ. of Colorado Law Rev.*, 1990, vol. 61, p. 773.
13. The judicial system of Uzbekistan cannot yet be considered independent. UN Special Rapport. Available at: <https://www.gazeta.uz/ru/2020/07/16/review/>.
14. Raximov A. Sud faoliyatida tub o'zgarishlar davri yoxud «Konstitutsiyaviy sud nima ish qiladi?» [A period of radical change in the work of the judiciary or "What the Constitutional Court does?"]. Available at: https://uza.uz/uz/posts/sud-faoliyatida-tub-ozgarishlar-davri-yoxud-konstituciaviy-sud-nima-ish-qiladi_278791/.
15. Verhey L.F.M. De onafhankelijkheid van de rechter naar Nederlands recht [The independence of the judge under Dutch law]. Preliminary advice for the Association for the comparative study of the law of Belgium and the Netherlands. Deventer, Kluwer, 2001, pp. 19–76.
16. Turdiev X. Hukumatni shakllantirish jarayoni davlat boshqaruv shaklining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida [The process of government formation as one of the main indicators of the form of state administration]. *Society and innovation*, 2021, vol. 2, no. 6, pp. 87–95.
17. Friedman B. The Politics of Judicial Review. *Texas Law Rev.*, 2005, vol. 84, p. 256.
18. George T.E., Epstein L. On the Nature of Supreme Court Decion of Supreme Court Decision Making. *American Political Science Rev.*, 1992, vol. 86, p. 323.

UDC: 347.122(045)(575.1)

IJTIMOYIY TARMOQLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI

Xo'jayev Shohjahon Akmaljon o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Intellektual mulk huquqi kafedrasini mudiri,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0003-3792-8817
e-mail: intertoto50@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda dunyo aholisining 67 %, o'zbekistonliklarning qariyb 80 % Internet, xususan, ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali turli huquqiy munosabatlar vujudga kelmoqda – elektron tijorat, axborot almashish va h.k. Afsuski, inson huquq va erkinliklarining buzilish holatlari ham kuzatilmoqda. Ushbu maqolada virtual munosabatlar hamda ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solishga oid xalqaro va milliy qonunchilik normalari tanqidiy tahlil qilindi. Maqolaning asosiy maqsadi ilg'or standartlarni hisobga olgan holda, qonunchilikni takomillashtirishdan iborat. Tadqiqot usullari sifatida tanqidiy tahlil, qiyosiy-huquqiy hamda statistik ma'lumotlarni o'rganish usullari qo'llanildi. Tahlillarni hisobga olgan holda, ijtimoiy tarmoqlarda vujudga keladigan virtual munosabatlarni samarali huquqiy tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Internetdan foydalanish erkinligini mustahkamlash, blogerlarning huquqiy maqomini aniqlashtirish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni faqat sud tartibida cheklash mexanizmini joriy etish zarurligi ochib berildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlarda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlash bo'yicha xulosalar qilindi. Ushbu xulosalardan O'zbekiston Respublikasida Internetning milliy segmenti, jumladan, ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish, ijtimoiy tarmoqda axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amaliyotni takomillashtirishda foydalanish mumkin. Tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlarga nisbatan shartnomaviy-huquqiy vositalarni qo'llashning nazariy asoslarini boyitishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: Internet, ijtimoiy tarmoq, bloger, virtual makon, axborot xavfsizligi.

НЕОБХОДИМОСТЬ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ

Хужаев Шохжахон Акмалжон угли,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
заведующий кафедрой «Право интеллектуальной собственности»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Сегодня 67 % населения мира, около 80 % узбекистанцев активно пользуются Интернетом, в частности социальными сетями. Посредством социальных сетей возникают различные правоотношения – электронная коммерция, обмен информацией и т. д. К сожалению, также наблюдаются случаи нарушения прав и свобод человека. В данной статье критически проанализированы нормы международных актов и национального законодательства, касающиеся регулирования виртуальных отношений и социальных сетей. Основная цель статьи – совершенствование законодательства с учетом передовых стандартов. В качестве методов исследования были использованы методы критического анализа, сравнительно-правового анализа и изучения статистических данных. С учетом анализа выявлено, что

в целях эффективного правового регулирования виртуальных отношений, возникающих в социальных сетях, в Конституции Республики Узбекистан необходимо закрепить свободу пользования Интернетом, уточнить правовой статус блогеров, ввести механизм ограничения использования социальных сетей только в судебном порядке. По результатам проведенного исследования были сделаны выводы о важности обеспечения защиты прав и свобод личности в социальных сетях. Данные выводы могут быть использованы при разработке нормативно-правовых актов, направленных на регулирование национального сегмента Интернета в Республике Узбекистан, в том числе социальных сетей, совершенствовании практики по обеспечению информационной безопасности в социальных сетях. Результаты исследования позволяют обогатить теоретические основы применения договорно-правовых инструментов при регулировании отношений в социальных сетях.

Ключевые слова: Интернет, социальная сеть, блогер, виртуальное пространство, информационная безопасность.

THE NEED FOR LEGAL REGULATION OF SOCIAL NETWORKS

Khujayev Shokhjakhon Akmaljon ugli,
Head of the Department Intellectual Property Law
of Tashkent State University of Law, PhD in Law

Abstract. Today 67% of the world's population, about 80% of Uzbek people actively use the Internet, in particular social networks. Various legal relationships arise through social networks – e-commerce, information exchange, etc. Unfortunately, there are also cases of violations of human rights and freedoms. This article critically analyzes the norms of international acts and national legislation concerning the regulation of virtual relationships and social networks. The main purpose of the article is to improve legislation by taking advanced standards into account. Methods of critical analysis, comparative legal analysis, and statistical data study were used as research methods. Taking the analysis into account, it was revealed that in order to effectively regulate virtual relations arising in social networks, it is necessary to consolidate the freedom of Internet use in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, clarify the legal status of bloggers, introduce a mechanism to restrict the use of social networks only in court. Based on the results of the study, conclusions were drawn about the importance of ensuring the protection of individual rights and freedoms in social networks. These conclusions can be used in the development of regulatory legal acts aimed at regulating the national segment of the Internet in the Republic of Uzbekistan, including social networks, improving the practice of ensuring information security in the social network. The results of the study allow us to enrich the theoretical foundations of the use of contractual legal instruments in the regulation of relations in social networks.

Key words: Internet, social network, blogger, virtual space, information security.

Kirish

Bugungi kunda globallashuv sharoitida munosabatlarning virtuallashuvi va faoliyatning deyarli barcha shakllarining raqamlashtirilishi hayotimizning ajralmas qismiga aylanganligi hech kimga sir emas. Xalqaro “Statista” statistik portali ma’lumotlariga ko’ra, dunyoda 4,9 milliard kishi Internet tarmog’idan, xususan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi, bunda dunyo

yoshlarining 96 % ijtimoiy tarmoqlarning eng faol foydalanuvchilari hisoblanadi [1].

Virtual makon, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar jamiyat a’zolari o’rtasidagi yangi munosabatlar vujudga kelish imkoniyatlarini kengaytirib, Butunjahon Internet tarmog’ida jamoatchilik bilan aloqalarning yangi shaklini yaratdi. Ijtimoiy tarmoqlarning odamlar ongiga ta’sirining kuchayishi, bir tomondan, ularning jamiyat a’zolari uchun qulayligi va

samaradorligidan dalolat bersa-da, biroq boshqa tomondan, ijtimoiy tarmoqlar yovuz niyatli hamda tinchlik va totuvlikka raxna soluvchi ayrim shaxslarning “qurol”iga aylanib [2, 75-b.], ijtimoiy tarmoqlardan salbiy maqsadlarda foydalanish xavfi sezilarli darajada oshishiga sabab bo'lmoqda. O'z navbatida, biron-bir tartibga soluvchi mexanizmlar, xususan, ijtimoiy tarmoqlarga oid huquqiy normalarning yo'qligi davlat tomonidan o'z vaqtida va yetarli darajada javob choralarining ko'rilishini talab qiladi. Bundan tashqari, davom etayotgan COVID-19 koronavirus pandemiyasi sharoitida ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solish masalasining kechikishi har xil siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning huquqiy tartibga solinishi zarurati va dolzarbligi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

Birinchidan, ijtimoiy tarmoq tushunchasi qonunchilikda belgilanmagan, bu esa ularni biron-bir huquq obyektini sifatida baholashga imkon bermaydi. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy tarmoqqa nisbatan turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarda qonunchilik ijrosini ta'minlash to'g'risida axborot resursi, munosabat vujudga keladigan makon yoki alohida vosita sifatida ko'rib chiqish holatlari mavjud. Ijtimoiy tarmoqlarning aniq maqomi ularning yaratuvchisi, egasi va undan foydalanuvchilarning maqomini aniq belgilashga imkon beradi. Xuddi shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar yordamida vujudga keladigan shartnomaviy munosabatlar ijtimoiy tarmoqlardagi akkaunt, nikneym kabi toifalarni ham huquqiy baholashga sharoit yaratadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda vujudga keladigan munosabatlar insonlarning yangi virtual huquq va erkinliklarini vujudga keltirmoqda. Shu sababli ham an'anaviy huquq tarmoqlarining normalarini ushbu munosabatlarga nisbatan qo'llash har doim ham samarali yoki yetarli emas. Jumladan,

ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni cheklash so'z va axborot olish erkinligi sifatida baholanishi mumkin, binobarin, amalda ijtimoiy tarmoqqa nisbatan turli cheklovlar belgilanishi inson huquqlari buzilishi sifatida ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, shaxsning virtual muhitdagi muhofazasi, axborot almashinuvi erkinligi kabi masalalar ham ijtimoiy tarmoqlarning tartibga solinishini taqozo etadi.

Uchinchidan, xorijiy mamlakatlar tajribasi mazkur sohaning tartibga solinishi muhimligini ko'rsatmoqda. Xususan, Germaniyaning “Ijtimoiy tarmoqlarda qonunchilik ijrosini ta'minlash to'g'risida”gi Qonuni (Facebook Act), AQShning “Kommunikatsiya sohasidagi odob-axloq to'g'risida”gi Qonunining 230-bobi va Prezidentning ijtimoiy tarmoqlarda so'z erkinligi to'g'risidagi tegishli Farmoni bunga yaqqol misoldir. Umuman olganda, zamonaviy virtual munosabatlarning asosiy o'chog'i bo'lmish ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solish inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Misol uchun, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy hayot daxlsizligi buzilishi yoki shaxsga doir ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish holatlarini aniq tartibga soladi.

Material va metodlar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda umumilmiy usullar bilan bir qatorda tanqidiy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik materiallarni o'rganish kabi usullardan foydalanilgan.

Tanqidiy tahlil amaldagi qonunchilikda muayyan bo'shliq va nomuvofiqliklar mavjud ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni cheklash Hukumat qarori bilan amalga oshirilib, bunga Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha markazi xulosasi yoki Ommaviy kommunikatsiyalar sohasidagi ekspert komissiyasi qarori asos bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish

inson huquqlaridan biri ekanligini inobatga olgan holda, Hukumat qarorida belgilangan qoidalar Konstitutsiyaning 19-moddasida belgilangan “fuqarolarning huquqlaridan sud qarorisiz mahrum etish yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emasligi” to‘g‘risidagi qoidaga zid ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, tanqidiy tahlil shaxsga doir ma‘lumotlarni O‘zbekiston hududida joylashgan texnik vositalarda saqlash bo‘yicha qoidani amalga oshirish nafaqat huquqiy, balki texnik yechimlar (infratuzilma yaratish)ni taqozo etishini aniqlashga imkon berdi.

Qiyosiy-huquqiy tahlil o‘rganilayotgan mavzu aksariyat rivojlangan mamlakatlar qonunchiligida aks etgani, unda Internet va ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solish axborot erkinligi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Xususan, Estoniya, Finlandiya, Fransiya, Gretsiya va Ispaniya Konstitutsiyalarida ushbu masala mustahkamlangan.

Germaniya Konstitutsiyasining 5-moddasiga ko‘ra, har kim o‘z fikrini og‘zaki, yozma va tasvirlar orqali erkin ifoda etish va tarqatish, shuningdek, ommaviy mavjud manbalardan erkin ma‘lumot olish huquqiga ega.

Finlandiya Konstitutsiyasi oldindan nazorat qilinmasdan ma‘lumot, fikr va boshqa aloqalarni ifoda etish, nashr etish va olish huquqini o‘z ichiga olgan so‘z erkinligini kafolatlaydi.

Ispaniya Konstitutsiyasi har qanday tarqatish vositasi orqali ishonchli ma‘lumotlarni bepul uzatish va olishni kafolatlaydi.

Gretsiya Konstitutsiyasining 5a-moddasiga ko‘ra, har kim axborot jamiyatida ishtirok etish huquqiga ega. Axborotdan elektron shaklda foydalanish, shuningdek, uni izlash, almashish va tarqatishni ta‘minlash davlat zimmasidadir.

Statistik materiallarni o‘rganish mavzu keng qamrovli va deyarli hamma uchun muhim ekanligini ko‘rsatdi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 27 milliondan ortiq kishi Internetdan foydalanmoqda, bu esa mamlakat

aholisining 77 %ni tashkil etadi [3]. Ayniqsa, koronavirus pandemiyasi davrida Internet axborot olish va tarqatishning asosiy manbayiga aylandi. Binobarin, ijtimoiy tarmoqlarni samarali tartibga solish fuqarolarning huquqlarini samarali amalga oshirish va himoya qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari

Ijtimoiy tarmoqlarning huquqiy jihatlari tartibga solinishi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lgan munosabatlar majmuasini aks ettiradi. Ularni ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarbdir. Bunga quyidagilarni asos sifatida keltirib o‘tish lozim, deb hisoblaymiz.

*Birinchi*dan, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi ijtimoiy tarmoqlar, ularning egalari va foydalanuvchilarining huquqiy holatini belgilamaydi. Virtual makonni tartibga solish masalalari faqat “Axborotlashtirish to‘g‘risida”, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari normalarida o‘z aksini topgan. Biroq ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda ijtimoiy tarmoqlar va ularning subyektlarini tartibga solish mexanizmlari mutlaqo ko‘zda tutilmagan (qonunlar matnlarida “ijtimoiy tarmoqlar” tushunchasi mavjud emas). Ijtimoiy tarmoqlarning huquqiy maqomini aniq belgilash ularni ommaviy axborot vositalari, ayrim faoliyat turlarini amalga oshirish uchun elektron platformalar (elektron tijorat, xizmatlar ko‘rsatish), turli subyektlarning o‘zaro aloqalari (ijtimoiy tarmoqlar orqali aloqa)dan farqlashga imkon beradi.

*Ikkinchi*dan, ijtimoiy tarmoqlar har xil faoliyat turlari uchun keng ommalashgan platformaga aylandi. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlar savdo va tijorat faoliyati uchun ajoyib muhitga aylanib bormoqda (oziq-ovqat va boshqa tovarlarni yetkazib berishga buyurtma qabul qiladigan har xil Telegram botlari).

O‘z navbatida, davlat organlari va tashkilotlari uchun ijtimoiy tarmoqlarda ishlash

ularning ochiqligi va shaffofligini ta'minlamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar aholi bilan muloqot qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash uchun qulay maydonga aylandi [4, 187-b.]. Endilikda davlat organlari va tashkilotlarining axborot siyosati rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlarning xilma-xilligi bilan emas, balki ijtimoiy tarmoqlarda taqdim etilgan ma'lumotlarning tezkorligi bilan baholanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda davlat organlarining rasmiy sahifasi mavjudligi ijtimoiy tarmoqlar endi faqat shaxsiy yozishmalar va odamlar o'rtasidagi muloqot maydonchasi emasligidan dalolat beradi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoq jamiyat va davlat uchun muhim platformadir. Zamonaviy foydalanuvchilar ijtimoiy tarmoqqa rasmiy ma'lumot olish platformasi sifatida qarashadi.

Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlar, afsuski, shaxs, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari buziladigan joyga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlarda huquqbuzarliklar va boshqa noqonuniy harakatlar tobora ko'payib bormoqda. Jahon hamjamiyati ijtimoiy tarmoqlardagi tahdidlarga qarshi samarali mexanizmi yaratishga qiziqishi bejiz emas. Pandemiya davrida turli moliyaviy hiylalar va firibgarlik holatlari bir necha barobar o'sdi.

Ijtimoiy tarmoqlar faoliyatini tartibga solish muammolarini hal qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Murakkab muammolarning mavjudligi ijtimoiy tarmoqlarning mohiyatini kiber huquqning yaxlit tizimi doirasida nazariy jihatdan o'rganish muhimligini ko'rsatadi, chunki an'anaviy huquq tarmoqlari (fuqarolik huquqi, ma'muriy huquq) shaxs, jamiyat va davlatning huquqlari va erkinliklarini tartibga solish hamda ularni to'g'ri himoya qilish samaradorligini ta'minlashga qodir emas [5, 1283-b.]. Qonunchilik turli xil normativ-huquqiy hujjatlarda ushbu muammolarning ayrim jihatlarini tartibga solsa, ijtimoiy tarmoqlarga nisbatan kompleks yondashuvning yo'qligi ko'p vektorli muammolarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlarni tartibga solishning samarali huquqiy asosi – bu yaqin o'n yilliklarda axborot sohasidagi davlat siyosatini oldindan belgilab beradigan obyektiv zaruratdir. Bu ijtimoiy tarmoqlarning huquqiy holatini aniqlash, ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy munosabatlarni tartibga solish, virtual munosabatlar subyektlarini himoya qilish zarurligini anglatadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Internet, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda dunyodagi voqea va hodisalar haqidagi asosiy axborot manbayiga aylandi. Bu tezkor va samarali axborot almashish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, aholining turli axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shubhasiz, Internetning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni juda katta. Shu sababli 2011-yil 3-iyun kuni *BMT Internetdan foydalanish huquqini insonning ajralmas va uzviy huquqlaridan biri* deb tan oldi [6, 50-b.]. Bundan buyon mazkur sanadan boshlab shaxslarni, ma'lum mintaqa va hududlarni Butunjahon tarmog'idan uzib qo'yish *inson huquqlarining buzilishi* deb hisoblanadi. BMT o'z yondashuvini *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi* hamda *Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning* 19-moddalari, ya'ni har bir insonning fikr, so'z va e'tiqod erkinligi, har qanday ma'lumotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega ekanligi bilan asoslantiradi.

Ta'kidlash joizki, Internetdagi "madaniyat" oflayn muhitdan shakllangan bo'lib, o'z navbatida, tarmoqdagi foydalanuvchilar na faqat axborot olish huquqi, balki shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ham amalga oshiradilar. Shunday qilib, inson huquqlari onlayn muhitda ham himoya qilinishi kerak. Binobarin, virtual makonda inson huquq va erkinliklarini amalga oshirish hamda ularni ta'minlash ijtimoiy tarmoqdagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishni taqozo etadi.

Bugungi kunda, xususan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar doirasida Internetdan foydalanish huquqini Asosiy qonun darajasida mustahkamlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xorijiy ekspert-tahlil markazlari o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, inson axborot huquqlarini Internetdan foydalanish huquqlari sifatida talqin qilish zarurligi haqida fikr bildirilmoqda [7]. Bu fikr, avvalo, Internet makonining xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinmayotgani, huquqiy munosabatlar subyektlari (foydalanuvchilar) sonining yildan-yilga o'sayotgani va ularning huquqlari masalasi keskinlashib borayotgani bilan bog'liq.

Jumladan, Baltimor universitetining konstitutsiyaviy huquq bo'yicha olimlari Jeff Handelsman, Eby Kalantar o'zlarining *Live, Liberty and Internet Access: Is logging on a Basic Human Rights? (Hayot, Ozodlik va Internetdan foydalanish: bazaviy inson huquqlari qatoriga kiradimi?)* nomli ilmiy ishlarida Internetdagi ijtimoiy munosabatlar, jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda konstitutsiyaviy huquqlarni amalga oshirishda allaqachon inson huquqlari masalasi vujudga kelganligi, shu jumladan, virtual makonda inson huquqlarini himoya qilish muhimligini ko'rsatib o'tishgan [8, 36-b.].

Yuqoridagi fikrga asoslanib, Internet, xususan, ijtimoiy tarmoqlar virtual foydalanuvchilarning moddiy dunyo normalarida mustahkamlangan huquq va erkinliklarini amalga oshirish orqali ijtimoiy munosabatlarga kirishadigan muhit (virtual dunyo)ga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. O.V. Tanimov va Y.V. Kudashkinlar ham shunga o'xshash fikr bildirib, "Internet turli ijtimoiy munosabatlar (fuqarolik-huquqiy, axloqiy va sh.k.)dan vujudga keladigan, o'zgaradigan va yakun topadigan virtual axborot muhitini yaratadi", deb ta'kidlashgan [9, 23-b.].

Shunday qilib, agar biz moddiy va virtual dunyo o'rtasida tenglik belgisini qo'yadigan

bo'lsak, Internetda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan quyidagi shaxsiy huquqlar amalga oshiriladi, deb aytish mumkin:

erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi (25-modda);

insonning sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuzlardan himoya qilinish huquqi; shaxsiy hayotiga aralashish, virtual makondagi yozishmalar va suhbatlarning maxfiyligiga bo'lgan huquq (27-modda);

fikr, so'z va e'tiqod erkinligi huquqi, har qanday ma'lumotni izlash, olish va tarqatish huquqi (29-modda);

vijdon erkinligi (31-modda).

Bundan tashqari, virtual makonda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar faol ravishda amalga oshirilmoqda.

2021-yilda BMTning *Inson huquqlari bo'yicha kengashi Insonning barcha huquqlari: fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari, shu jumladan, shaxsiy rivojlanish huquqini targ'ib qilish va himoya qilish to'g'risida rezolyutsiyasi* qabul qilindi. Ushbu rezolyutsiyaning qabul qilinishi nafaqat Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, balki tegishli inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar, shu jumladan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qoidalari doirasini kengaytirdi. Mazkur rezolyutsiyada onlayn muhitda ham inson huquqlarini rivojlantirish lozimligi (onlayn ta'lim platformalari, shaxsiy rivojlanish va ma'lumot olish bazalarini yaratish) bilan bir qatorda, Internet hamda ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash, salbiy tusga ega bo'lgan buzg'unchi g'oyalar (ekstremizm, terrorizm va separatizm, bolalar sog'lig'i, axloqi va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadigan materiallar) tarqatilishining oldini olish muhimligi qayd etilgan [10].

O'zbekiston Respublikasida xalqaro standartlarda e'tirof etilgan Internet-

dan foydalanish huquqi amalga oshirilishini konstitutsiyaviy darajada kafolatlash bo'yicha muayyan ishlar qilinmoqda. Xususan, Asosiy qonunda "Internetdan foydalanish huquqi"ni alohida nazarda tutish taklif etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining amaldagi 29-moddasida "har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega"ligi qayd etilgan.

Fikrimizcha, Internetdan foydalanish erkinligiga bo'lgan huquqni Konstitutsiya darajasida mustahkamlash quyidagilarga asosan dolzarb deb hisoblaymiz.

Avvalambor, jahon hamjamiyati tomonidan Internetdan foydalanish erkinligini mustahkamlash allaqachon insonning asosiy huquqi sifatida e'tirof etilgan. Axborot va g'oyalarni har qanday vositalar bilan qidirish, olish va tarqatish erkinligi 1948-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida mustahkamlangan. BMT globallashuvini inobatga olgan holda, 2011-yilda Internetdan foydalanish huquqini ajralmas huquq sifatida tan oldi. Keyinchalik BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi fundamental inson huquqlari ro'yxatiga Internetdan erkin foydalanish bandini kiritish lozimligini qayd etdi. *Internetda muloqot erkinligi to'g'risidagi Strasburg deklaratsiyasi* Internet erkinligining yetti tamoyilini o'z ichiga olgan [11]. Xususan, oldindan davlat nazoratining yo'qligi, odamlarning axborot jamiyatida ishtirok etishidagi to'siqlarni olib tashlash, Internet orqali xizmat ko'rsatish erkinligi kabi.

Bundan tashqari, Internetdan foydalanish erkinligini ta'minlash saytlar va Internet resurslarini "bloklash" biln bog'liq muammolarni hal qiladi. Konstitutsiyada Internetdan foydalanishni faqat sud tomonidan cheklash tartibi va asoslarini mustahkamlash lozim. Sud muayyan holatlarda bunday huquqni amalga oshirishni cheklashi kerak. Mazkur holatlar ham aniq belgilanishi lozim, aks holda, bu holatlar amaliyotda asossiz ravishda kengaytiriladigan tarzda talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, axborot resurslaridan foydalanish erkinligi ham so'z erkinligini ta'minlash uchun qulay muhit yaratadi. Internet tarmog'ining OAV va faol foydalanuvchilari faoliyati samarali jamoatchilik nazorati vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, sog'lom muhit jurnalistlar va OAV mavqeyini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, O'zbekiston tomonidan Internetdan foydalanish huquqini konstitutsiyaviy mustahkamlash nafaqat umume'tirof etilgan xalqaro standartlarni implementatsiya qilish, balki ijtimoiy tarmoqlarda inson huquq va erkinliklarini ta'minlaydi.

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solish *bloger maqomini belgilash va ularning javobgarligini aniqlashtirishga* imkon beradi. Agar qonunchilik bloger qachon, qanday holatlarda va qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olishini aniqlamasa, jamiyatni soxta yangiliklar va manipulyatsiyadan himoya qilish mumkin emas. 2014-yilda O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuniga "*bloger*" tushunchasi kiritildi. Bloger – ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa tUSDagi ommaviy axborotni o'z Internet tarmog'idagi veb-sayti va (yoki) veb-sayti sahifasida, shu jumladan, axborotdan foydalanuvchilar tomonidan muhokama qilish uchun joylashtiradigan shaxs. Bloger maqomiga ega bo'lish uchun hech qanday ruxsatnoma yoki rasmiyatchilik talab qilinmaydi. A. Rasulev, G. Sa'dullayevlar ta'kidlaganidek, "bugungi kunda har kim blog yaratishi, ma'lumotlarni erkin joylashtirishi va yangiliklar haqida xabar berishi mumkin" [12, 125-b.].

Qonunda axborotni joylashtirish mumkin bo'lmagan maqsadlar belgilangan. Masalan, bloger urush yoki terrorizmga da'vat etuvchi ma'lumotni joylashtira olmaydi. Qonun, shuningdek, bloger joylashtiriladigan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish, yolg'on ma'lumotlar yoki noqonuniy kontentni o'chirishga majbur. Shu bilan birga, ushbu talablarni bu-

zish qonunga muvofiq javobgarlikni keltirib chiqarishi ko'rsatilgan. Ammo, afsuski, amaldagi qonunchilikda ushbu holatlarda blogerning javobgarligini belgilaydigan maxsus huquqiy norma mavjud emas. Bu esa huquqni qo'llash amaliyotida bir qator muammolarga sabab bo'ladi. O'z navbatida, blogerlarning qonuniy manfaatlariga ham ziyon yetishi mumkin. Shu sababli ularning javobgarlik chegarasi aniq va adolatli bo'lishi lozim.

Ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solish bilan bog'liq muhim masalalardan biri – bu *shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishdir*. 1981-yildagi *Shaxsiy ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlashda jismoniy shaxslarni himoya qilish bo'yicha Yevropa Konvensiyasida* ta'kidlanishicha, avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazalarida saqlanadigan shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish uchun ularning tasodifiy yoki ruxsatsiz yo'q qilinishi yoki tasodifiy yo'qolishining oldini olish, shuningdek, bunday ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, o'zgartirish yoki tarqatishning oldini olish uchun tegishli xavfsizlik choralarini ko'rilishi lozim [13].

Global xavf-xatarlarga javob berishning yaxlit strategiyalari: jinoyatchilikning oldini olish, jinoiy odil sudlov tizimlari va ularning o'zgaruvchan dunyoda rivojlanishi to'g'risidagi Salvador deklaratsiyasida ham Yevropa Konvensiyasiga o'xshash yondashuv ko'rsatilgan [6]. Deklaratsiyada a'zo davlatlar shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish, shuningdek, ushbu harakatlarni sodir etishni ta'qib qilish va jazolash uchun tegishli qonuniy choralar ko'rishlari kerakligi qayd etilgan. Mazkur xalqaro hujjatlar bugungi kundagi globallashtirish sharoitida ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish masalasi yuzasidan samarali mexanizmlarni nazarda tutmaydi.

O'zbekiston Respublikasi shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish masalasi "*Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida*"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq amalga

oshiriladi. Mazkur qonunning 27¹-moddasi bevosita ijtimoiy tarmoqlarga tegishli bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishda ijtimoiy tarmoq egasi va (yoki) operator tegishli bazani yaratishi va davlat ro'yxatidan o'tkazishi, ushbu bazaning serverlarini jisman O'zbekiston hududida joylashtirishi shartligi alohida qayd etilgan. Ushbu qoidalarining amalga oshirilishi amaliyotda ko'plab muammo va tushunmovchiliklarga sabab bo'lmoqda. Shu sababli ham mazkur cheklovni amalda qo'llash bilan bog'liq masalalarga aniqlik kiritish lozim. Xususan, data-markazlarini yaratish, xarid qilish va ijaraga olish yuzasidan tegishli infratuzilma yaratish zarur. Chunki qonuniy talabni bajarish istagida bo'lgan har qanday ijtimoiy tarmoq egasi yoki operator, birinchi navbatda, texnik masalalar bilan qiziqadi. Binobarin, shaxsga doir ma'lumotlarni O'zbekistondagi serverlarda saqlash bilan bog'liq masalalarni samarali amalga oshirish uchun *data-markazlarini yaratish, xarid qilish va ijaraga olish yuzasidan huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish* darkor.

Ijtimoiy tarmoqlarni tartibga solishda shartnomaviy-huquqiy usullar ham muhim sanaladi. Bu kabi amaliyot *Twitter, Facebook, Pinterest* kabi ijtimoiy tarmoqlar faoliyatida qo'llaniladi. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari va ijtimoiy tarmoqlar egasi (operatori) o'rtasida *foydalanuvchi kelishuvlari* tuziladi. Aynan ushbu kelishuvlar shaxs ijtimoiy tarmoqdan foydalanishi jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladi. Xususan, *Twitter, Facebook, Pinterest*larning foydalanuvchi kelishuvlarida tarmoqqa joylashtiriladigan kontentlar uchun foydalanuvchi javobgarligi, mualliflik huquqi masalalariga doir qoidalar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farnoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash

va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining 328-pozitsiyasida *“Milliy ijtimoiy tarmoq va messenjerlar hamda axborot kommunikatsion dasturlar yaratish”* nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasida milliy ijtimoiy tarmoqlar yaratilayotganini inobatga olgan holda, ular tomonidan *foydalanuvchi kelishuvlarini* tuzish amaliyoti samaradorligini ta‘minlash maqsadida mazkur turdagi kelishuvlarga qo‘yilgan talablarni qonunchilikda belgilash maqsadga muvofiq. Bu turli tushunmovchiliklarning oldini olish va yagona huquqiy amaliyotni yaratishga imkon beradi.

Ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solish ulardan foydalanishni *cheklash va “bloklash”* bilan bog‘liq muammoni samarali va odilona hal etadi. Amaldagi tartibga muvofiq (*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentabrdagi “Butunjahon Internet tarmog‘ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 707-son qarori*), ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni cheklash Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo‘yicha markazi xulosasi yoki Ommaviy kommunikatsiyalar sohasidagi ekspert komissiyasi qarori asosida amalga oshiriladi.

Axborot resurslari (vab-saytlar, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar) ommaviy ravishda mavjud bo‘lgan bir qator ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Axborot resurslaridan foydalanish bu – fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi, shuningdek, axborot izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlardan foydalanish usuli.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga ko‘ra, *fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etish yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas*. Binobarin, axborot resurslaridan foydalanishni cheklash shaxs huquqlarini cheklashdir va shuning

uchun bunday harakat faqat sud tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, axborot resurslaridan foydalanishni cheklashning amaldagi tartibi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mohiyatiga ziddir. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni cheklash faqat sud tomonidan amalga oshirishi lozim.

Xulosalar

Ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solish masalasi bugungi kunda muhim va muhokamalarga sabab bo‘ladigan masalalardan biri sanaladi. Mazkur maqolada amalga oshirilgan tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solish masalasi *Internet erkinligi* masalasi bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli *Konstitutsiyada Internetdan foydalanish erkinligini belgilash* muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalani Konstitutsiya darajasida mustahkamlash quyidagilarga imkon beradi:

- axborot resurslari va Internetdan foydalanish huquqini uzviy huquq sifatida tan olish (demak, bu huquqlar faqat sud tomonidan va qonunda belgilangan tartibda cheklanishi mumkin);

- insonning boshqa huquqlarini samarali amalga oshirish (axborot va g‘oyalarni izlash, olish va tarqatish huquqini o‘z ichiga olgan axborotdan foydalanish erkinligi bo‘lmagan taqdirda, ularning huquqlarini amalda himoya qilish, shuningdek, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mumkin emas);

- axborot resurslari va Internetdan foydalanish erkinligiga oid me‘yorlarni so‘z erkinligi va demokratiya tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish.

Shuni aytish mumkinki, globallashtirish va raqamlashtirish davrida axborotni izlash va axborot resurslari, shu jumladan, Internetdan foydalanish erkinligining konstitutsiyaviy kafolati eng muhim qoidalardan biridir. Konstitutsiya darajasidagi bunday

kafolat hukumatning siyosiy irodasini ifodalash va mustahkamlashga imkon beradi.

2. “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 27¹-moddasida belgilangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma’lumotlariga ishlov berishda qisman O‘zbekiston hududida joylashtirilgan serverlardan foydalanish shartligi haqidagi qoidani amalga oshirish maqsadida tegishli *huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni* amalga oshirish lozim. Xususan, *data-markazlarini yaratish, xarid qilish va ijaraga olish bo‘yicha shartnomalarni tartibga solish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish, tegishli infratuzilma yaratish* maqsadga muvofiq.

3. O‘zbekiston Respublikasida milliy ijtimoiy tarmoqlarda *foydalanuvchi kelishuvlari* tuzish amaliyoti samaradorligini ta’minlash maqsadida mazkur turdagi kelishuvlarga qo‘yilgan talablarni qonunchilikda belgilash maqsadga muvofiq. Bu turli tushunmovchiliklarning oldini olish va yagona huquqiy amaliyotni yaratishga imkon beradi.

4. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tarqatilishi taqiqlangan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan axborot resurslari, xususan, Internetdagi veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va veb-sahifalardan foydalanishni *faqat sud qarori asosida cheklash tartibini joriy etish* zarur.

REFERENCES

1. The number of Internet users in the world. International statistics portal. Available at: <https://www.statista.com/statistics/273018/number-of-internet-users-worldwide/>.
2. Qi M., Edgar-Nevill D. Social networking searching and privacy issues. *Information Security Technical Report*, 2011, vol. 16 (2), pp. 74–78.
3. O‘zbekiston Respublikasida Internetdan foydalanuvchilarning soni [The number of Internet users in the Republic of Uzbekistan]. The official website of the Ministry of Information Technologies and Communications Development of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://mitc.uz/uz/stat/4/>.
4. Yuldashov A.A. Government policies related to social protection of disabled persons in Uzbekistan: National and international aspects. *Teise*, 2012, vol. 84, pp. 186–191.
5. Rustambekov I. Business Environment and Investment Climate in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Advanced Research*, 2019, vol. 4, pp. 1282–1285. DOI: 10.21474/IJAR01/8951/.
6. Rathore S., Sharma P.K., Loia V., Jeong Y.S., Park J.H. Social network security: Issues, challenges, threats, and solutions. *Information sciences*, 2017, no. 421, pp. 43–69.
7. Reyns W. The Anti-Social Network: Cyberstalking Victimization among College Students. *LFB Scholarly*, 2012. Available at: <https://www.questia.com/>.
8. Handelsman J., Kalantar E. Live, Liberty and Internet Access: Is logging on a Basic Human Rights? *ILS Journal of International law University of Baltimore*, 2010, vol. 1, pp. 32–43.
9. Tanimov O.V., Kudashkin Y.V. O pravovoy prirode i vozmozhnosti pravovogo regulirovaniya v seti Internet [About the legal nature and possibility of legal regulation on the Internet]. Moscow, Drofa Publ., 2013, p. 40.
10. UN Human Rights Council Resolution. 2021, March 31, no. A/HRC/RES/46/16. Available at: <https://docstore.ohchr.org/>.
11. Strasbourg Declaration on Freedom of Communication on the Internet, adopted by the European Council of Ministers. 2011, September 21. Available at: https://search.coe.int/cm/Pages/result_details.aspx?ObjectID=09000016805cc2f6/.
12. Rasulev A., Sadullayev G. Training of Personnel in the Field of Countering Cybercrime: the Need and the Requirement of Time. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, vol. 3, no. 02, pp. 123–130.

13. 1981 European Convention for the Protection of Individuals with regard to Automatic Processing of Personal Data. Available at: <https://rm.coe.int/1680078c46/>.

14. Integrated Strategies for Responding to Global Threats: The El Salvador Declaration on Crime Prevention and Criminal Justice Systems and Their Development in a Changing World. Available at: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/salvador_declaration.shtml/.

15. Gulyamov S., Bakhramova M. Digitalization of International Arbitration and Dispute Resolution by Artificial Intelligence. *World Bulletin of Management and Law*, 2022, vol. 9, pp. 79–85.

16. Yakubova I. Civil-law protection of honor, dignity and business reputation in the civil legislation of Uzbekistan and Japan. *Review of law sciences*, 2018, no. 3, pp. 79–85.

UDC: 347.45/.47(045)(571.1)

TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI KO'RSATISH SHARTNOMASI TUSHUNCHASI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xursanov Rustam Xolmuratovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik huquqi kafedrasini dotsent
vazifasini bajaruvchisi
ORCID: 0000-0003-0706-2960
e-mail: hursanov.rustam75@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda ijtimoiy hayot, iqtisodiy munosabatlarni telekommunikatsiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Operator yoki provayderlar tomonidan taqdim etiladigan mazkur xizmat esa foydalanuvchi yoki abonent bilan tuzilgan shartnoma asosida taqdim etiladi. Telekommunikatsiya xizmatlarining rivojlanishi va taraqqiyoti esa istiqbolda ushbu xizmatning maishiy tusdagi xizmat turidan biriga aylanishiga olib kelishi mumkin. O'zbekistonda telekommunikatsiya xizmatlarini esa Konstitutsiya darajasida belgilash va shu orqali fuqarolarning telekommunikatsiya tarmoqlari, xususan, internetdan foydalanish huquqini kafolatlash taklif etilmoqda. Bu holat telekommunikatsiyalar va uning bir ko'rinishi bo'lgan Internet tarmog'ining nechog'li ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayni paytda ushbu xizmatlarni ko'rsatishning shartnomaviy-huquqiy tartibga solinishini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish, mazkur shartnomaning yuridik tabiati va xususiyatlarini ochib berish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: telekommunikatsiya, shartnoma, huquq, majburiyat, bitim, operator, provayder, aralash shartnoma, abonent, buyurtmachi, ijrochi, xizmat, qonun, normativ-huquqiy hujjat, axborot, axborot xizmati, axborot almashinuvi, Internet tarmog'i, telekommunikatsiya xizmatlari, konvensiya, telekommunikatsiya tarmog'i, internetdan foydalanish, fuqarolik qonunchiligi.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ И ОСОБЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ДОГОВОРА ОБ УСЛУГАХ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЙ

Хурсанов Рустам Холмуратович,
и. о. доцента кафедры «Гражданское право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. На сегодняшний день формирование социальной жизни, экономических отношений не представляется без телекоммуникаций. Данная услуга предоставляется оператором или провайдерами на основании договора, заключенного с пользователем или абонентом. Прогресс и развитие телекоммуникационных услуг в перспективе может привести к превращению данной услуги в один из видов сервиса бытового характера. Предлагается телекоммуникационные услуги в Узбекистане закрепить на уровне Конституции и тем самым гарантировать право граждан на доступ к телекоммуникационным сетям, в частности к Интернету. Данная ситуация показывает особую значимость телекоммуникаций, в том числе и сети Интернет. В настоящее время важную роль играет научно-практическое исследование договорно-правового регулирования оказания данных услуг, раскрытие правовой природы и особенностей данного договора.

Ключевые слова: телекоммуникации, договор, право, обязательство, сделка, оператор, провайдер, смешанный договор, абонент, заказчик, исполнитель, услуга, закон, нормативный правовой акт, информация, информационная услуга, обмен информацией, сеть Интернет, телекоммуникационные услуги, конвенция, телекоммуникационная сеть, использование Интернета, гражданское законодательство.

DEFINITION AND SPECIFIC CHARACTERISTICS OF TELECOMMUNICATION SERVICES CONTRACT

Khursanov Rustam Kholmuratovich,

Acting Associate Professor of the Department of Civil Law
of Tashkent State University of Law

Abstract. *The formation of social life and economic relations is not possible without telecommunications today. This service is provided by the operator or providers on the basis of an agreement concluded with the user or subscriber. The progress and development of telecommunication services in the future may lead to the transformation of this service into one of the types of household services. Telecommunications services in Uzbekistan are proposed to be established at the level of the Constitution and thereby guarantee the right of citizens to access telecommunications networks, in particular, the Internet. This situation shows the special importance of telecommunications, including the Internet. Currently, scientific and practical research on contractual and legal regulation of the provision of these services, and disclosure of the legal nature and features of this contract are of great importance.*

Keywords: *telecommunications, contract, law, obligation, transaction, operator, provider, mixed contract, subscriber, customer, contractor, service, law, regulatory legal act, information, information service, information exchange, Internet, telecommunication services, convention, telecommunication network, Internet use, civil legislation.*

Kirish

Ijtimoiy munosabatlar, xususan, xizmat ko'rsatish sohalarining raqamlashuvi, masovafiy shartnoma tuzish, aqlli shartnomalar orqali xizmat ko'rsatilishini ta'minlash, huquqiy munosabat subyekti sifatida smart texnologiyalarning qo'llanilishi huquqiy tartibga solishga nisbatan yangi chaqiriq va talablarni yuzaga keltirdi. Bu esa huquqiy tasavvur va qarashlar, mavjud huquqiy doktrina va qoidalarni tubdan qayta ko'rib chiqish, ularni vujudga kelayotgan yangi munosabatlarga moslashtirish hamda istiqbolda qo'llaniladigan huquqiy tartibga solish mexanizmlari borasidagi bilimlarni shakllantirishni taqozo etadi. Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatishni shartnomaviy tartibga solish ham mazkur omillardan kelib chiqib, yangicha yondashuv ishlab chiqishni talab qiladi.

Material va metodlar

Yuqoridagi savollarga javob topish uchun amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, tegishli taklif va xulosalarga kelindi.

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Amaldagi qonunchilikda telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasi tushunchasiga ta'rif berilmagan. Yuridik adabiyotlarda esa ushbu tushunchaning turlicha ta'riflari shakllantirilgan. Xususan, A.S. Mitarevaning fikricha, "axborot texnologiyalari sohasidagi shartnoma – bu taraflarning tijorat qiymatiga ega bo'lgan axborotni egallash, foydalanish va uzatishga taalluqli fuqarolik huquq va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish va bekor qilishga

oid kelishuvdir” [1, 376-b.]. N. Ganiyevning ta’kidlashiga ko’ra, “telekommunikatsiya xizmati ko’rsatish shartnomasi deganda, telekommunikatsiya kompaniyasi texnik imkoniyat mavjud bo’lganda murojaat qilgan har qanday shaxs (mijoz)ga telekommunikatsiya xizmatlari ko’rsatish majburiyati, mijoz esa ushbu xizmatlar haqini to’lashni zimmasiga oladigan shartnoma tushuniladi” [2, 18-b.]. Ukrainalik mutaxassis O.A. Bogutskiyning qayd etishicha, telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish shartnomasi deganda, operatorning foydalanuvchi uchun belgilar, tasvirlar, tovushlarni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash, uzatish maqsadida telekommunikatsiya tarmog’idan foydalanish imkoniyatini yaratish hamda davlat va sohaviy standartlarda belgilangan tegishli sifatini ta’minlash bo’yicha majburiyatni zimmasiga oladigan shartnoma tushuniladi [3, 9-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Fikrimizcha, yuqorida keltirib o’tilgan ta’riflardan O.A. Bogutskiy tomonidan taklif etilgan telekommunikatsiya xizmatlari ko’rsatish shartnomasi tushunchasi ancha keng va xizmatning mazkur turi keng qamrab olishi bilan ajralib turadi. Shunga qaramasdan, telekommunikatsiya xizmati ko’rsatish shartnomasiga ta’rif berishda xizmatning ushbu turiga xos bo’lgan barcha jihatlarni qamrab oluvchi tushunchani shakllantirish bir qadar murakkabligiga e’tibor qaratish lozim. Shu bois ayrim mualliflar [4, 23-32-b.] telekommunikatsiya xizmatlarining barcha jihatlarini qamrab oladigan shartnoma konstruksiyaga oid qoidalarni shakllantirish maqsadga muvofiqligini ta’kidlashadi. Bizningcha, bu vaziyatda “yagona telekommunikatsiya xizmatlari ko’rsatish shartnomasi” konstruksiyasini shakllantirishda taraflar zimmasidagi asosiy majburiyatlarni belgilab olish muhimdir. Bunda operator – shartnomaning majburiy subyekti sifatida foydalanuvchini tarmoqqa ulash va unda axborotga oid qonunchilikda taqiqlanmagan barcha harakatlarni

amalga oshirish uchun sifatli muhit yaratish majburiyatini zimmasiga olishi kerak. Chunki telekommunikatsiya tarmog’i – “uzatishlarning bir yoki bir necha turi: telefon, telegraf, faksimil turlari, ma’lumotlar uzatish va hujjatli xabarlarining boshqa turlari, televizion va radioeshittirish dasturlarini translatsiya qilishni ta’minlovchi telekommunikatsiya vositalarining majmui” (“Telekommunikatsiyalar to’g’risida”gi Qonunning 3-moddasi).

Telekommunikatsiya xizmati shartnomasi o’zining huquqiy tabiatiga ko’ra axborot almashinuvi va harakatlanishini amalga oshirish imkonini beruvchi tarmoqni taqdim etishni nazarda tutishi bilan turdosh shartnomalardan farq qiladi. Ayni paytda mazkur shartnomani aloqa xizmati shartnomasining bir turi sifatida talqin etish holatlari ham uchraydi [5, 145-b.]. Jumladan, L.B. Sitdiko-va “Internet” tarmog’i orqali axborotni uzatish – axborot internet-xizmatini ko’rsatish shartnomasi orqali amalga oshirilishi, chunki bu holatda shartnoma predmeti axborot hisoblanishini ta’kidlaydi [6, 46-b.]. Shunga qaramasdan, ayrim mualliflar [7, 39-b.] telekommunikatsiya xizmatlari ko’rsatish, shu jumladan, Internet orqali telekommunikatsiya xizmati ko’rsatishning axborot xizmatidan farqlari mavjudligi, axborot xizmati telekommunikatsiya xizmatlari orqali amalga oshirishini e’tirof etishadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari, odatda, buyurtmachi topshirig’iga ko’ra ijrochi tomonidan amalga oshiriladigan harakatlardan iborat. Bu holatda telekommunikatsiya xizmatlari FKning 703-moddasida nazarda tutiladigan faqat harakatni amalga oshirishni emas, balki natija topshirilishini ham nazarda tutishi mumkin. Masalan, provayder tomonidan buyurtmachini tarmoqqa ulash, buning uchun tegishli uskunani o’rnatish hamda sifatli telekommunikatsiya tarmog’ini hosil qilish lozim. Zero, telekommunikatsiya xizmati – bu bir shaxsning ikkinchi shaxs buyurtmachi asosida axborotni qabul qilish, qayta ish-

lash va uzatish bilan bog'liq faoliyati hisoblanadi [8, 78-b.].

Telekommunikatsiya xizmatlari haq evaziga xizmat ko'rsatishning boshqa turlaridan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Xususan, haq evaziga xizmat ko'rsatishning an'anaviy turlari bo'lgan turizm, mehmonxona, tibbiy xizmatlar uchun xos bo'lgan taqdim etiladigan xizmatning saqlanib turmasligi qoidasi telekommunikatsiya xizmatlarida namoyon bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, telekommunikatsiya tarmog'i orqali uzatilgan tasvirlar virtual "hamyon"da saqlanishi yoki tegishli saytda to'planib, "big data" hisol qiladi va bu ma'lumotlar cheklanmagan muddatda saqlanadiki, ijrochi istalgan paytda ulardan foydalanishi mumkin [9, 3-b.]. Shu sababli telekommunikatsiya xizmatlari – bu, avvalo, foydalanuvchini tarmoqqa ulash orqali unga axborotni almashish muhitini yaratishda ifodalanadi. Masalan, provayder tomonidan abonent Internet tarmog'iga ulanib, unga shartnomada kelishilgan trafik berilgach, abonent shu trafik doirasida axborotni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va uzatish kabi harakatlarni o'zi mustaqil amalga oshira oladi. Bunda operator trafik doirasida yaratilgan Internet sifatli va shartnomada belgilangan tezlikda ishlashi uchun o'zining texnik imkoniyatlari va uskunalari orqali ta'minlashi lozim. Jumladan, axborotni muayyan elektron manzilga yuborish, o'zining elektron manziliga kelib tushgan axborotni qabul qilib olish va qayta ishlash (yuklab olish, boshqa manzilga o'tkazish, o'chirib tashlash) orqali ko'rsatilayotgan telekommunikatsiya xizmatlarini qabul qilgan hisoblanadi. Ayni paytda telekommunikatsiya xizmati ko'rsatuvchilar – provayder va operatorlar shartnoma doirasida abonentning tarmoqda bo'lishi hamda axborot almashinuvining barcha imkoniyatlaridan foydalana olishini ta'minlashlari talab etiladi. Shuningdek, Internetning rivojlanishi bilan telekommunikatsiya xizmatlarini olishdan maqsad nafaqat kishilar o'rtasidagi "aloqa"ni o'rnatish, balki axborot

olish imkoniyati, ya'ni telekommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan, Internet tarmog'iga ulanish hisoblanadi. Qolaversa, hozirgi kunda texnik hamjamiyat "IoT" (Internet of the Things – "Internet ashyo") ustida ish olib bormoqdaki [10, 111-b.], bu tushuncha kishilar ishtirokisiz ashyolar o'rtasidagi ma'mulotlar almashinuvini ta'minlashni anglatadi. IoT jumlasiga elektr uskuna vositasida iste'mol qilingan energiya yoki suv hajmi to'g'risidagi axborotni uzatish xizmatlari, "aqlli uy" loyihasi va shu kabi xizmatlarni kiritish mumkin.

Ta'kidlash lozimki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 59-rezolyutsiyasida belgilanishicha, "axborot erkinligi insonning asosiy huquqlaridan biri va boshqa barcha erkinliklarining mezonini sanaladi". Biroq bunday erkinlik boshqalarning huquq va erkinliklarini buzmasligi lozim. "Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risida"gi Konvensiyaning 10-moddasida tarixiy nuqtai nazardan birinchi marotaba har kimning ommaviy axborot olish erkinligi va davlat hokimiyati organlarining axborot olish va uzatish erkinligiga aralashishi taqiqlanishi belgilangan (albatta, mazkur qoidada istisnolar ham mavjud).

Ommaviy axborot vositasi (OAV) sifatida Internet boshqa OAVlarga qaraganda axborot yig'ish, undan foydalanish va tarqatishda keng imkoniyatlarga ega [11, 16-b.]. Global Internet tarmog'i – bu cheklanmagan axborot olish imkoniyatidir. Biroq ushbu resursdan foydalanish uchun, birinchi navbatda, ushbu tarmoqqa ulanish talab etiladi. Buning uchun esa operator yoki provayder bilan telekommunikatsiya xizmati ko'rsatish shartnomasi tuzish lozim. Shundan so'nggina foydalanuvchi Internet tarmog'idagi ma'lumotlar bilan "ishlash" imkoniyatiga ega bo'ladi.

Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasi o'zining tabiatiga ko'ra, buyurtmachi foydasiga muayyan xatti-harakat yoki faoliyatning amalga oshirilishini ifodalaydi. Bunda ijrochi buyurtmachini tarmoqqa ulash,

mazkur tarmoq orqali axborotning harakatlanishi va saqlanishini ta'minlash kabi harakatlardan iborat majburiyatlarni zimmasiga oladi. Buyurtmachi zimmasida esa ijrochi uchun muayyan natija sifatida axborot almashinuvi tezligi, masalan, Internet tezligiga oid texnik parametrlarni ta'minlash vazifasi turadi. Natijani taqdim etishga oid bo'lgan boshqa jihatlar telekommunikatsiya xizmati shartnomasining predmeti tarkibiga kirmaydi.

Yuridik adabiyotlarda telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasining mohiyati borasida bir qator fikrlar bildirilgan. Jumladan, R.N. Morodumovning yozishicha, "telekommunikatsiya shartnomalari bo'yicha mazmunan umumfoydalanishdagi, barcha uchun ochiq bo'lgan yoki ma'lumotlar bazasi egasining huquq obyekti bo'lgan (qoidaga ko'ra, mualliflik yoki tijorat siriga bo'lgan huquq) muayyan hajmdagi axborot olish uchun imkoniyat taqdim etiladi" [12, 133-b.]. Fikrimizcha, telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasi mazmunini faqat axborot olish va uni qayta ishlash imkoniyatini taqdim etish tashkil etmaydi. Chunki bunday imkoniyatni taqdim etish uchun buyurtmachini tarmoqqa ulash va tarmoq ishlashi uchun tegishli texnik xizmatlar ko'rsatish lozim. Bu esa, o'z navbatida, telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasining kompleks tusini ko'rsatadi. Masalan, mutaxassislar [13, 117-b.] telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasining bir turi bo'lgan provayderlik shartnomasini aralash shartnoma sifatida e'tirof etishadi.

S.M. Kovalev va A.V. Sergeyevlarning fikricha, provayderlik shartnomasi bo'yicha ikki turdagi xizmatlar ko'rsatiladi: 1) aloqa xizmatlari. Bunda mijozning kompyuteri provayder serveriga ulanishi ta'minlanadi. O'z navbatida, provayderning serveri orqali mijozning kompyuteri tarmoqda ishlayotgan boshqa kompyuterlar bilan ulanadi; 2) axborot xizmatlari. Provayder axborot xizmatlarini mijoz uning serveridagi ma'lumotlarni (masalan, tarmoqning ishlar vaqti to'g'risi-

dagi statistik ma'lumotlar) olganidan so'ng ko'rsatishi mumkin. Agar abonent boshqa serverdagi ma'lumotlardan foydalansa, provayder faqat o'sha ma'lumotlarni olish imkoniyatini taqdim etadi, xolos [14, 5-b.].

Bizning nazarimizda, provayderlik shartnomasi mohiyatini provayder atamasining ma'nosi va u tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar mazmunidan kelib chiqib talqin etish o'rinlidir. Ma'lumki, internet-provayder yoki provayder so'zi – ingliz tilidagi "internet service provider" so'zlaridan olingan bo'lib, o'zbek tilida "internet xizmatlari ta'minlovchisi" ma'nosini anglatadi. Provayder Internetga ulanish hamda Internet orqali boshqa xizmatlar ko'rsatish faoliyatini amalga oshiradi. Abonent va provayder o'rtasida tuziladigan shartnoma mazmunida abonentni Internet tarmog'iga ulash, Internetdan foydalanish uchun tegishli tezlik va sifatni taqdim etish hamda bir oy muddat mobaynida undan uzluksiz foydalanishni ta'minlash yotadi. Shu sababli provayder xizmatini ko'rsatish shartnomasini kompleks tusdagi va bir paytning o'zida bir nechta turdosh bo'lgan xatti-harakatlarni qamrab olishini e'tirof etish mumkin. Bu o'rinda turdosh xatti-harakatlar deyilganda, turli shartnomalarning predmetini tashkil etadigan harakatlar xususida so'z ketmoqda. Chunonchi, abonentni internet tarmog'iga ulash ish bajarish, ya'ni natijani hosil qiladigan harakatlar pudrat munosabatlarning obyekti hisoblansa, abonentning tarmoq orqali axborot olish va qayta ishlashini ta'minlash haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasining predmetini tashkil etadi. Shu sababli ham telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasining bir turi bo'lgan provayderlik shartnomasi aralash shartnoma sifatida e'tirof etiladi.

Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasi o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra, xizmat ko'rsatish shartnomalari guruhiga kiradi. Fuqarolik kodeksi (FK)ning 37- va 38-boblarida xizmat ko'rsatish munosabatlarini tartibga solishga oid qoidalar belgi-

langan. Bunda qonun chiqaruvchi ish bajarish – bu natijani topshirish, xizmat ko'rsatish – muayyan faoliyatni amalga oshirish yoki harakatlarni bajarish sifatida talqin etadi. Mazkur yondashuv Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) doirasida qabul qilingan Model FKga tayanadi hamda xizmatlar sohasi uchun yaxlit va umumiy konsepsiyani ifoda etmaydi [15, 47-b.]. Aniqroq aytganda, FK xizmat ko'rsatish munosabatlari va ularning alohida turlari uchun umumiy qoida va asosiy talablarni nazarda tutmaydi. Konseptual jihatdan FKdagi mazkur yondashuvni tanqid qilishga muayyan asos bor, albatta. Chunki FK oldi-sotdi shartnomalari (29-bobning 1-paragrafi), mulk ijarasi shartnomasi (34-bobning 1-paragrafi) pudrat shartnomasining (37-bobning 1-paragrafi) umumiy qoidalarini belgilaydi. Bundan farqli ravishda xizmat ko'rsatish munosabatlarining alohida turlari uchun umumiy qoidalar nazarda tutilmaydi. Balki, bu yondashuv uchun asos xizmat ko'rsatish munosabatlarining pudrat shartnomalaridan ajralib chiqqan huquqiy konstruktsiya ekanligi bilan ham bog'liqdir. Qolaversa, FK xizmat ko'rsatish (xususan, haq evaziga xizmat ko'rsatish) munosabatlari nisbatan pudrat qoidalari qo'llanilishini nazarda tutganligi (708-modda) ham xizmat ko'rsatish munosabatlari uchun umumiy qoidalarni belgilash zaruratini yo'qqa chiqarar. Nima bo'lganda ham xizmat ko'rsatish, xususan, telekommunikatsiya xizmatlari FK nuqtai nazaridan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari guruhiga mansubdir. Bu holatni FKning 703-moddasi 2-qismida axborot xizmati haq evaziga xizmat ko'rsatishning bir turi sifatida sanab o'tilganligi bilan izohlash mumkin. Lekin tom ma'noda "telekommunikatsiya xizmati"ni axborot xizmatining bir turi sifatida e'tirof etish masalasi hali yuridik fanda to'liq o'z yechimini topmagan. Zero, telekommunikatsiya xizmatining aralash tusi, ashyoviylik belgisi, natijaning topshirilishi kabi jihatlari pudrat shartnomasiga xos bo'lgan elementlarni ifoda etadi.

Yuridik adabiyotlarda telekommunikatsiya shartnomalari tushunchasini talqin etishda asosiy e'tibor axborot va u bilan bog'liq "muomala"ga asosiy e'tibor qaratiladi [16, 214-b.]. Biroq ayrim mutaxassislar "telekommunikatsiya xizmatlari"ni shunchaki aloqa qilish vositalarini o'rnatishga oid munosabatlar sifatida ta'riflashadi. Masalan, K.A. Guzanovning fikricha, "telekommunikatsiya xizmatlari" shaharlararo, ichki zonal va xalqaro telefon aloqasi, shahar va qishloq joylarida mahalliy telefon aloqasi, hujjatli elektron aloqasi, radio aloqa, radio eshittirish, televideniye, yo'ldosh aloqasi, simli eshittirish va ko'rsatuvlarni efirga uzatish, ko'chma aloqa ko'rinishidagi elektron aloqaning radioelektron vositalaridan foydalanishda ko'rsatiladigan elektron aloqa xizmatidir" [17, 8-b.]. Fikrimizcha, mazkur ta'rifda telekommunikatsiya uchun eng muhim tusga ega bo'lgan "axborotni qabul qilish, uzatish va qayta ishlash" kabi jihatlar o'z ifodasini topmagan. K.A. Guzanov tomonidan taklif etilgan ta'rifda telekommunikatsiya xizmatlari – tarmoqqa abonent ulashdan iboratligi anglashiladi. Bundan keyingi ijrochining harakatlari esa ushbu ta'rifda nazarda tutilmaydi. Buningcha, telekommunikatsiya xizmatlari abonentga tegishli qurilmani tarmoqqa ulashga tayyorgarlik ko'rish (tegishli router yoki Wi-Fi moslamasini o'rnatish), abonent qurilmasini tarmoqqa ulash va uni tarmoqda bo'lishini ta'minlash, tarmoq orqali axborotni uzatish, qabul qilish va qayta ishlash uchun imkoniyat yaratish harakatlaridan iborat. Aynan mazkur harakatlar va jihatlar telekommunikatsiya shartnomasining mohiyatida yotadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasining muhim jihatlaridan biri abonentning ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatiga egaligidir. Masalan, Internetdan foydalanishda hamma uchun ochiq ma'lumotlar bazasidan abonent istalgancha foydalanishi hamda unda axborotni o'z kompyuteri yoki telefoniga ko'chirib olishi mumkin. Bundan tashqari, tegishli banklar tomonidan

taqdim etiladigan xizmatlar haqidagi axborot, mijozning kredit tarixi haqidagi bank tomonidan shakllantirilgan ma'lumotlar bazasidagi axborot, garov reyestrtdagi ma'lumotlar, tegishli ko'chmas mol-mulk haqidagi kadastr xizmati tomonidan taqdim etiladigan axborot va shu kabilar bugungi kunda Internet tarmog'i orqali olinishi mumkin.

Ushbu ma'lumotlar, yuqoridagi ta'kidlanganidek, tarmoq foydalanuvchilari tomonidan bir-biriga uzatiladigan axborotlar emas, balki ma'lumotlar bazasi sifatida shakllangan axborotlar sanaladi. Ma'lumotlar bazasi hisoblangan ushbu axborotlarni telekommunikatsiya tarmoqlari orqali olish esa foydalanuvchi tomonidan tegishli dasturlarni o'z qurilmasiga o'rnatish, ilovani yuklab olish yoki tegishli tartibda saytdan ro'yxatdan o'tish orqali amalga oshiriladi. Mazkur holatda abonent va provayder o'rtasidagi ma'lumotlar bazasidan foydalanib, telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasi tuzilishi mumkin. Ma'lumotlar bazasidan foydalanib, telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasi bo'yicha axborot taqdim etish usuliga qarab quyidagilar ajratilishi mumkin:

1. Telekommunikatsiya tizimlari operatori tomonidan iste'molchi yoki telekommunikatsiya vositachisi uchun zaruriy axborotni taqdim etish. Ushbu usul cheklangan doiradagi axborotni taqdim etish uchun xosdir, masalan, kredit tarixi to'g'risidagi axborot.

2. Axborot iste'molchisi axborot terminalidagi ma'lumotlar bazasidan zaruriy axborotni izlash bo'yicha operatsiyalarning ko'p qismini mustaqil bajaradi [18, 11-b.].

Ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatini taqdim etish nafaqat ushbu bazadagi ma'lumotlar bilan tanishish va ularni yuklab olish, balki ushbu axborotni uzatish va qayta ishlashni ham nazarda tutishi mumkin. Bundan tashqari, foydalanuvchi uchun telekommunikatsiya tarmoqlari orqali ma'lumotlar bazasidan axborotni izlash (masalan, muayyan kataloglar, elektron qidiruv tizimlari) imkoniyatini taqdim etish ham telekom-

munikatsiya xizmati ko'rsatish shartnomasi orqali amalga oshiriladi. Qolaversa, telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasida keng ko'lamlil axborotni uzatish, saqlash va qayta ishlash bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratiladi. Shu sababli telekommunikatsiya xizmati ko'rsatish shartnomasining mohiyatida axborot bilan bog'liq harakatlarni muayyan tarmoqda amalga oshirish imkoniyatini taqdim etishga oid harakatlar yotadi.

Telekommunikatsiya shartnomasining ta'rifi amaldagi qonunchilikda ifodalanmagan. Buning o'rniga qonun chiqaruvchi telekommunikatsiya shartnomalarining alohida turlari ta'rifini berishga harakat qiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining 2020-yil 30-iyundagi 208-mh-son buyrug'iga 1-ilova "Telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish qoidalari" da (Qoidalar) telekommunikatsiya xizmatining turlari bo'lgan telefon aloqasi, telegraf aloqasi, internet xizmatlari ko'rsatish, mobil aloqa xizmatlari, rouming xizmati shartnomalarining tushunchasi belgilangan.

Umumiy ma'noda qonunchilikda ifodilangan "telekommunikatsiyalar xizmatlari" tushunchasi asosida telekommunikatsiyalar xizmatlari ko'rsatish shartnomasining ta'rifini shakllantirish mumkin. Bunda telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasi bo'yicha bir taraf operator va provayder; ikkinchi taraf abonentning topshirig'iga ko'ra, signallar va boshqa axborotni tegishli tarmoq orqali qabul qilish, uzatish va qayta ishlashga oid faoliyatni amalga oshirish, abonent esa buning uchun belgilangan haq to'lash majburiyatini oladi. Zero, signallarni uzatish muayyan qurilmalar orqali amalga oshiriladi va telekommunikatsiya tarmoqlaridagi asosiy harakatlanuvchi vosita sanaladi. Shu sababli telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish shartnomasida axborot bilan birga signallarni qabul qilish va uzatish harakati ham amalga oshiriladi. Buning uchun esa operator yoki

provayderning serveri yoki qurilmasi orqali yuborilgan signallarni foydalanuvchi abonentning qurilmasi “o‘qiy olishi” va foydalanuvchi uchun tushunarli tilga o‘girishi talab etiladi [19, 372–374-b.].

Ta’kidlash lozimki, telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatishning asosiy yo‘nalishi – bu Internet bilan bog‘liqdir. Telekommunikatsiya xizmatlarining telefon aloqasi, telegraf aloqasi, mobil aloqa kabi xizmat turlariga qaraganda Internet xizmati ko‘rsatish yo‘nalishi juda keng tarqalgan va shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Istiqbolda esa hozir amalda bo‘lib turgan telekommunikatsiya xizmatlarining muayyan turlari (masalan, telegraf xizmati) o‘rniga ham Internet bilan bog‘liq telekommunikatsiya xizmatlari qo‘llanilishi va ayrim telekommunikatsiya xizmatlarini bozordan siqib chiqarishi mumkin. Shu sababli bugungi yurisprudensiya fani ham telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatish munosabatlarini tadqiq etishda asosiy e‘tiborni Internet bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatishga qaratishi lozim.

Xulosalar

Yuqorida ta’kidlanganidek, Internetdan foydalanish imkoniyati telekommunikatsiya xizmati ko‘rsatish orqali yuzaga keladi. Bunda operator yoki provayder foydalanuvchi uchun muayyan Internet xizmatlari paketini taqdim etadi va shu paket hajmi doirasida foydalanuvchining Internet orqali axborotni almashish imkoniyatini yaratadi. Boshqacha qilib aytganda, Internetdan foydalanish tele-

kommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatishning hosilasi sanaladi. Masalan, Internetdan foydalanayotgan shaxs bu jarayonda muammolarga uchrasa, dastlab operator yoki provayderga murojaat qiladi hamda undan muammo va nosozliklarni bartaraf etishni talab qiladi. Chunki foydalanuvchi Internetdan foydalanish uchun muayyan operator yoki provayder bilan shartnoma tuzgan bo‘ladi. Qoidalarda Internetdan foydalanish imkoniyatini taqdim etish va umuman Internet bilan bog‘liq harakatlar umumiy tarzda “ma’lumotlar uzatish tarmog‘i xizmatlari” deb nomlangan. Operator yoki provayder tomonidan ko‘rsatiladigan ma’lumotlar uzatish tarmog‘i xizmatlari telekommunikatsiya xizmatlarining alohida turi sifatida bir qator xizmatlar turlarini qamrab oladi va amalda ularning katta qismi Internet tarmog‘i orqali ko‘rsatiladi.

Telekommunikatsiya xizmati ko‘rsatish shartnomasi qaysi turdagi telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatilayotganidan qat’i nazar, signal va axborot uzatish tarmoqlari orqali ta’minlash harakatlarini o‘zida ifodalaydi va fuqarolik-huquqiy tusdagi aralash shartnoma konstruksiyasiga mos keladi. Aynan shu jihatdan telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatish shartnomasini yig‘ma tushuncha sifatida e‘tirof etish ham o‘rinlidir. Chunki qonunchilik telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatish shartnomasini emas, balki ularning alohida turlarini ifoda etadi va ularni umumiy nom ostida “telekommunikatsiya xizmati ko‘rsatish shartnomasi” deb nomlash mumkin.

REFERENCES

1. Mytareva A.S. Dogovor v sfere informatsionnykh tekhnologiy: ponyatiye i vidy [Contract in the field of information technology: concept and types]. *Molodoy uchenyy – Young Scientist*, 2021, no. 34 (376), pp. 143-145. Available: <https://moluch.ru/archive/376/83772/> (accessed 17.06.2022).
2. Ganiev N.V. Telekommunikatsiya xizmatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish [Improvement of civil legal regulation of telecommunication services]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2021, p. 18.
3. Boguts'kiy O.A. Dogovory o predostavlenii telekommunikatsionnykh uslug [Contracts for the provision of telecommunications services]. Abstract of PhD thesis. Kyiv, 2010, 9 p.

4. Kuznetsova O.A. O pravovoy konstruksii yedinogo dogovora ob okazanii telekommunikatsionnykh uslug [On the legal structure of a single contract for the provision of telecommunications services]. *Voprosy rossiyskogo i mezhdunarodnogo prava – Issues of Russian and International Law*, 2016, no. 7, pp. 23-32.
5. Galayev A.Yu. Dogovor vozmezdnoy okazaniya informatsionnykh uslug [Contract for the provision of information services]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2009.
6. Sitdikova L.B. Normativno-pravovoye i dogovornoye regulirovaniye otnosheniy vozmezdnoy okazaniya informatsionnykh uslug [Normative-legal and contractual regulation of relations for the paid provision of information services]. Moscow, SPS ConsultantPlus, Legislation Comments, Yurist, 2007.
7. Amanov A.A. Axborot xizmati ko'rsatishni fuqarolik-huquqiy tartibga solishni takomillastirish [Improvement of civil-legal regulation of information service provision]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2018, 78 p.
8. Grigor'yeva K.V. Puti sovershenstvovaniya pravovogo regulirovaniya mezhdunarodnoy torgovli telekommunikatsionnyimi uslugami [Ways to improve the legal regulation of international trade in telecommunications services]. PhD thesis. 12.00.03. Moscow, 2005, p. 2.
9. Kiselev S.V., Shakirov M.M. Soderzhaniye, kharakteristika i klassifikatsiya telekommunikatsionnykh uslug kak ob'yekta issledovaniya [Content, characteristics and classification of telecommunication services as an object of study]. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/soderzhanie-harakteristika-i-klassifikatsiya-telekommunikatsionnyh-uslug-kak-obekta-issledovaniya/> (accessed 17.06.2022).
10. Kumar S., Tiwari P., Zymbler M. Internet of Things is a revolutionary approach for future technology enhancement: a review. *Journal of Big Data*, 2019, vol. 6, no. 111.
11. Rustambekov I.R. Internet tarmog'ida fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish muammolari [Problems of regulating civil-legal relations on the Internet]. Tashkent, TSUL, 2017, p. 16.
12. Morodumov R.N. Dogovor vozmezdnoy okazaniya informatsionnykh i konsul'tatsionnykh uslug [Contract for the provision of information and consulting services for compensation]. PhD thesis. Volgograd, 2004, p. 133.
13. Dorokhova N.A. Dogovory ob okazanii informatsionnykh uslug: vidy i otgranicheniye ot grazhdansko-pravovykh dogovorov s informatsionnoy obyazannost'yu [Contracts for the provision of information services: types and delimitation from civil law contracts with an information obligation]. *Vestnik universiteta imeni O.Ye. Kutafina – Bulletin of the University named after O.E. Kutafin (MSUA)*, 2015, no. 10, p. 117.
14. Kovalev S.M., Sergeev A.V. «Dver'» v kiberprostranstvo. Dogovor okazaniya provayderskikh uslug ["Door" to cyberspace. Contract for the provision of provider services]. Available at: <http://www.russianlaw.net/law/isp/a93/> (accessed 10.03.2022).
15. Narmatov N.S. Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish muammolari [Problems of civil-legal regulation of entrepreneurship in the field of services]. Tashkent, 2009, 47 p.
16. Bagents D.S. Pravovoye regulirovaniye okazaniya uslug svyazi [Legal regulation of the provision of communication services]. *Uspekhi sovremennogo yestestvoznaniya – Successes of modern natural science*, 2012, no. 4, pp. 214-214. Available at: <https://natural-sciences.ru /ru/article/view?id=30011/> (accessed 08.07.2022).
17. Guzanov K.A. Pravovoye regulirovaniye deyatel'nosti po okazaniyu uslug svyazi [Legal regulation of activities for the provision of communication services]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2018, 8 p.
18. Sitdikova L.B. Diskussionnyye voprosy pravovoy prirody informatsionnykh uslug [Debating issues of the legal nature of information services]. *Russian justice*, SPS ConsultantPlus Legislation Comments, 2008, no. 9.
19. Galushkin A.A. K voprosu o perspektivakh pravovogo regulirovaniya deyatel'nosti v informatsionno-telekommunikatsionnoy seti Internet [On the issue of the prospects for legal regulation of activities in the information and telecommunication network Internet]. *Vestnik RUDN, seriya Yuridicheskiye nauki – Bulletin of the Peoples' Friendship University of Russia*, series of Legal Sciences, 2014, no. 4, pp. 372-376.

UDC: 349.6(045)(575.1)

ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО НОРМИРОВАНИЯ: ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ

Ражабов Нариман Шарифбаевич,кандидат юридических наук, и. о. профессора
кафедры «Экологическое право»

Ташкентского государственного юридического университета

ORCID: 0000-0002-5166-964X

e-mail: n.sh.rajabov.78@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматриваются некоторые вопросы цифровизации в области охраны окружающей природной среды, в частности по осуществлению экологического нормирования, как деятельности уполномоченных государственных органов специальной компетенции по разработке, утверждению экологических нормативов, а также по обеспечению их соблюдения всеми природопользователями. Проанализированы актуальные правовые вопросы дальнейшего совершенствования сферы цифровизации, в том числе проблемы в сфере экологического нормирования, и пути их решения. Изучен зарубежный опыт информатизации и цифровизации в сфере охраны окружающей среды. Рассмотрены особенности цифровой трансформации государственных функций, таких как проведение учета объектов вредного и негативного воздействия на окружающую природную среду; нормирование в области охраны окружающей среды и вопросы совершенствования системы государственных услуг в установлении экологических нормативов и стандартов. Также изучен зарубежный опыт, проведен сравнительный анализ национального и зарубежного законодательства в сфере цифровизации деятельности по установлению экологических нормативов. В статье автор предлагает понимать под цифровизацией – современное общемировое направление развития общества и экономики, которое основано на преобразовании информации в цифровую форму, приводящую к повышению эффективности экономики и улучшению качества жизни народов мира.

Ключевые слова: цифровизация, экологический норматив, экологический контроль, экологическое нормирование, нормативы качества природы, предельно допустимые нормы сбросов и выбросов загрязняющих веществ, биологических организмов.

EKOLOGIK ME'YORLASHNI RAQAMLASHTIRISH: HUQUQIY JIHATLARI

Rajabov Nariman Sharifbayevich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ekologiya huquqi kafedrası professori vazifasini bajaruvchi,
yuridik fanlar nomzodi

Annotatsiya. Maqolada atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida raqamlashtirishning ayrim masalalari, xususan, atrof-muhitni tartibga solishni amalga oshirish, ekologik standartlarni ishlab chiqish, tasdiqlash, shuningdek, ularga rioya etilishini ta'minlash maxsus vakolatli davlat organlarining faoliyati sifatida muhokama qilinadi. Raqamlashtirish sohasini yanada takomillashtirishning dolzarb huquqiy masalalari, jumladan, atrof-muhitni tartibga solish sohasidagi muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida axborotlashtirish va raqamlashtirish yuzasidan xorijiy tajriba o'rganildi. Atrof-muhitga zararli va salbiy ta'sir ko'rsatadigan obyektlarni

hisobga olish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi me'yorlash, ekologik me'yor va standartlarni o'rnatishda davlat xizmatlari tizimini takomillashtirish masalalari kabi davlat organlari funksiyalarini raqamli o'zgartirish xususiyatlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, xorijiy tajribani o'rganish asnosida ekologik standartlarni o'rnatish bo'yicha faoliyatni raqamlashtirish sohasidagi milliy va xorijiy qonunchilik qiyosiy tahlil qilindi. Maqolada raqamlashtirish axborotni raqamli shaklga aylantirishga asoslangan, iqtisodiyot samaradorligini oshirish va dunyo aholisining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan jamiyat va iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy global yo'nalishi ekanligi taklif qilinmoqda.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, ekologik me'yor, ekologik nazorat, ekologik me'yorlash, atrof-muht sifatining me'yorlari, ifloslantiruvchi moddalar hamda biologik organizmlarni atrof-muhitga chiqarish yoki tashlashning yo'l qo'yiladigan darajadagi me'yorlari.

DIGITALIZATION OF ENVIRONMENTAL REGULATION: LEGAL ASPECTS

Rajabov Nariman Sharifbaevich,

Acting Professor,
Head of the Environmental Law Department
of Tashkent State University of Law, PhD of Law

Abstract. This article discusses some issues of digitalization in the field of environmental protection, in particular, the implementation of environmental regulation as the activity of specially authorized state bodies for the development, approval of environmental standards, and ensuring their compliance by all subjects of environmental management. The current legal issues of further improvement of the sphere of digitalization, including problems in the field of environmental regulation, and ways to solve them are analyzed. The foreign experience of informatization and digitalization in the field of environmental protection has been studied. The features of the digital transformation of state functions are considered, such as accounting for objects of harmful, negative impact on the environment; rationing in the field of environmental protection, and issues of improving the system of public services in the establishment of environmental regulations and standards. Also, the foreign experience was studied, and a comparative analysis of national and foreign legislation in the field of digitalization of activities for the establishment of environmental standards was carried out. The article proposes to understand that digitalization is a modern global direction of economic and social development, which is based on the transformation of information into digital form, leading to an increase in the efficiency of the economy and improving the quality of life of the people of the world.

Keywords: digitalization, environmental regulation, environmental control, environmental quality standards, maximum permissible standards for emissions and discharges of pollutants and biological organisms.

Введение

Section 13 of the Criminal Code of Slovakia sets out that preparation for committing a felony shall carry the same punishment as the crime, for which it has been intended (par. 2). In turn the attempted criminal offence shall carry the same punishment as the completed criminal offence (section 14 par. 2). However, section 39 par. 2 provides a rule on reducing a punishment when sentencing an offender for preparing a felony or for an attempted criminal offence (section 39 par. 2 subpar. “a”).

In its turn, the Criminal Code of Uzbekistan provides much more detailed rules of criminal liability to preparation for offence and criminal attempt (article 25) as well as the subsequent mitigation of punishment provisions:

I. When imposing punishment for an uncompleted offence, the court, governed by the general principles of sentencing, also takes into account the severity of the offence, the degree of implementation of the criminal intent and the reasons why the offence was not completed (article 58 par. 1).

II. The term or amount of punishment for preparation for an offence and attempted offence may not exceed three-quarters of the maximum punishment provided for by the relevant article of the Special Part of this Code. This rule does not apply when imposing punishments:

a) to particularly dangerous repeat offenders, members of an organized group or criminal community;

b) for uncompleted offences against peace and security, as well as offences related to:

- premeditated murder under aggravating circumstances;

- rape or forcible satisfaction of sexual needs in an unnatural form in relation to the victim, obviously for the perpetrator who has not reached the age of fourteen;

- smuggling of nuclear, chemical, biological and other types of weapons of mass destruction, materials and equipment,

and radioactive materials that can obviously be used in its creation (article 58 par. 2).

III. A sentence of life imprisonment cannot be imposed for an uncompleted offence (article 58 par. 3).

Seventh, the Criminal Code of Slovakia (section 20) sets out a single rule regarding the imposition of punishment against accomplice (Spolupáchateľ), saying that each accomplice has the same criminal liability as the single person who would commit such a criminal offence.

And in accordance with article 58 par. 4 of the Criminal Code of Uzbekistan, on imposition of a penalty for complicity, a court shall take into account the nature and degree of participation therein of each of the guilty persons. Mitigating and aggravating circumstances relating to the personality of each accomplice shall be taken into account by a court when inflicting a penalty on that accomplice. Furthermore, the Criminal Code of Uzbekistan provides more clarified provisions on the participant's criminal liability in articles 27-31. Section 34 par. 5 of the Criminal Code of Slovakia stipulates that, in determining the type and amount of punishment (Trestu), the court shall consider: a) in the case of accomplices, also the extent, to which the actions performed by each of them have contributed to the commission of the criminal offence; b) in the case of an organiser, a person who commissioned the criminal offence, an instigator, and an abettor, also the importance and character of their participation in the commission of the criminal offence; c) with regard to the preparation for a felony and the attempted criminal offence, also the extent, to which the actions performed by the offender have brought the criminal offence nearer to its completion as well as the circumstances and reasons for its non-completion.

Eighth, voluntary refusal from preparation for committing an offence and

attempted criminal offence shall become extinguished in accordance with the Criminal Code of Slovakia (sections 13-14) as well as the Criminal Code of Uzbekistan (article 26). However, in accordance with both Criminal Codes, a foregoing person shall be liable in case the actual act committed by him contains all elements of another offence. Furthermore, paragraph 5 of article 30 of the Criminal Code of Uzbekistan provides a direct indication that the voluntary refusal of an organizer, abettor, or perpetrator, if he took all timely measures, which he was in a position to take, for the prevention of the commission of an offence excludes criminal liability for complicity.

Ninth, effective repentance (Úprimne oľutova) is considered as mitigating factor in both of Criminal Codes of Slovakia (section 36 subpar. "1") and Uzbekistan (article 55 par. 1 subpar. "a"). However, subject to certain conditions, effective repentance may be a basis for a waiver of punishment pursuant to the Criminal Code of Slovakia (section 40 par. 1) as well as a basis for released from criminal liability (article 66) and punishment (article 71) in accordance with Criminal Code of Uzbekistan.

Tenth, General Part (Part I) of the Criminal Code of Slovakia as well as the same Part of the Criminal Code of Uzbekistan provides a number of criminal defences (Okolnosti vylučujúce trestnú zodpovednosť). In particular, the Criminal Code of Slovakia divides criminal defences into two groups:

I. Circumstances excluding criminal liability:

1. Age (Vek) - the person who has not reached the age of fourteen at the time of the commission of the criminal offence may not be held criminally liable (section 22).

2. Insanity (Nepříčetnosť) (section 23).

II. Circumstances excluding unlawfulness of an act (Okolnosti vylučujúce protiprávnosť činu) [18]:

1. Extreme necessity (Krajná núdza) (section 24).

2. Necessary Self-defence (Nútná obrana) (section 25).

3. Authorized Use of a Weapon (Oprávnené použitie zbrane) (section 26).

4. Permissible Risk (Dovolené riziko) (section 27).

5. Exercising Rights and Performing Duties (Výkon práv a povinnosti) (section 28).

6. Consent of the Injured Party (Súhlas poškodeného) (section 29).

7. Acting as an Agent (Plnenie úlohy agenta) (section 30).

In turn, the Criminal Code of Uzbekistan provides for such criminal defences, excluding the criminality of the act as the minor nature of an act; self-defence; extreme necessity; causing harm during the detention of a person who committed a socially dangerous act; execution of an order or other duty; justified professional or economic risk; commission of an act as a result of physical or mental coercion or threat (article 35), most of those are provided in the Criminal Code of Slovakia.

Moreover, if the Criminal Code of Uzbekistan provides the mitigating factors connected with criminal defences such as commission of an offence in excess of necessary self-defence, extreme necessity, infliction of injury when apprehending a person having committed a socially dangerous act, justifiable professional or economic risk (article 55 par. 1 subpar. "e") which may mitigate the punishment only, then Criminal Code of Slovakia sets that exceeding the limits of act of necessity, self-defence and self-enforcement may be a ground for imposition of punishment below the minimum Penalty or a less severe type of punishment (section 80) as well as for exemption from punishment (section 81).

Although, the Criminal Code of Slovakia stipulates the mitigating factor when the

offender has committed the criminal offence trying to avert an attack or other danger, or acting under the circumstances which, subject to the fulfillment of other conditions, exclude criminal liability without, however, fully meeting the requirements of necessary self-defence, extreme necessity, exercising the rights or performing the duties or the consent of the injured party, authorized use of a weapon, permissible risk, or acting as an agent (section 36 subpar. "i"). This is close to mitigating factors for a commission of a crime in excess of necessary self-defence, extreme necessity, infliction of injury when apprehending a person having committed a socially dangerous act, and justifiable professional or economic risk, set out by the Criminal Code of Uzbekistan (article 55 par. 1 subpar. "f").

Eleventh, the Criminal Code of Slovakia (section 23), as well as the Criminal Code of Uzbekistan (article 18), considers the state of "mental incapacity" as a criminal defence excluding criminal liability, and additionally, the Criminal Code of Uzbekistan implies the possibility of applying compulsory medical measures. It should be noted that the Criminal Code of Slovakia also provides a procedure for determining Protective Medical Treatment (Ochranné liečenie) (section 73 par. 1).

Twelfth, committing a crime in the state of diminished sanity in accordance with the Criminal Code of Slovakia (section 39 par. 2 subpar. "c") will be imposed a reduced penalty and concurrent protective treatment (section 73 par. 2 subpar. "a"). Moreover, the court may also waive the punishment of a young offender for a minor offence committed in the state of diminished sanity (section 99 subpar. "a"). Furthermore, the punishment of the perpetrator of a minor offence that did not result in death or grievous bodily injury may be waived if the offender committed the minor offence in a state of diminished sanity, and the

court believes that protective treatment will guarantee the protection of the society and rehabilitation of the offender more effectively than a penalty; this shall not apply if the offender has induced the state of diminished sanity himself under the influence of an addictive substance (section 40 par. 1 subpar. “c”).

And article 18-1 of the Criminal Code of Uzbekistan explicitly stipulates that persons in a state of diminished sanity are liable, and compulsory medical measures may be applied to such persons by a judge simultaneously with criminal punishment.

Conclusions

Having analysed the institute of mitigation of punishment and criminal defences as well, it can be argued that, the Criminal Code of Slovakia and the Criminal Code of Uzbekistan have more similar sides such as stipulating the list of mitigating factors and criminal defences, special provisions on mitigation of punishment etc. than different sides. Nevertheless, we may suppose that on the basis of a rule provided in paragraph 2 of article 55 of the Criminal Code, the judges in Uzbekistan have a right to wider judicial discretion.

As per of results of the comparative analysis, *we propose to adopt some of the provisions on mitigation of punishment from the Criminal Code of Slovakia and implement to Criminal Code of Uzbekistan*, which, from our point of view, will certainly contribute to the improvement of the criminal law norms of the national criminal law:

I. To implement the provisions of the subparagraphs “b”, “c” and “g” of section 36 of the Criminal Code of Slovakia to article 55 (circumstances mitigating the punishment) of the Criminal Code of Uzbekistan by supplementing paragraph 1 by the subparagraphs “k”, “l” and “m” in the ensuing edition:

Article 55. Circumstances Mitigating the Punishment

Mitigating circumstances shall be:

...“ **k) the offender has committed the criminal offence because of the lack of knowledge or experience;**

l) the offender has committed the criminal offence due to the consequences of an illness”;

m) the offender has committed the criminal offence due to an emergency that he did not bring about himself”.

II. To implement the provisions of sections 29-30 of the Criminal Code of Slovakia on criminal defences to the Criminal Code of Uzbekistan by amending paragraph 2 of article 35 and supplementing articles 41-2 and 41-3 in the succeeding edition, what will contribute to the subsequent relief of the offender’s state:

“Article 35. Definition of the Criminal Defences

...“Criminal Defences shall be: minor nature of an act; necessary defence; extreme necessity; infliction of damage when apprehending a person having committed a socially dangerous act; execution of an order or another duty; justifiable professional or economic risk; commission of an act as a result of physical or mental coercion or threat; **consent of the injured party; acting as an agent”.**

“Article 41-2. Consent of the Injured Party

An act, which otherwise gives rise to criminal liability, shall not be considered as a criminal offence if it was performed with the consent of the injured party and is not prejudicial to the latter’s life or limb.

The injured party shall not be deemed as having consented to the act if he has not given his consent prior to the act, if the consent was not serious and voluntary, or if another criminal offence has been committed in connection with the act concerned.

Provision of paragraph 1 shall not apply if, in compliance with the body of a criminal offence, the act shall be considered as a

criminal offence even if it has been consented by the injured party pursuant to paragraph 1.

Article 41-3. Acting as an Agent

An act, which otherwise gives rise to criminal liability, whereby an agent appointed in compliance with the special regulation endangers or infringes an interest protected under this Act in the course of disclosing a criminal offence or identifying its offender, shall not constitute a criminal offence if he has been forced to do so by the criminal group or the terrorist group, in which he operates, or he committed such an act because of reasonable concerns about the life or limb of himself or of a close person”.

Furthermore, taking into account the process relevance of drafting of Criminal Code in a new edition in the framework of the development of criminal, criminal procedure and criminal enforcement legislation to fulfill Goal 14 of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, dated 28 of January 2022 No. PD-60 “On the development strategy of new Uzbekistan for 2022-2026 years”, it is recommended for the legislative body of Uzbekistan to learn and adopt the provisions on the criminal liability of legal persons [19] from the Criminal Code of Slovakia, whichever in our view provides complete conditions regarding foregoing institutions.

REFERENCES

1. Pravovye sistemy stran mira. Jenciklopedicheskiy spravochnik. Slovakiya [Legal systems of the countries of the world. Encyclopedic reference book. Slovakia]. Available at: <http://law.niv.ru/doc/dictionary/legal-systems-of-countries/articles/151/slovakiya.htm?ysclid=15qje00azg983856065/> (accessed 16.07.2022).
2. Pravovaya sistema Slovaki [The legal system of the Slovak Republic]. Available at: https://legal_systems.academic.ru/151/Словакия/ (accessed 16.07.2022).
3. Saidov A.H. Sravnitel'noe pravovedenie (osnovnye pravovyye sistemy sovremennosti) [Comparative jurisprudence (the main legal systems of our time)]. Moscow, Jurist Publ., 2003, 448 p.
4. Pravovyye sistemy stran mira [Legal systems of the countries of the world]. Encyclopedic reference book. Uzbekistan. Available at: <http://law.niv.ru/doc/dictionary/legal-systems-of-countries/articles/151/slovakiya.htm?ysclid=15qje00azg983856065/> (accessed 16.07.2022).
5. Yuray A., Yuray G. Overview of Slovak political and legal system and legal research. Available at: <https://nyulawglobal.org/globalex/Slovakia1.html/> (accessed 16.07.2022).
6. Bobrickikh I.V. O sootnoshenii mezhdunarodnogo i natsional'nogo prava Slovatskoy Respubliki [On the relation between international and national law of the Slovak Republic]. *Legal Concept*, 2011, no. 2, pp. 102–107. Available at: <https://readera.org/o-sootnoshenii-mezhdunarodnogo-i-natsionalnogo-prava-slovackoj-respubliki-14972782/> (accessed 16.07.2022).
7. Lazareva N., Chentesh I. Printsipy sovremennogo ugolovnogo zakonodatel'stva Slovatskoy Respubliki [Principles of modern criminal legislation of the Slovak Republic]. *Severo-Kavkazskiy yuridicheskiy vestnik – North Caucasian Legal Herald*, 2013, no. 4, pp. 68–72.
8. Criminal Code of the Slovak Republic. Available at: https://legislationline.org/sites/default/files/documents/6f/Slovakia_CC_2005_en.pdf/ (accessed 16.07.2022).
9. Trestný Zákon SR 300/2005 Z.z z 20. mája 2005 [Criminal Code of the Slovak Republic dd 20.05.2005 (In Slovak)]. Available at: <https://www.slov-lex.sk/pravne-predpisy/SK/ZZ/2005/300/> (accessed 16.07.2022).
10. Lazareva N.Ju. Istoriya razvitiya ugolovnogo zakonodatel'stva Slovaki [History of criminal legislation development in Slovakia]. *Zhurnal zarubezhnogo zakonodatel'stva i sravnitel'nogo pravovedeniya – Journal of Foreign Legislation and Comparative Law*, 2015, no. 5, pp. 903–910.

11. Malinovskiy A.A. Sravnitel'noe ugolovnoye pravo [Comparative criminal law]. Moscow, Jurlitinform Publ., 2016, 592 p.
12. The Slovak Republic. Available at: <https://www.sites.google.com/site/europeksg/slovak-republic/> (accessed 16.07.2022).
13. Seleznev A.A. Istochniki ugolovnogo prava Slovatskoy Respubliki [Sources of criminal law of the Slovak Republic]. *Vestnik Altayskoy akademii ekonomiki i prava – Herald of the Altai Academy of Economics and Law*, 2015, no. 3, pp. 77–79. Available at: <https://readera.org/istochniki-ugolovnogo-prava-slovackoj-respubliki-142179213/> (accessed 16.07.2022).
14. Lazareva N., Chentesh I. Ponyatiye prestupleniya i ego vidy po Ugolovnomu kodeksu Slovatskoy Respubliki [The concept of crime and its types according to the Criminal Code of the Slovak Republic]. *Severo-Kavkazskiy yuridicheskiy vestnik – North Caucasian Legal Herald*, 2014, no. 3, pp. 86–90.
15. Krapchatova I.N., Seleznev A.A. Otvetstvennost' za prestupleniya protiv pravosudiya po ugolovnomu pravu Slovatskoy Respubliki [Liability for crimes against justice under the criminal law of the Slovak Republic]. *Vestnik RGGU. Seriya Ekonomika. Upravleniye. Pravo – Herald of the Russian State University for the Humanities. Series Economics. Management. Law*, 2016, no. 1, pp. 116–122.
16. Lazareva N.Ju. Sub`ekt prestupleniya po ugolovnomu pravu Slovatskoy Respubliki [The subject of the crime under the criminal law of the Slovak Republic]. *Severo-Kavkazskiy yuridicheskiy vestnik – North Caucasian Legal Herald*, 2015, no. 2, pp. 99–106.
17. Krapchatova I.N., Seleznev A.A. Institut nakazaniya v vide domashnego aresta v ugolovnom prave Slovakii [The institution of punishment in the form of house arrest in the criminal law of Slovakia]. *Vestnik RGGU. Seriya Ekonomika. Upravleniye. Pravo – Herald of the Russian State University for the Humanities. Series Economics. Management. Law*, 2016, no. 4, pp. 118–127.
18. Coufalova B. Agent Provocateur in the Legislation of the Czech Republic, the Slovak Republic and the USA. *ICLR*, 2016, vol. 16, no. 1, pp. 55–68. Available at: https://www.researchgate.net/publication/313597895_Agent_Provocateur_in_the_Legislation_of_the_Czech_Republic_the_Slovak_Republic_and_the_USA/ (accessed 16.07.2022).
19. Chentesh J., Lorko Ya. Criminal liability of legal persons in the Slovak Republic. *Studia Prawnoustrojowe* 42, UWM, 2018, pp. 353–364. Available at: https://wpia.uwm.edu.pl/czasopisma/sites/default/files/uploads/Studia_Prawno_Ustrojowe/2018/42/353-364.pdf/ (accessed 16.07.2022).

UDC: 343.98(045)(575.1)

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIK

Murodov Baxtiyorjon Bahodirovich,

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
Dastlabki tergov va kriminalistika kafedrasini boshlig'i,
yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0003-3734-458X
e-mail: Azizxon2009@mail.ru

Xushvaktova Nodira Akramovna,

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim fakulteti doktoranti
ORCID: 0000-0001-7637-5595
e-mail: akbaraliramazonovich@gmail.com

Annotatsiya. Maqola jamiyatimizda kundun-kunga tobora xavf tug'dirayotgan va huquqni muhofaza qiluvchi organlar amaliyoti uchun nisbatan yangi hisoblangan axborot texnologiyalari sohasida sodir etiladigan jinoyatlarni tergov qilish masalalariga bag'ishlangan. Mazkur maqolada bevosita shu turdagi jinoyatlarning o'sish dinamikasi va bugungi kundagi statistikasi, tergov qilinayotgan jinoyatlarning fosh etilish ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilingan. Axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda tergov organlarining jamoatchilik bilan hamkorlik qilish zarurlari va shartlari to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek, ishni sudga qadar yuritishda tergov organlari va jamoatchilik hamkorligining xalqaro huquqiy asoslari va ahamiyati tavsiflangan. Mualliflar tomonidan bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasida sodir etiladigan jinoyatlarni tergov qilishda tergov amaliyotida yuzaga kelayotgan muammoli vaziyatlarga to'xtalib o'tilgan. Jumladan, axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan jinoyatlarni fosh etish, tergov qilish va oldini olish uchun moliyaviy tashkilotlar, banklar, mobil operatorlar, internet provayderlari va to'lov tizimlari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishning obyektiv zarurati borasida so'z boradi. Shu bilan bir qatorda, Markaziy bank tomonidan respublikada huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni amalga oshirish uchun yagona bazani yaratish zarurati asoslantiriladi. Maqolada mualliflar tomonidan mazkur toifadagi ishlarni tergov qilishda mutaxassis ishtiroki bilan bog'liq muammolar borasida so'z yuritilgan hamda ularni bartaraf etishga oid bir qator takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, jinoyat-protsessual munosabatlar, jamoatchilik, kiberjinoyat, firibgarlik, hamkorlik.

СОТРУДНИЧЕСТВО С ОБЩЕСТВЕННОСТЬЮ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Муродов Бахтиёржон Баходирович,

доктор юридических наук, профессор, заведующий кафедрой
«Предварительное следствие и криминалистика»
Академии МВД Республики Узбекистан

Хушвактова Нодира Акромовна,
докторант факультета послевузовского образования
Академии МВД Республики Узбекистан

Аннотация. *Статья посвящена расследованию преступлений в сфере информационных технологий, которые в нашем обществе становятся все более опасными и являются относительно новыми для практики правоохранительных органов. В данной статье непосредственно анализируются динамика роста и текущая статистика преступлений, совершенных с помощью информационных технологий, и показатели раскрываемости расследуемых преступлений в этой сфере. Также в статье обосновывается необходимость и условия взаимодействия следственных органов с общественностью при расследовании преступлений, совершенных с помощью информационных технологий. В статье авторы описывают международную правовую базу и важность сотрудничества между следственными органами и общественностью в досудебном делопроизводстве. В частности, на сегодняшний день существует объективная необходимость налаживания взаимодействия с финансовыми учреждениями, банками, операторами мобильной связи, интернет-провайдерами и платежными системами для выявления, расследования и предупреждения преступлений, совершенных с использованием информационных технологий. При этом обосновывается необходимость создания Центральным банком единой базы для взаимодействия с правоохранительными органами страны. Авторы статьи анализируют проблемы, связанные с привлечением специалистов к расследованию данной категории дел, и вносят ряд предложений по решению этих вопросов.*

Ключевые слова: *информационные технологии, уголовно-процессуальные отношения, общественность, киберпреступность, мошенничество, сотрудничество.*

COOPERATION WITH THE PUBLIC IN THE INVESTIGATION OF CRIMES IN THE SPHERE OF INFORMATION TECHNOLOGIES

Murodov Bakhtiyorjon Bahodirovich,
Head of the Department of Preliminary Investigation and Criminalistics,
Academy of the Ministry of Internal Affairs
of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Science, Professor

Khushvaktova Nodira Akramovna,
Doctoral student of
Academy of the Ministry of Internal Affairs
of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *The article is devoted to the investigation of crimes in the field of information technology, which are becoming more and more dangerous in our society and are relatively new to the practice of law enforcement agencies. This article directly analyzes the dynamics of growth and current statistics of crimes committed with the help of information technology, the indicators of detection of investigated crimes in this area. The article also substantiates the necessity and conditions for the interaction of investigating authorities with the public in the investigation of crimes committed with the help of information technology. In the article, the authors describe the international legal framework and the importance of cooperation between the investigative authorities and the public in pre-trial proceedings. In particular, today there is an objective need to establish cooperation with financial institutions, banks, mobile operators, Internet providers, and payment systems to detect, investigate and prevent crimes committed using information technology. At the same time, the need for*

the Central Bank to create a single base for interaction with law enforcement agencies of the country is substantiated. The authors of the article analyze the problems associated with the involvement of specialists in the investigation of this category of cases and make a number of proposals to address these issues.

Keywords: *information technology, criminal procedure relations, public, cybercrime, fraud, cooperation.*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 24-mart kuni birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimidagi nutqida: "O'zbekistonni qonun va adolat mustahkam qaror topgan demokratik mamlakatga aylantirish, mustaqil va kuchli sud-huquq tizimini shakllantirish – eng oliy maqsadlarimizdan biri sifatida kun tartibiga qo'yildi... Ma'lumki, hozirgi zamon butun jahon iqtisodiyoti raqamlashtirish jarayoniga o'tayotgan, "yashil" texnologiyalar va innovatsion taraqqiyot har qanday soha va biznes rivoji uchun ustuvor ahamiyat kasb etayotgan bir davrdir" [1], deya ta'kidlab o'tdilar. Darhaqiqat, shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda mamlakatimiz taraqqiyoti uchun xizmat qilayotgan axborot texnologiyalari ham tobora yangilanib bormoqda.

Haqiqatan ham, so'nggi o'n yilliklarda axborot texnologiyalari davlat va insoniyat hayotining barcha jabhalari, jumladan, aloqa, davlat xizmatlari ko'rsatish, bank va moliya tizimi, sog'likni saqlash, ta'lim kabi muhim yo'nalishlariga kirib keldi. Tabiiyki, bu jinoyatchilarni aynan shu sohaga jalb etdi. Chunki bu turdagi jinoyatlarni uzoq masofadan turib ham sodir etish va shaxsning aniqlanish ehtimoli kamligi ularning dunyo qamrovida yil sayin o'sishiga sabab bo'lmoqda [2, 100-b.].

Bu esa huquq-tartibot idoralari, jumladan, tergov organlari xodimlari nafaqat yurtimiz sarhadlari, balki uning kibermakonida ham jinoyatlarning oldini olish, axborot tarmoqlarida sodir etilgan jinoyatlarni esa tergov qilish vazifasini yuklaydi.

Mazkur sohada bugungi kunda ko'plab protsessualist va kriminalist olimlar tadqiqotlar olib bormoqda. Sababi yangi jinoyat turi yangicha tergov metodikasi va tergov harakatlari o'tkazishning yangi taktikasini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Jumladan, xorijiy olimlardan K. Braun [3, 65-b.], D. L'yuis [4, 12-b.], F. Vil'yams [5], B. Kolin [6], D. Shinder [7], D. Denninglar [8], MDH davlatlaridan esa Ye.A. Russkevich [9], G.R. Grigoryan [10], Ye.A. Markova [11] va N.V. Letyolkinlar [12] mazkur sohada o'z tadqiqot ishlarini olib borgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar o'z tadqiqot ishlarida, asosan, axborot texnologiyalari sohasida sodir etiladigan jinoyatlar va ularning huquqiy tavsifiga e'tibor qaratgan bo'lsa, bizning tadqiqotimiz doirasida axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarni tergov qilishda jamoatchilik bilan hamkorlik masalalari o'rganilgan.

Material va metodlar

Maqolada axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarni ishni sudga qadar yuritish bosqichida aniqlash, fosh etish va oldini olishda jamiyatda mavjud kuch va imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun tergov organlari hamda jamoatchilik o'rtasida hamkorlik rishtalarini yanada takomillashtirish masalasi tadqiq etilgan.

Tadqiqot davomida analiz, qiyosiy-tahlil, deduksiya, mantiqiy, statistik, tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari


Kiberhujumlar borasida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha xalqaro Symantec

Security tashkilotining ma’lumotlariga ko’ra, hozir har soniyada dunyodagi har 12 nafar insondan biri kiberhujum qurboniga aylanmoqda.

Kiberjinoyatlarning turlari ham kundankunga ko’payib bormoqda. Shu turdagi jinoyatlarni tasniflashga oid ko’plab qarashlar mavjud. Biroq ularning eng asosiysi xalqaro huquqiy hujjatlar orqali belgilangan. Jumladan, Yevropa Kengashining “Kiberjinoyatchilik to’g’risida”gi Konvensiyasi (Budapesht shahri, 2001-yil 23-noyabr)da axborot texnologiyalari sohasida sodir etiladigan jinoyatlar 4 guruhga ajratilgan. 2003-yil 28-yanvarda Strasburg shahrida mazkur Konvensiyaga qo’shimcha protokol qabul qilinishi natijasida kiberjinoyatlar tasnifiga yana 1 ta guruh jinoyatlar qo’shildi.

O’zbekistonda ham so’nggi uch yilda kiberjinoyatlar 8,3 baravarga ko’payib, umumiy jinoyatchilikning 5 foizini tashkil etmoqda. Masalan, kibermakonda firibgarlik bilan bog’liq jinoyatlar 13 baravar, o’g’rilik 20, tovlamachilik, tuhmat va haqorat qilish bilan bog’liq jinoyatlar esa 4,9 baravarga ortgan [13].

Birgina Toshkent shahrining o’zida 2021-yil davomida Toshkent shahar IBB huzuridagi Tergov boshqarmasi va uning quyi tizimlari tomonidan 735 ta (2020-yilda 10 ta) holatda kompyuter texnikasi va mobil aloqa vositalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik, 1052 ta (2020-yilda 24 ta) holatda shaxsiy hisob raqamlarni boshqarish dasturlariga ruxsatsiz kirib sodir etilgan o’g’rilik, jami 1787 ta (2020-yilda 34 ta) jinoyatlar bo’yicha dastlabki tergov harakatlari olib borilgan [14] (1-rasm).



1-rasm. Axborot-texnologiyalari sohasida sodir etilgan jinoyatlarning qiyosiy tahlili


Biroq 2021-yilda Toshkent shahrida axborot texnologiyalari sohasida sodir etilgan jami 635 ta firibgarlik va 930 ta

o’g’rilik (2020-yilda 4 ta firibgarlik va 5 ta o’g’rilik) jinoyatlari fosh etilmagan (2- va 3-rasmlar). Ushbu turdagi jinoyatlarning

fosh etilmasligi natijasida jazo muqarrarligi prinsipi ta'minlanmayotganligi hamda fuqarolarga noma'lum shaxslar tomoni-


dan yetkazilgan zarar qoplab berilmasdan, ularning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Axborot texnologiyalari sohasida sodir etilgan firibgarlikning fosh etilish ko'rsatkichi



2-rasm. Axborot texnologiyalari sohasida sodir etilgan firibgarlikning fosh etilish ko'rsatkichi

Axborot texnologiyalari sohasida sodir etilgan o'g'rilikning fosh etilish ko'rsatkichi



3-rasm. Axborot texnologiyalari sohasida sodir etilgan o'g'rilikning fosh etilish ko'rsatkichi

Mazkur masalada, fikrimizcha, bir qator jihatlariga e'tibor qaratishimiz lozim. Dunyoning eng zamonaviy kibernetika tizimlari bilan himoyalangan mamlakat Amerika Qo'shma Shtatlarining Davlat kotibi Maykl Pompeoning quyidagi so'zlarini eslasak: "Kiberjinoatchilar davlatlardagi qonun ustuvorligini pisand qilmaydi. Ularning dunyo bo'ylab tahdid uyg'otayotganidan kelib chiqib, barcha hukumatlarni kiberjinoatchilarga qarshi kurashda hamkorlik qilishga, aybsiz fuqarolarni birgalikda himoya qilishga chaqiraman".

Darhaqiqat, xalqaro hamjamiyat tomonidan jinoyatlarni tergov qilishda jamoatchilik bilan va xalqaro hamkorlik o'rnatish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2015-yil 12–19-aprel kunlari Doha shahrida o'tkazilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'n uchinchi Kongressida jinoatchilikning oldini olish va odil sudlovni yuritish borasida jamoatchilik ishtirokining ta'minlashiga oid Doha deklaratsiyasi qabul qilingan.

Har qanday mamlakatda huquq-tartibot organlarining aholi bilan muloqoti, fuqarolik jamiyatining ijtimoiy, o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorligi, bir tomondan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'z faoliyat (xizmat) vazifalarini samarali bajarish, huquqiy tartibotni ta'minlash, jinoyatlarni muvaffaqiyatli fosh etish va boshqa funksional burchlarni bajarishga ko'maklashsa, ikkinchi tomondan, fuqarolarning huquqlarini himoyalash jamiyat tuzilmalarining manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi [15, 134-135-b.].

Kiberjinoatchilarni tergov qilishda hamkorlikni o'rnatish zaruratini keltirib chiqaruvchi o'ziga xos jihati shundaki, kiberjinoatchilar virtual makonda sodir etiladi, ya'ni kompyuter, mobil qurilmalar yordamida, Internet va boshqa aloqa, telekommunikatsiya tarmoqlarida amalga oshiriladi. Bu esa mazkur turdagi jinoyatlarning davlat hududi chegaralaridan chetga chiqishi va xalqaro tur-

dagi jinoyatga aylanishiga olib keldi hamda, o'z navbatida, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning munosib javob berishi va o'zaro hamkorlik o'rnatishga undadi [16, 883-b.]. Shu sababli tergov idoralari axborot xavfsizligini ta'minlash, kiberjinoatchilarga qarshi kurashish, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslarni aniqlash borasida banklar, mobil operatorlar, internet provayderlari va boshqa tashkilotlar bilan huquqiy, tashkiliy-boshqaruv, texnik choralar va xalqaro hamkorlik samaradorligini oshirishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda internet tarmog'i orqali, asosan, "firibgarlik", "tuhmat", "haqorat", "o'g'rilik" kabi jinoyatlarning sodir etilishi kuzatilmoqda. Ushbu jinoyatlar orasida butun dunyodagi kabi mamlakatimizda ham firibgarlik jinoyati eng ko'p sodir etiladi. Firibgarlik holatlarining aksariyati quyidagi jinoiy natijalarga erishishga qaratilgan:

a) firibgarlik yoki ishonchni suiiste'mol qilish ta'siri ostida bank plastik kartalariga xizmat ko'rsatuvchi mobil ilovalar orqali jabrlangan shaxslar tomonidan pul mablag'larini ularning hisoblariga o'tkazib olish;

b) bank plastik kartochkalarining shaxsiy ma'lumotlari va to'lov rekvizitlarini ulardan naqd pul olish, uni boshqa kartochka hisobvaraqlari, bank hisobvaraqlari, elektron hamyonga o'tkazish yoki kartochka egasining roziligisiz virtual xaridlar amalga oshirish maqsadida qo'lga kiritish.

Xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilganda esa bankomatlar, to'lov terminallariga o'rnatilgan "skimmer" qurilmalari, soxta bankomatlar (Germaniya, Hindiston) va plastik kartani "klon qiluvchi" qurilma (Fransiya, Rossiya, Ukraina) yordamida kartaning identifikatsion ma'lumotlarini o'g'irlash, mablag'larni o'zlashtirish va jinoiy uyushmalarni moliyalashtirish uchun mablag' yuborish kabi jinoyatlar mavjudligi

va ular ham mamlakatimizda sodir etilishi mumkinligini prognozlash qiyin emas.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqoridagi tahlillar va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish natijalari mamlakatimizda ham kiberjinoatchilikka qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish zarurati yuzaga kelganligidan dalolat bermoqda. Buning uchun tergov idoralari O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari, shuningdek, pul o'tkazmalarini amalga oshiruvchi tashkilotlar bilan axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish, sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishda hamkorlikni kuchaytirish va amaliyotga tadbiiq etish lozim.

Albatta, mavjud kasallikni davolashdan ko'ra, uning oldini olish, ya'ni profilaktika qilish muhimdir. Shunday ekan, jinoyatni tergov qilish jarayonida virtual makonda firibgarlikning sodir etilishiga olib kelgan barcha sabab va shart-sharoitlar aniqlangandan keyin jinoyat sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan taqdimnoma kiritilishi muhim. Chunki bu kelgusida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Tahlillar asosida o'zgaralar mulkini kompyuter vositasidan foydalanib talon-toroj qilishning asosiy sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlar o'rganilganda, ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslar tomonidan ko'pgina hollarda jinoyatlarni sodir etish uchun qurol sifatida O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan banklar, to'lov operatorlari va tashkilotlarining mobil ilovalar hamda dasturiy ta'minotlaridan foydalangan holda amalga oshirib kelayotganliklari aniqlangan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan banklar, to'lov operatorlari va tashkilotlarda mavjud mobil ilovalar hamda dasturiy ta'minotni himoya qilish darajasini kuchaytirishga qaratilgan zaruriy choralar to'liq ko'rilishi

yuzasidan JPKning 297-moddasi tartibida taqdimnoma kiritish zarur deb hisoblaymiz.

Shuningdek, kiritilgan taqdimnomaning muhokamasi davomida ishtirok etayotgan fuqarolarga bank plastik kartadan noma'lum tarzda pul yechib olingan zahoti uni bloklash chorasini ko'rish va xizmat ko'rsatadigan bankiga murojaat qilish, ayrim turdagi viruslar hisobidan pul ko'chirilishi chog'ida ma'lumotlarni o'g'irlab, kartadagi mablag'ni o'z egasi (xaker)ga o'tkazib yuborishi mumkinligi, kompyuter yoki telefon qurilmasiga antivirus dasturlari o'rnatib, ularning doimo yangilab turilishi, bank plastik kartalarni birovlarga bermaslik, hech qachon kartaning yuziga PIN-kodni yozib qo'ymaslik, PIN-kodni hech kimga ma'lum qilmaslik, SMS-xabarnomani yoqtirish orqali har bir to'lov amaliyoti to'g'risida kelgan SMS bilan nazorat qilib borish lozimligi ham tushuntirilishi zarur.

Kiberjinoyslarni tergov qilish jarayonida jamoatchilik ishtirokining yana bir shakli – mutaxassis ishtiroki hisoblanib, JPKning 69-moddasi talablaridan kelib chiqadigan bo'lsak, quyidagi maqsadlarda mutaxassislar chaqiriladi:

- 1) tergov va sud muhokamasini o'tkazishda dalillar topish;
- 2) dalillarni mustahkamlashda yordam berish;
- 3) himoyachining iltimosnomasiga ko'ra tushuntirish berish;
- 4) ilmiy-texnika vositalarini qo'llash.

Aynan axborot texnologiyasi sohasida sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan tergov harakatlari o'tkazishda mutaxassis ishtiroki zarur hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 24-son qarorining 9-bandi "k" kichik bandiga ko'ra, raqamli (elektron) tashuvchi jismlardagi ma'lumotlar mutaxassis ishtirokisiz olib qo'yilganligi yoki ko'zdan

kechirilganligi dalillarning nomaqbul deb topilishiga asos bo'ladi.

Demak, tergov idoralari axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda bevosita mutaxassis yordamidan foydalanishiga zarurat mavjud.

Mutaxassislarning tergov harakatlari o'tkazishda ishtirok etishi haqli ravishda tergov samaradorligining ajralmas shartidir. U nafaqat ishtirok etishi shart bo'lgan, balki ishtirok etish imkoni bo'lgan barcha hollarda tergov harakatlariga jalb etilishi lozim [17, 89-b.].

Bugungi kunda amaliyotimizda axborot texnologiyalari sohasida sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha o'tkazilayotgan tergov harakatlari mutaxassis ishtirokini ta'minlash borasida ham bir qator muammolar mavjud. Sababi mutaxassis kimligi, unga qo'yiladigan talablar va uni ishda ishtirok etishga jalb qilish tartibi yetarli tarzda jinoyat-protsessual qonunchilikda yoritilmagan. Bu esa olimlar va amaliyotchilar o'rtasida turli bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda [18, 60-61-b.].

Jinoyat protsessiga jalb qilingan mutaxassislar kompetensiyasini aniqlash borasida alohida to'xtalib o'tishni lozim deb topdik. Qiyos qilish mumkin bo'lsa, shaxmat piyodasi muayyan bosqichga yetganda, farzin bo'lib, o'z qirolini himoya qilgandek, jinoyat protsessi taxtasida qadamma-qadam odimlayotgan mutaxassisning yuqori darajaga erishganligi jinoyat protsessida haqiqatni himoya qilishga, odillikni ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki birgina so'z, birgina dalil jinoyat ishining yakuniy qaroriga ta'sir etishi mumkin.

Kasbiy kompetentlik esa mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularning amalda yuqori darajada qo'llay olinishi hisoblanadi [19, 4-b.].

Shu bilan birgalikda, mazkur toifadagi jinoyat ishlari yuzasidan mutaxassislarning bilimlaridan yetarli darajada foydalanmaslik-

ning asosiy sabablaridan biri – bu mutaxassislarning ixtisosligi, ularning faoliyati, qayerda xizmat olib borishi haqidagi ma'lumotlarning yetishmasligi deb hisoblash mumkin. Uning yechimi sifatida bir guruh olimlar tergovchilarga xizmatda foydalanish grifi orqali ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, ixtisoslashtirilgan muassasalar, jamoat birlashmalari (madaniy, tarixiy, numizmatik va boshqa) manzili va telefon raqamlari aks etgan ma'lumotnomalar [20, 138-b.] yoki reyestrlar [21, 126-b.] yaratishni taklif etgan. Boshqa mualliflar esa qachon qaysi mutaxassisni chaqirishni aniqlab beruvchi dastur yaratish g'oyasini ilgari surgan [17, 129-b.].

Fikrimizcha, jamoatchilikni tergovga qadar tekshiruv va tergov organlari bilan bog'laydigan eng yaxshi yo'l – bu bizga zarur bo'lgan mutaxassislar faoliyat olib boradigan mutasaddi tashkilotlar va IIV o'rtasida o'zaro hamkorlikka oid memorandumlar tuzishdir. Mazkur memorandum asosida axborot texnologiyalari yo'nalishidagi korxonalar, tashkilot va muassasalar tavsiyanomasi hamda shaxsning yozma roziligi orqali tergov harakatlarida ishtirok etishi mumkin bo'lgan mutaxassislar, ularning shaxsi hamda kompetensiyasini tasdiqlovchi hujjatlar, ish staji va faoliyati, yashash va ishlash manzili, telefon raqamlari, elektron manziliga oid ma'lumotlar jamlangan yagona elektron baza yaratilishi zarur. Mutaxassis jinoyat ishida ishtirok etishga jalb etilganda, bevosita mazkur baza orqali qayd etilishi, uning rahbari xodimi haqiqatda tergovda ishtirok etayotganligini bilish, mutaxassisning ish vaqti uchun to'lovi saqlanib qolinishi hamda IIO tomonidan tergovdagi ishtiroki uchun pul to'lanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Bunday bazaning yaratilishi bizga bir qator afzalliklar beradi:

Birinchi, avvalo, tergovga qadar tekshiruv va tergov organlari xodimlarining vaqti tejaladi.

Ikkinchi, jinoyat ishlarini yuritish sifati va samaradorligi oshadi, chunki aynan

ishtiroki talab etilayotgan mutaxassisni qayerdan qidirish va kimni qidirish lozimligi aniqlanadi.

Uchinchi dan, protsessual chiqimlar kamayadi, chunki mutaxassisni tergov yuritilayotgan bo'limga eng yaqin hududdan qidirish boshlanadi.

To'rtinchi dan, mazkur hamkorlik mu'tasaddi tashkilotlar o'rtasidagi memorandum asosida tuzilgach, sansalorlikka yo'l qo'yilishining oldini oladi.

Axborot texnologiyalari sohasida jinoyatlarni tergov qilishda amaliyotda uchrayotgan, bevosita bank va to'lov tizimlari bilan bog'liq bo'lgan bir nechta muammolarni ham ko'rib chiqsak.

Birinchi dan, bank, to'lov tashkilotlari va to'lov operatorlariga qo'zg'atilgan jinoyat ishi yuzasidan asoslantirilgan so'rov xatlari taqdim etilganda (prokuror sanksiyasi bilan), bank va to'lov tizim operatorlari tomonidan so'rov xatlariga to'liq javob bermasdan, so'rov xatlarining ijrosi 10 kundan 15 kungacha ta'minlanayotganligi, bu esa, o'z navbatida, bitta jinoyat ishi bo'yicha noqonuniy topilgan mablag'lar yo'naltirilgan manzillarini aniqlash uchun 2 oydan 3 oygacha vaqt talab etayotganligi sababli ushbu turdagi jinoyatlarni issiq izidan fosh etishda jiddiy qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda.

Ikkinchi dan, bank plastik kartasi yoki elektron pullar o'tkazmasi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishning markazlashgan tizimi mavjud emasligi natijasida bitta jinoyat ishi bo'yicha plastik kartalarning tranzaksiyalariga oid ma'lumotlarni prokuror sanksiyasi asosida olish uchun turli banklar (Xalq banki, Agrobank, Infinbank, Ipak yo'li bank), to'lov tizimi operatorlari (Uzcard, HUMO), to'lov tashkilotlari (Click, PayMe, Apelsin) kabi 8-10 ta idoralarga so'rov xati yetkazib berish va ularning javoblarini kutish zarurati tug'ilmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish, shuningdek, tergov idoralari jamoatchilik bilan hamkorligini yanada takomil-

lashtirish maqsadida quyidagilarni taklif etamiz:

Birinchi dan, to'lov tizimi operatorlari, to'lov tashkilotlari, to'lov agentlari va sub-agentlari bilan Ichki ishlar vazirligi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri axborot almashinuvi yo'lga qo'yilishi lozim.

Ikkinchi dan, Markaziy bank tomonidan bank plastik kartasiga oid ma'lumotlarni huquq-tartibot idoralari so'roviga asosan taqdim etishning yagona avtomatlashtirilgan tizimi shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchi dan, yo'qolgan va o'g'irlangan bank plastik kartalari to'g'risida "SOS" xabar beruvchi mobil ilova ishlab chiqish va ular to'g'risidagi yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish jinoyatlarni fosh etish uchun bir qator qulayliklar keltirib chiqaradi.

To'rtinchi dan, fosh etilmagan jinoyat ishlari yuzasidan tergov davomida jinoyatni sodir etgan noma'lum shaxsni aniqlashda jamoatchilik vakillari, masalan, elektron valyuta ayriboshlash bilan shug'ullanuvchi fuqarolarni jalb etish.

Xulosalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga ko'ra tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishga bag'ishlangan 2-ustuvor yo'nalishining birinchi maqsadi ham huquqni muhofaza qilish organlariga mulkiy huquqlarni muhofaza qilish majburiyatini yuklaydi.

Xulosa o'rnida ta'kidlashimiz lozimki, mavjud tahdidlarni yengish uchun hamma-miz – ham huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ham fuqarolarimiz bir yoqadan bosh chiqarib, ogoh bo'lsak, o'z taqdirimizni Vatan taqdiri bilan bog'lab, befarqlikdan qochsak, Prezidentimiz belgilagan strategiya va islohotlarni amalga oshirishda jipslashib, bir tan-u bir jon bo'lsak, tinch va osuda yurtimiz ravnaq topaveradi.

Fikrimizcha, yuqorida ko'rsatilgan takliflar amaliyotga to'liq tatbiq etilgan taqdirda, ushbu turdagi jinoyatlarni issiq izidan fosh etish va oldini olishda o'z samarasini beradi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. Investorlar uchun qulay va jozibador sharoit yaratishga qaratilgan amaliy ishlarimizni yanada jadallashtiramiz [We will intensify our practical work aimed at creating favorable conditions for investors]. Available at: [https://uza.uz/uz/posts/investorlar-uchun-qulay-va-zhozibador-sharoit-yaratishga-qaratilgan-amaliy-ishlarimizni-yanada-zhadallashtiramiz_357901/](https://uza.uz/uz/posts/investorlar-uchun-qulay-va-zhozibador-sharoit-yaratishga-qaratilgan-amaliy-ishlarimizni-yanada-zhadallashtiramiz_357901?q=%2Fposts%2Finvestorlar-uchun-qulay-va-zhozibador-sharoit-yaratishga-qaratilgan-amaliy-ishlarimizni-yanada-zhadallashtiramiz_357901/) (accessed 26.03.2022).
2. Zelenkina O.Yu. Osobennosti rassledovaniya prestupleniy v sfere komp'yuternoy informatsii [Features of the investigation of crimes in the field of computer information]. *Sibirskiye ugovno-protsessual'nyye i kriminalisticheskiye chteniya – Siberian Criminal Procedure and Forensic Readings*, 2019, no. 1, pp. 92–100.
3. Brown C. Investigating and Prosecuting Cyber Crime: Forensic Dependencies and Barriers to Justice. *International Journal of Cyber Criminology*, 2015, no. 9, pp. 64–75.
4. Lewis J.A. Assessing the Risks of Cyber Terrorism, Cyber War and Other Cyber Threats. *Center for Strategic and International Studies*, 2012, no. 1, pp. 10–18.
5. Williams P. Organized crime and cybercrime: synergies, trends, and responses crime research. Available at: <http://www.crime-research.org/library/Cybercrime.htm/> (accessed 23.03.2022).
6. Collin B. The future of cyberterrorism: where the physical and virtual worlds converge crime research. Available at: <http://www.crime-research.org/library/Cyberter.htm/> (accessed 23.03.2022).
7. Shinder D.L., Tittel E. Scene of the Cybercrime: Computer Forensics Handbook BookReader. Available at: <http://bookre.org/reader?file=495251/> (accessed 23.03.2022)
8. Denning D.E. Activism, hacktivism, and cyberterrorism: the internet as a tool for influencing foreign policy information warfare site. Available at: <http://www.iwar.org.uk/cyberterror/resources/denning.htm/> (accessed 23.03.2022).
9. Russkevich E.A. Differentsiatsiya otvetstvennosti za prestupleniya, sovershaemye s ispol'zovaniem informatsionno-kommunikatsionnykh tekhnologiy, i problemy ikh kvalifikatsii [Differentiation of responsibility for crimes committed with the use of information and communication technologies and problems of their qualification]. Doctor's degree dissertation. Moscow, 2020, 162 p.
10. Grigoryan G.R. Moshennichestvo v sfere komp'yuternoy informatsii: problemy kriminalizatsii, zakonodatel'noy reglamentatsii i kvalifikatsii [Fraud in the field of computer information: problems of criminalization, legislative regulation and qualification]. Doctor's degree dissertation. Samara, 2021, 243 p.
Xususan, ushbu holatni jinoyat ishini tugatish asoslari bo'yicha tahlil etadigan bo'lsak, Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismining 8-bandida "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o'z qilinishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli yoxud belgilangan muddat ichida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplanganligi va (yoki) jinoyat oqibatlarini bartaraf etilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan bo'lsa", jinoyat ishini tugatish mumkinligi belgilangan. Biroq mazkur norma Jinoyat kodeksi Umumiy qismida javobgarlikdan ozod qilish turlaridan biri sifatida nazarda tutilmagan.

O'z navbatida, Maxsus qism normalari Umumiy qism normalariga asosan shakllantirilishini hisobga olsak, ushbu asosning ham Jinoyat kodeksi Umumiy qismida belgilanishi maqsadga muvofiq.

Ayrim mualliflar esa ish holati va ish bo'yicha to'plangan ma'lumotlarga asosan,

jinoiyat ishini tugatish asoslarini yuridik va faktik mezonlarga ko'ra tasniflashni taklif etadi [7, 180-b.].

Jinoiy ayblovni tugatishning faktik shartlariga ishning mohiyatiga ko'ra to'plangan xulosalarning ishonchsizligi, uning asoslari yetarli emasligi kiritilgan [8, 322-b.]. Fikrimizcha, faktik asoslarga ko'ra ishni tugatishda jinoiyat ishi bo'yicha to'plangan materiallar asosida shaxsga nisbatan qo'yilgan gumon yoki ayblov o'z tasdig'ini topmaydi hamda to'plangan ma'lumotlar esa uni ayblash uchun yetarli darajada bo'lmaydi.

Bunga misol sifatida Jinoiyat-protsessual kodeksi 83-moddasining birinchi qismi, ya'ni ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bermaganlik yoki gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining sodir etilgan jinoiyatga daxli bo'lmaganlik holatini keltirish mumkin.

Chunki mazkur asoslar bo'yicha shaxsga nisbatan qo'yilgan gumon yoki ayblovlar ishni ko'rib chiqish va isbot qilish jarayonida o'z tasdig'ini topmaganligi yoki ish bo'yicha to'plangan ma'lumotlar shaxsni ayblash uchun yetarli bo'lmaganligi sababli jinoiyat ishini tugatishni taqozo etadi.

Haqiqatni aniqlash prinsipining mazmuniga ko'ra, ish bo'yicha isbot qilinishi lozim bo'lgan hamma holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirib chiqilishi kerak. Bunda jinoiyat ishi doirasida yuzaga keladigan va kelishi mumkin bo'lgan har bir masalani hal qilish va ko'rib chiqishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tomonidan sodir etilgan qilmishni ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, ularning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og'irlashtiradigan holatlar aniqlanishi va ishda hisobga olinishi lozim.

Ish bo'yicha isbot qilinishi lozim bo'lgan har bir holatning haqiqiy ekanligini so'zsiz tasdiqlaydigan ishga aloqador ishonchli dalillar to'plangan bo'lsa, ularning jami ishni hal qilish uchun yetarli hisoblanadi.

Bunda ishni ko'rib chiqishda tergovga qarar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ish bo'yicha jinoiyat hodisasi yuz berganligi, uni sodir etishda kim aybdorligi, u bilan bog'liq bo'lgan barcha holatlarni aniqlashi shart.

Fikrimizcha, har qanday dalil oldindan belgilangan kuchga ega bo'lishi mumkin emas. Aybdorlikka oid dalillar bilan tasdiqlanmagan tasmollar shaxsni ayblash va javobgarlikka tortish uchun asos bo'lmashligi shart. Demak, jinoiyat ishini ko'rib chiqish va hal etishda o'z tasdig'ini topmagan hamda yetarli bo'lmagan dalillardan shaxsni ayblashda foydalanish mumkin emas.

Jinoiyat ishini tugatish asoslarining yuridik mezonlar bo'yicha tasnifiga to'xtaladigan bo'lsak, bunda obyektiv sabablarga asosan ish yuritish mumkin bo'lmaydi. Yuridik fanda yuridik asoslar protsessual asoslar sifatida tushuniladi, ya'ni ular qilmishning jinoiyliги va jazolanishini istisno qilmasa ham, protsessual qonunning maxsus ko'rsatmasi sifatida jinoiyat ishini yuritish imkoniyatini istisno qiladi [9, 112-113-b.].

Mazkur olimning fikri bilan kelishish mumkin. Chunki yuridik shartlar qilmishning jinoiyliги yoki uning jazoga sazovorligini bartaraf etuvchi holatlarning aniqlanishi bilan yuzaga keladi. Agar mazkur holatlar jinoiyat ishini qo'zg'atish vaqtida ma'lum va mavjud bo'lsa, jinoiyat ishi qonuniy asoslar bo'lmaganligi uchun umuman qo'zg'atilmaydi.

Agarda ular jinoiyat ishi qo'zg'atilganidan so'ng yuzaga kelgan taqdirda, qo'zg'atilgan jinoiyat ishi uni yuritishni davom ettirish imkoniyati bo'lmaganligi sababli tugatiladi. Ushbu asoslar qatoriga ayblanuvchi yoki sudlanuvchining vafot etishi, javobgarlikka tortish muddatining o'tganligi, yarashuv, amnistiya aktiga asosan jinoiyat ishini tugatish holatlarini kiritish mumkin.

Shu bilan birga, fikrimizcha, jinoiyat ishini tugatish asoslarini yuridik va faktik asoslarga ko'ra tasniflagan mualliflarning

fikrlariga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Sababi faktik asoslar bo'yicha ham jinoyat ishini tugatish uchun, albatta, qonuniy (yuridik) asos bo'lishi talab etiladi. Mazkur asoslar jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilik yoki boshqa qonunlarda belgilangan bo'ladi.

V. Kalinin va I. Filipchenkovlarning fikriga ko'ra, jinoyat ishini tugatishning faktik va yuridik asoslarining har biri qonunda nazarda tutilganligi sababli ular yuridik jihatdan teng kuchga ega [10, 24-b.].

Ushbu mualliflarning fikriga qo'shilgan holda, shuni aytish kerakki, qonun chiqaruvchi faktik va yuridik mezonlar bo'yicha jinoyat ishini tugatish asoslarini amaldagi qonunchilikda belgilab bergan. Bu ularni amaliyotda qo'llashda teng yuridik kuchga ega ekanligini ko'rsatadi hamda ularni amaliyotda qo'llashga ta'sir qilmaydi. Bunda faqatgina ularni qo'llash shartlari va tartibida farqli jihatlar bo'lishi mumkin.

Boshqa bir guruh mualliflar esa jinoyat ishlarini tugatish uchun barcha asoslarni ikki guruhga ajratadi:

1) jinoyat ishini majburiy tugatishga olib keladigan asoslar;

2) vakolatli organlarga ishni tugatish huquqini beradigan asoslar [11, 349-b.].

Shunga o'xshash fikrni O.B. Vinogradova ham ilgari surgan bo'lib, jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilishga vakolatli organlar va mansabdor shaxslarning xohishidan foydalanish imkoniyatiga qarab, jinoyat ishini tugatish asoslarini ixtiyoriy va majburiy turlarga bo'lishni taklif etadi [12, 46-53-b.].

Mazkur mualliflarning fikri bilan qisman kelishish mumkin. Chunki jinoyat ishini tugatishning ayrim asoslarida (shaxsning qilmishida jinoyat tarkibi mavjud bo'lmasa yoki shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bo'lsa) vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) ishni tugatishlari majburiy hisoblanadi.

Bunda vakolatli mansabdor shaxslar ish holatidan qat'i nazar, jinoyat ishini tugatishlari majburiydir.

Shuningdek, jinoyat ishini tugatishning ayrim asoslari (yarashuv, ayrim holatlarda javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa) vakolatli organlarga ishni tugatish huquqi (vakolati)ni berishni nazarda tutadi.

Shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tganlik holatini oladigan bo'lsak, ushbu asosni ham majburiyat yuklovchi, ham huquq beruvchi tasnifga kiritish mumkin. Bunda Jinoyat kodeksi 64-moddasining oltinchi qismida belgilangan norma, ya'ni "umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan javobgarlikka tortish muddatlarini qo'llash masalasi sud tomonidan hal qilindi", degan qoida muddat masalasini qo'llashda sudga huquq (vakolat) bermoqda. Uni qo'llash yoki qo'llamaslik sud ixtiyorida.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, jinoyat ishini tugatish majburiyatini yuklaydigan holatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) jinoiy hodisa yuz bermagan bo'lsa;

b) sodir etilgan qilmishida jinoyat tarkibi mavjud bo'lmasa;

d) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining sodir etilgan jinoyatga daxli bo'lmasa.

e) ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa va boshqalar.

Vakolatli organlarga ishni tugatish majburiyatini yuklamaydigan, balki ularga jinoyat ishini tugatish huquqini beradigan holatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) jabrlanuvchi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi bilan yarashgan bo'lsa;

b) amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa;

d) ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa;

e) shaxs aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon

bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa;

f) sodir etilgan qilmishning xususiyati, birinchi marta ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etganing shaxsini hisobga olib, materiallarni voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaga qarab chiqish uchun berish maqsadga muvofiq bo'lsa.

Shuningdek, shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tganlik holati ham huquq beruvchi, ham majburiyat yuklovchi asos hisoblanadi.

A.P. Rijakov jinoyat ishini tugatish asoslarini quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflagan:

a) jinoyat ishini tugatish va jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish uchun asos bo'ladigan holatlar;

b) tergovchi (jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar)ga jinoyat sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish huquqini beradigan holatlar;

d) jinoyat natijasida yetkazilgan zarar qoplangan taqdirda, shaxsga nisbatan boshqa ta'sir chorasini qo'llash orqali jinoiy javobgarlikdan ozod qilish nazarda tutilgan holatlar [13, 228-b.].

A. Rijakovning birinchi mezon bo'yicha, ya'ni jinoyat ishini tugatish va jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish uchun asos bo'ladigan holatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bergan bo'lsa;

2) sodir etilgan qilmishida jinoyat tarkibi mavjud bo'lmasa;

3) shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa;

4) ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa;

5) shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bo'lsa;

6) shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha ishni tugatish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan ajrimi (qarori) yoki vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat ishi

qo'zg'atishni rad etish yoxud ishni tugatish haqida bekor qilinmagan qarori bo'lsa;

7) shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan bo'lsa;

8) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli yoxud belgilangan muddat ichida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplanganligi va (yoki) jinoyat oqibatlari bartaraf etilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan bo'lsa.

Amaldagi JPKning 333-moddasida jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish tartibi belgilangan bo'lib, yuqorida nazarda tutilgan holatlar bo'yicha, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqaradi, jinoyat sodir etilganligi to'g'risida xabar bergan fuqaro, korxon, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasi yoki mansabdor shaxs bu haqda xabardor qilinadi.

Bunda ularga qaror ustidan shikoyat qilish huquqi va tartibi tushuntirilishi lozim. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi qarorning ko'chirma nusxasi prokurorga yuboriladi.

Shu bilan birga, A. Rijakovning birinchi mezon, ya'ni jinoyat ishini tugatish va jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish uchun asos bo'ladigan holatlar bo'yicha tasnifi bilan to'liq kelishib bo'lmaydi. Chunki protsessual qonunchilik talabi bo'yicha jinoyat ishini tugatishning barcha asoslari ishni tugatish yoki jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etishga asos bo'lmaydi. Ayrim asoslar borki, ularni qo'llagan holda jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Xususan, shaxsning sodir etilgan jinoyatga daxli bo'lmaganlik holati jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etishga asos bo'lmaydi. Chunki "shaxsning sodir etilgan jinoyatga daxli bo'lmaganlik" holati bo'yicha jinoyat ishini tugatish mumkin. Bunda oldin jinoyat

ishi qo'zg'atilgan bo'lishi hamda shaxsning ushbu jinoyat ishiga aloqasi yo'q ekanligi dalillar majmuyi bilan o'z tasdig'ini topishi talab etiladi.

Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etishni ushbu asos bo'yicha amalga oshirish ham nazariy, ham amaliy, ham qonunchilik nuqtayi nazaridan mumkin emas. Bunga huquqiy asos sifatida Jinoyat-protsessual kodeksining 333-moddasini keltirish mumkin.

A. Rijakov ikkinchi mezon bo'yicha, ya'ni vakolatli organlarga jinoyat ishini tugatish huquqini beradigan holatlarga quyidagilarni kiritgan:

a) jabrlanuvchi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi bilan yarashgan taqdirda;

b) shaxs aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa;

d) qilmishning xususiyati, birinchi marta ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etganning shaxsini hisobga olib, jinoyat ishi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaga yuborilgan bo'lsa.

A. Rijakov yuqoridagi uchinchi mezon bo'yicha tasnifga ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxsга nisbatan sud jarimasi tarzidagi jinoiy-huquqiy ta'sir chorasini qo'llash orqali jinoiy javobgarlikdan ozod qilish holatini kiritishni taklif etgan [14, 228-b.].

Bizning qonunchilikda sud jarimasi tarzidagi ta'sir chorasi belgilanmagan.

Biroq qonunchiligimiz bo'yicha ushbu mezonda nazarda tutilgan holat jinoyat ishini shaxsning roziligi bilan uning aybliligi haqidagi masalani hal qilmay turib tugatilishi mumkin bo'lgan asoslarga yaqin ekanligini ko'rish mumkin.

Xususan, Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi beshinchi qismining ikkinchi kichik xatboshisida belgilangan asos (ijti-

moiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa) A. Rijakovning uchinchi mezonidagi tasnifda nazarda tutilgan asosga o'xshash hisoblanadi.

Zamonaviy yuridik adabiyotlarda jinoyat ishini tugatish asoslari reabilitatsiya va reabilitatsiya qilinmaydigan (noreabilitatsiya) mezonlarga ko'ra tasniflanadi [15, 88-90-b.].

Jinoyat ishi reabilitatsiya asoslariga ko'ra tugatilgan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan shaxsning jinoyat sodir etishdan oldingi huquqlari, halol nomi, obro'si sud yoki ma'muriy tartibda tiklanishi uchun zarur choralar ko'riladi, jinoyat natijasida unga yetkazilgan zarar to'liq qoplab beriladi [16-b. 159].

Mazkur mualliflarning fikrlari bilan kelishgan holda, shuni qayd etish joizki, jinoyat ishini reabilitatsiya asoslariga ko'ra tugatish vakolati surishtiruvchi, tergovchi, prokurordan tashqari, sudda ham mavjud. Jinoyat ishini reabilitatsiya asoslariga ko'ra tugatish jinoyat ishiga jalb etilgan shaxsning tergov yoki sud harakatlari natijasida uning jinoyat sodir etmaganligi va sodir etilgan jinoyatga hech qanday aloqasi yo'q ekanligini rasman tan olishni nazarda tutadi.

Bunda jinoyat ishi qaysi bosqichda (ishni sudga qadar yuritish yoki sud bosqichida) tugatilishidan qat'i nazar, shaxsning barcha huquqlari (yetkazilgan mulkiy va ma'naviy ziyon bilan birga) vakolatli organlar tomonidan to'liq tiklab beriladi. Qonunchiligimiz bo'yicha reabilitatsiya etilgan shaxs yetkazilgan mulkiy zararni undirish hamda ma'naviy ziyon oqibatlarini bartaraf etilishini talab qilish huquqiga ega.

Bundan tashqari, reabilitatsiya etilgan shaxsning mehnat qilish, nafaqa olish, uy-joy-

dan foydalanish huquqlari ham tiklanishi lozim.

Reabilitatsiya qilinmaydigan (noreabilitatsiya) asoslar jinoyat ishini tugatishga imkon beradigan faktlar bo'lib, ular shaxsni reabilitatsiya qilish, shaxsga yetkazilgan zararni undirishni istisno qiladi [17, 21-b.].

Ushbu muallifning fikri bilan kelishish mumkin. Chunki jinoyat ishini reabilitatsiya qilinmaydigan (noreabilitatsiya) asoslar bo'yicha tugatishda jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan bo'ladi, biroq yuzaga kelgan obyektiv sabablarga ko'ra ish yuritishni boshlash va davom ettirish imkoniyati mavjud bo'lmaydi.

Shuningdek, jinoyat ishini tugatishda reabilitatsiya asoslaridan farqli ravishda, reabilitatsiya qilinmaydigan asoslarda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi natijasida shaxsga (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi) yetkazilgan zarar (moddiy, mulkiy, ma'naviy va boshqa) qoplab berilmaydi, mehnat qilish, nafaqa olish, uy-joydan foydalanish va boshqa shunga o'xshash huquqlari tiklanmaydi.

Ayrim mualliflar esa jinoyat ishini tugatishning reabilitatsiya qilinmaydigan asoslarini ham alohida turlarga bo'lishni taklif etadi [18, 64–69-b.].

R.X. Yakupov jinoyat ishini tugatishning reabilitatsiya qilinmaydigan asoslarini ikki guruhga ajratishni taklif etgan:

1) jinoiy javobgarlik va jinoiy jazodan so'zsiz ozod qilishni nazarda tutuvchi reabilitatsiya qilinmaydigan asoslar;

2) jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, uni boshqa javobgarlik choralari bilan almashtirishni nazarda tutuvchi asoslar [19, 322-b.].

Fikrimizcha, ushbu muallifning "jinoiy javobgarlik va jinoiy jazodan so'zsiz ozod qilishni nazarda tutuvchi reabilitatsiya qilinmaydigan asoslar" bo'yicha tasnifi bilan to'liq

kelishib bo'lmaydi. Chunki jinoyat ishini tugatish shaxsni javobgarlikdan ozod qilishni o'z ichiga olishi mumkin, biroq jazodan ozod qilishni qamrab olmaydi.

I.P. Dornostup noreabilitatsiya asoslariga amnistiya, jinoiy javobgarlikka tortish muddatining o'tganligi, ayblanuvchining vafoti, ishning voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaga yuborilishini kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi [20, 14-b.]. Biroq ushbu muallifning ham tasnifi tugal emas. Chunki jinoyat ishini reabilitatsiya qilinmaydigan asoslar bo'yicha tugatishning boshqa asoslari (turlari) ham mavjud.

Xulosalar

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat ishini tugatishning ikki xil tartibi mavjud. Bular:

a) reabilitatsiya asoslariga ko'ra jinoyat ishini tugatish asoslari (Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasi);

b) ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish asoslari (Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi).

Qonunchiligimizda reabilitatsiya asoslarining 3 ta, reabilitatsiya qilinmaydigan (noreabilitatsiya) asoslarning 13 ta turi belgilab qo'yilgan.

Bizning fikrimizcha, jinoyat ishini tugatish asoslarini reabilitatsiya va reabilitatsiya qilinmaydigan mezonlar bo'yicha tasniflash jinoyat ishini tugatishning huquqiy oqibatlariga bog'liq.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, reabilitatsiya asoslarida shaxsning jinoyat sodir etishdan oldingi barcha huquqlari to'liq tiklanadi hamda jinoyat sodir etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplab beriladi, reabilitatsiya qilinmaydigan asoslarda esa ushbu huquqlar tiklanmaydi, zarar qoplab berilmaydi. Shu bilan birga, reabilitatsiya asoslari shaxsga oqlov hukmi chiqarishga ham asos bo'ladi.

REFERENCES

1. Volkolup O.V., Chupilkin Yu.B. Garantii prav uchastnikov ugolovnogo sudoproizvodstva Rossiyskoy Federatsii [Guarantees of the rights of participants in criminal proceedings of the Russian Federation]. 2nd ed., rev. and add. Krasnodar, Kuban State University, 2005, p. 142.
2. Mahmudov S. Javobgarlikka tortish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat ishini tugatishning o'ziga xos xususiyatlari [Some issues of dismissal of criminal cases in connection with the expiration of the limitation period for criminal responsibility]. *Lawyer Herald*, 2022, vol. 1, no. 1, pp. 96–102.
3. Vinogradova O.B. Prekrashheniye ugolovnogo dela i ugolovnogo presledovaniya: voprosy teorii i prava [Termination of a criminal case and criminal prosecution: questions of theory and law]. *New legal journal*, 2013, no. 4, pp. 46–53.
4. Davydov P.M., Mirskiy D.Ya. Osnovnyye formy klassifikatsii osnovaniy prekrashheniya ugolovnogo dela [The main forms of classification of grounds for termination of a criminal case]. *Alley of Science*, 2019, no. 4, p. 12.
5. Ryzhakov A.P. Ugolovnyy protsess [Criminal process]. Moscow, 2006, p. 120.
6. Abdurasulova Q.R., Tashpuvatov A.I. Moddiy va protsessual huquqning o'zaro aloqadorligi (jinoyat huquqi va jinoyat-protsessual huquqi misolida) [Interrelation of substantive and procedural law (in the example of criminal law and criminal-procedural law)]. *Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawyer herald*, 2021, no. 6, pp. 43–50.
7. Grinenko A. V. Ugolovnyy protsess [Criminal process]. Moscow, Yurayt, 2012, p. 221.
8. Foyniskiy I.Ya. Kurs ugolovnogo sudoproizvodstva [Course of criminal justice]. Ed. A.V. Smirnov. St. Petersburg, Alfa Publ., 2021, p. 322.
9. Chensov V.V. Prekrashheniye ugolovnogo dela ili ugolovnogo presledovaniya s naznacheniyem sudebnogo shtrafa: teoriya, zakonodatel'stvo, pravoprimeneniye [Termination of a criminal case or criminal prosecution with the appointment of a judicial fine: theory, legislation, law enforcement]. PhD thesis. Moscow, 2018, pp. 112–113.
10. Kalinin V.N., Filipchenkov I.V. Sootnosheniye osnovaniy prekrashheniya ugolovnogo dela i ugolovnogo presledovaniya v UPK RF [Correlation of the grounds for termination of a criminal case and criminal prosecution in the Code of Criminal Procedure of the Russian Federation]. *Sledovatel' – Investigator*, 2005, no. 4 (84), p. 24.
11. Bulatova B.B., Baranova A.M. Ugolovnyy protsess [Criminal process]. Moscow, Vysshee obrazovaniye, 2011, p. 349.
12. Lupinskaya P.A. Ugolovno-protsessualnoye pravo Rossiyskoy Federatsii [Criminal procedure law of the Russian Federation]. Moscow, 2013, p. 480.
13. Ryzhakov A.P. Kommentariy k Ugolovno-protsessual'nomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Commentary on the Code of Criminal Procedure of the Russian Federation]. 7th ed., revised. Moscow, Delo i servis, 2011, p. 228.
14. Chelsov M.A. Ugolovnyy protsess [Criminal process]. Moscow, 2015, p. 437.
15. Lavnov M. Institut prekrashheniya ugolovnogo dela v sisteme ugolovno-protsessual'nogo prava i pravoprimenitel'noy praktike [The institute of termination of a criminal case in the system of criminal procedure law and law enforcement practice]. PhD thesis. Saratov, 2015, pp. 88–90.
16. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar [Comments on the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan]. The team of authors. Ed. G.A. Abdumazhidov. Tashkent, TSIL, 2009, p. 159.
17. Chasovnikova O.G. Prekrashheniye ugolovnogo presledovaniya po nereabilitiruyushhim osnovaniyam [Termination of criminal prosecution on non-rehabilitating grounds]. Abstract of PhD thesis. St. Petersburg, 2013, p. 21.
18. Yakupov R.H. Ugolovnyy protsess [Criminal process]. Moscow, 1998, p. 322.

19. Kalugin A.G. Klassifikatsiya osnovaniy prekrashheniya ugovnogo dela (ugolvnogo presledovaniya) [Classification of the grounds for the termination of a criminal case (criminal prosecution)]. Problems of protecting human rights in Russian legal. Proceedings of the All-Russian Scientific and Practical Conference. 2009, February 6-7. Tyumen, 2009, vol. 1, pp. 64-69.

20. Dornostup P. Nereabilitiruyushhiye osnovaniya prekrashheniya ugovnogo presledovaniya v deyatel'nosti organov predvaritel'nogo rassledovaniya MVD Rossii [Non-rehabilitating grounds for the termination of criminal prosecution in the activities of the bodies of preliminary investigation of the Ministry of Internal Affairs of Russia]. Abstract of PhD thesis. St. Petersburg, 2003, p. 14.

21. Smyr A. Modernizatsiya osnovaniy prekrashheniya ugovnogo dela i ugovnogo presledovaniya v zakonodatel'stve Rossiyskoy Federatsii i Respubliki Abkhaziya [Modernization of the grounds for the termination of a criminal case and criminal prosecution in the legislation of the Russian Federation and the Republic of Abkhazia]. Abstract of PhD thesis. Volgograd, 2019, pp. 80-85.

UDC: 343.8(045)(575.1)

XORIJIY MAMLAKATLAR JINOYAT PROTSESSUAL QONUNCHILIGIDA EHTIYOT CHORASI SIFATIDA UY QAMOG'INING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI

Abdullayev Diyor Ibodillayevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
kadrlar bo'limi bosh mutaxassisi,
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0001-9557-6309
e-mail: dior.5505@mail.ru

Annotatsiya. Mamlakatimizda sud-huquq islohotlarini amalga oshirish jarayonida jinoyat-protsessual qonunchilikni liberallashtirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Aksariyat huquqshunos olimlar tomonidan uy qamog'iga zamonaviy jinoiy siyosat va jinoiy odil sudlovni insonparvarlashtirish vositasi sifatida qaraladi. Milliy qonunchiligimizga ko'ra, uy qamog'i boshqa ehtiyot choralari nisbatan yangi huquqiy institutdir. Shu bois huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan ayrim muammoli holatlarga oqilona yechim topish uchun ushbu ehtiyot chorasini hayotga tatbiq etish bo'yicha katta tajribaga ega xorijiy mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligi va mutaxassis olimlar fikrlarini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganish, ijobiy tajribadan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur maqolada muallif tomonidan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar, AQSh va ayrim Yevropa davlatlari jinoyat-protsessual qonunchilik normalari asosida uy qamog'i ehtiyot chorasining huquqiy tartibga solinishi, xususan, ushbu ehtiyot chorasini qo'llash asoslari va shartlari, shaxsga nisbatan o'rnatiladigan cheklovlar turlari qiyosiy tahlil qilish orqali tadqiq etilgan. Shuningdek, uy qamog'ini qo'llash tartibi bilan bog'liq masalalarning ilmiy-huquqiy jihatlari xorijlik mutaxassislar va huquqshunos olimlar qarashlari orqali ifodalangan va mohiyati ochib berilgan. Maqolaning xulosa qismida uy qamog'i ehtiyot chorasiga oid milliy qonunchilik va uni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: uy qamog'i, jinoyat protsessi, ehtiyot choralari, taqiqlar (cheklovlar).

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ДОМАШНЕГО АРЕСТА КАК МЕРЫ ПРЕСЕЧЕНИЯ В ЗАРУБЕЖНОМ УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНОМ ЗАКОНЕ

Абдуллаев Диёр Ибодиллаевич,
самостоятельный соискатель,
главный специалист отдела кадров
Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. В ходе реализации судебно-правовых реформ в нашей стране одной из приоритетных задач является либерализация и совершенствование уголовно-процессуального законодательства. Большинство ученых-юристов рассматривают домашний арест как инструмент гуманизации современной уголовной политики и уголовного правосудия. Согласно нашему национальному законодательству, домашний арест является новым правовым институтом по сравнению с другими мерами пресечения. В связи с этим для поиска

рационального решения отдельных проблемных ситуаций, возникающих в правоприменительной практике, представляется целесообразным углубленное научно-теоретическое изучение уголовно-процессуального законодательства зарубежных стран, имеющих большой опыт внедрения данной меры пресечения, мнений ученых-специалистов и использование данного положительного опыта. В статье автором исследовано правовое регулирование меры пресечения в виде домашнего ареста на основе норм уголовно-процессуального законодательства государств-участников Содружества Независимых Государств, США и некоторых европейских государств, в частности путем сравнительного анализа оснований и условий применения этой меры пресечения, видов ограничений, налагаемых на лицо. Более того, в данной работе выражены и раскрыты научно-правовые аспекты вопросов, связанных с порядком применения домашнего ареста с точки зрения зарубежных специалистов и ученых-юристов, а также в заключительной части статьи представлены выводы и предложения по совершенствованию национального законодательства и практики применения меры пресечения в виде домашнего ареста.

Ключевые слова: домашний арест, уголовный процесс, меры пресечения, запреты (ограничения).

LEGAL REGULATION OF HOUSE ARREST AS A PRECAUTIONARY MEASURE IN FOREIGN CRIMINAL PROCEDURAL LAWS

Abdullayev Diyor Ibodillayevich,
Tashkent State University of Law,
Chief specialist of HR department,
Independent researcher

Abstract. One of the priorities is the liberalization and improvement of criminal procedural legislation in the process of implementing judicial and legal reforms in our country. House arrest is seen by most legal scholars as a means of humanizing modern criminal politics and criminal justice. According to our national legislation, house arrest is a new legal institution concerning other precautions. Therefore, in order to find a rational solution to some problematic cases arising in the practice of applying the law, it is desirable to use scientific-theoretical in-depth study and positive experience of the views of foreign countries with extensive experience in the implementation of this precautionary measure. In this article, the author examines the legal regulation of the measure of house arrest on the basis of the norms of criminal procedural legislation of the Commonwealth of Independent States, the USA, and some European countries, in particular, the basis and conditions for the application of this measure, the types of restrictions imposed on a person by comparative analysis. Also, the scientific and legal aspects of issues related to the procedure for applying for house arrest are expressed through the views of foreign experts and legal scholars, and the essence is revealed, and in the summary section of the article, conclusions and suggestions on improving the national legislation on the home arrest precaution and the practice of its application are presented.

Keywords: house arrest, criminal procedure, restraints, prohibitions (restrictions).

Kirish

Har qanday mamlakat hayotiga u yoki bu huquqiy institutni tatbiq etish yoki shu sohadagi qonunchilikni takomillashtirish jarayonida tarixiy omillar, o'z davlatining nazariy va amaliy bazasi, chet el davlatlarining huquqiy normalari va tajribasini chuqur o'rganish hamda tahlil qilish "birovlarining xatolari"ni aniqlash va ularning milliy qonun-

chilikda takrorlanishiga yo'l qo'ymaslikka ko'mak beradi. Shu bois yaqin va uzoq chet el davlatlarining jinoyat-protsessual qonunchiligini tahlil qilsak, ularda belgilangan protsessual institutlar va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksida belgilangan institutlar o'rtasida o'zaro o'xshashliklar borligini aytib o'tish mumkin. Shu sababli uy qamog'i huquqiy reglamentatsiyasi va qo'llash

amaliyoti bo'yicha chet el davlatlari tajribasini o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Material va metodlar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda ilmiy bilishning mantiqiy va ilmiy uslublaridan foydalanilgan, xususan, mantiqiy tahlil, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, induksiya, deduksiya, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish kabi uslublar qo'llanilgan. Bundan tashqari, xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

Keyingi yillarda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo ba'zi mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligi ehtiyot choralari tizimiga uy qamog'i kiritildi. Xususan, 2009-yilda qabul qilingan Tojikiston Jinoyat-protsessual kodeksi [1]ning 110-moddasida, 2013-yilda qabul qilingan Ukraina Jinoyat-protsessual kodeksining [2] 181-moddasida uy qamog'i tariqasidagi ehtiyot chorasi o'z aksini topdi. Bu haqdagi tavsiya MDH Parlamentlararo Assambleyasi 1996-yil 17-fevralda tasdiqlagan JPK Modelida [3] aks ettirilgan edi. Uning 175-moddasida uy qamog'i qo'llangan shaxsning zimmasiga: uyidan muttasil yoki muayyan vaqtlarda chiqib ketmaslik; telefonda so'zlashmaslik, aloqa vositalaridan foydalanmaslik, xat-yozishmalar yubormaslik; uyda o'rnatilgan maxsus elektron nazorat vositalarining nazdida bo'lish va ularning soz holda ishlashini ta'minlash; nazorat tartibida telefon orqali chaqirganda, javob berish yoxud muayyan vaqtlarda telefonda o'zi to'g'risida xabar berib turish; ayblanuvchi yoki uning uy-joyini kuzatish, uyi yoxud unga ajratilgan xonani qo'riqlab turish; ayblanuvchining jamiyat bilan aloqasini cheklash yoki uning xulq-atvorini kuzatishga qaratilgan boshqa choralari ko'rish kabi majburiyatlar yuklatilishi nazarda tutilgan [4].

Bugungi kunda aksariyat MDH mamlakatlari jinoyat-protsessual qonunchiligidagi uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi yuqorida-

gi norma mazmuniga juda yaqin bo'lsa-da, ularning o'ziga xos farq qiluvchi jihatlari ham mavjud. Xususan, bularni ushbu ehtiyot chorasini qo'llash tartibida, u bilan bog'liq muddatlar va ularni uzaytirishda, uy qamog'ini qo'llashga sanksiya berishga va-kolatdor mansabdor shaxslar bilan bog'liq o'ziga xosliklarda ko'rishimiz mumkin. Birgina Rossiya davlati jinoyat protsessida uy qamog'i ehtiyot chorasi turli davrlarda turlicha talqin qilingan va qo'llanilgan. P.I. Lyublinskiy uy qamog'i 1632-yilda paydo bo'lganini tasdiqlagan. Misol sifatida esa Shein jinoyat ishi bo'yicha knyaz Beloselskiyga nisbatan qo'llanilgan ehtiyot chorasini keltirgan [5, 6]. Yu.G. Ovchinnikov esa Rossiya davlatining jinoyat protsessida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini tarixiy jihatdan tahlil qilib, uning alohida xususiyatlarini aniqlagan: "...o'sha paytda agarda ayblanuvchi taniqli odamlardan biri bo'lsa, uning orqasidan nazorat qilish maqsadida ikki nafar nazoratchi qo'yilgan, nazorat ostida bo'lganlar o'zlarining yashash joylaridan chetga chiqmasdan yurishgan" [7]. Bu davrdagi uy qamog'ining xususiyatlaridan biri davlat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan huquqbuzarlarga nisbatan ularni uy sharoitida chegaralab, uzluksiz nazorat ostida saqlab turilishi aniqlangan.

Rossiyaning 1832-yilgi qonunlar to'plamida uy qamog'i birinchi bor o'z aksini topgan. Mazkur to'plamning XV jild 876-moddasida belgilangan ehtiyot choralari qatorida uy qamog'i ham ifodalangan [8]. Yuqoridagi ehtiyot choralari turini belgilovchi normada sanab o'tilgan ehtiyot choralari o'sha davr ijtimoiy hayotiga asosan, shaxsning qaysi tabaqaga tegishlilikini inobatga olib qo'llanilgan. Ehtiyot chorasi ayblanuvchining unvon darajasi, jinoyatning og'irligi va dalillarning kuchiga qarab qo'llanilgan. Bundan tashqari, ayblanuvchi yashirinishda gumon qilinsa ham ehtiyot chorasi qo'llanilgan [6]. Shu kabi o'tmishga qaramay, bugungi kunga kelib, Rossiya qonunchiligi ham inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda xalqaro huquq

normalariga moslashtirildi. I.L. Petruhin ta'kidlaganidek, insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish Rossiya JPKning asosiy konseptual g'oyasi bo'lib xizmat qilmoqda [9]. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual Kodeksining 107-moddasida "uy qamog'i gumonlanuvchi, ayblanuvchining erkin harakatlanishi, muayyan shaxslar bilan aloqada bo'lishi, xat-xabar olish va jo'natishi, har qanday aloqa vositalaridan foydalanishi va ular yordamida so'zlashuvlar olib borishini cheklashdir" deyilgan. Uy qamog'i gumonlanuvchi, ayblanuvchining yoshi, sog'lig'i, oilaviy holati va boshqa holatlarini inobatga olgan holda, sud qaroriga muvofiq, Rossiya Federatsiyasi JPKning 108-moddasida ko'rsatilgan asos va tartibda qo'llaniladi [6].

Qozog'iston Respublikasida uy qamog'i shaklidagi ehtiyot chorasi nafaqat Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida (146-modda) [10], balki 2002-yil 20-sentabrdagi № 949-sonli Prezident Farmoyishi bilan ma'qullangan, protsessual jarayonlarni tezlashtirish va soddalashtirish maqsadida protsessual qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan Qozog'iston Respublikasi huquqiy siyosati Konsepsiyasi, shu bilan birga, Hukumatning 2002-yil 30-noyabrdagi № 1274-sonli Qarori bilan tasdiqlangan, ushbu Konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasining 63-bandini bajarish va qamoqqa olishga alternativ bo'lgan ehtiyot choralarini qo'llash mexanizmini tartibga solish maqsadida qabul qilingan uy qamog'ini ehtiyot chorasi sifatida qo'llash bo'yicha yo'riqnomada ham belgilangan.

Aytib o'tilgan hujjatlarga ko'ra, Qozog'iston Respublikasi jinoyat protsessida uy qamog'i – bu prokuror yoki sudya ruxsati bilan, gumonlanuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llashga asos yetarli bo'lganda, lekin shaxsning to'liq izolyatsiyasi yetarli asoslanmagan yoki maqbul emas deb topilganda, shaxsni tabiiy huquqlarini maksimal darajada amalga oshirish mumkin bo'lgan jamiyatdan ajratil-

gan sharoitda ushlab turishdir. Uy qamog'i ayblanuvchi (gumonlanuvchi) surishtiruv, tergov yoki sud ishlaridan qochishi, ish tergov qilinishi yoki sudda ko'rib chiqilishining obyektivligiga xalaqit berishi yoxud jinoyiy faoliyatni davom ettirishiga yetarli asos bo'lganda, shuningdek, hukm ijro etilishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Bunda chin ko'ngildan pushaymonlik, ijobiy tavsifnoma, sudlanmaganlik, qarilik yoki voyaga yetmaganlik (yoshi), sog'liq holati, oilaviy ahvoli, yosh bolalari borligi, faoliyat turi, moddiy ahvoli, doimiy yashash joyi borligi va boshqa sharoitlar inobatga olinadi. Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga asosan, ayrim hollarda uy qamog'i gumon qilinuvchiga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Lekin bunda ehtiyot chorasi qo'llanilgandan so'ng 10 kun ichida ayblov qo'yilishi zarur, yo'qsa bu ehtiyot chorasi o'sha zahoti o'z kuchini yo'qotadi.

Ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i belgilangan taqdirda, bu haqda qaror chiqariladi va u jinoyat ishini olib borayotgan organda ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini tayinlashni hisobga olish jurnalida ro'yxatdan o'tkaziladi. Qaror nusxasi ayblanuvchi yoki gumonlanuvchiga qaror ustidan shikoyat qilish tartibi tushuntirilgan holda beriladi. Zaruriyat tug'ilganda, jinoyat protsessini olib borayotgan organ tomonidan uy qamog'ida ushlab turish joyi sifatida shifoxona, klinika, pansionat, hovli va boshqa joylar yoki ijara olingan xonalar belgilanishi mumkin. Yashash joyi deganda, ayblanuvchi, gumonlanuvchining vaqtincha yoki doimiy o'zi yoki oilasi bilan yashaydigan xonadon, uy, xona, kayuta, kema (suzish vaqtida) hisoblanadi. Ayblanuvchi yoki gumonlanuvchiga jinoyat bo'yicha ish olib borilayotgan paytda qarindoshlari yoki boshqa shaxslar tomonidan yashash joyi berilishi mumkin, faqat bunda ularning va shu uyda yashaydigan boshqa voyaga yetgan shaxslarning yozma roziligi zarur. Uy qamog'i davrida gumonlanuvchi yoki ayblanuvchining doimiy yashash joyi

bo'lmagan joyda ijara shartnomasi tuzilgan taqdirda, ijaraga beruvchi shaxs ijara maqsadidan xabardor bo'lishi shart, bunda subijaraga yo'l qo'yilmaydi.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga asosan, uy qamog'idagi shaxsga nisbatan quyidagi cheklovlar o'rnatilishi mumkin: ma'lum shaxslar bilan muloqot qilish; xat yuborish va olish; har qanday aloqa vositasi yordamida muzokara olib borish; ma'lum vaqt mobaynida yashash joyidan chiqmaslik.

Jinoiy ishni sudgacha ko'rib chiqish vaqtida o'rnatilgan cheklovlar jinoiy ishni olib borayotgan organning prokuror tomonidan ma'qullangan asoslangan qarori asosida quyidagi hollarda qisman yoki to'la ravishda olib tashlanishi mumkin: ish yoki o'qish joyi, poliklinika yoki dorixona, birinchi zaruriyat mollari va oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish uchun bozorga chiqish; yaqin qarindoshlarinikiga qisqa muddatga, ularning hayotiga xavf soluvchi og'ir kasallik yoki o'lim munosabati bilan; o'zi va yaqin qarindoshlari sog'ligiga oid yozishmalar; statsionar muloqot nuqtalarida xalqaro suhbat olib borish – agar bu suhbat mazmuni faqat shaxsiy masala yoki yaqinlar sog'ligiga bog'liq bo'lsa.

Uy qamog'i shaklidagi ehtiyot chorasini jinoiy ishni olib borayotgan organning prokuror tomonidan ma'qullangan asoslangan qarori asosida bekor qilinishi (agar unga hojat qolmagan taqdirda) yoki o'zgartirilishi (qattiqroq (qamoq) yoki yengilrog'iga) mumkin. Shu bilan birga, qonun tomonidan prokurorning ehtiyot chorasini qo'llashdagi huquqi cheklanmagan. Demak, Qozog'iston Respublikasida prokuratura organlari ehtiyot chorasini qo'llashda deyarli sudga teng vakolatga ega. Shu o'rinda Y.G. Ovchinnikov, Y.V. Saltikov, I.L. Trunov va L.K. Trunovalarning fikrini aytib o'tish joizki, unga ko'ra, prokuror "arbitrlik funksiyasi"ga ega bo'lib, u tomonlar fikrlarini eshitgandan so'ng qaror qabul qiladi [11].

Qozog'iston Respublikasida uy qamog'idagi shaxsga qo'yiladigan cheklovlar

va nazorat qilish qoidalari ijrosi yuzasidan nazorat xuddi bizdagi kabi surishtiruv organiga yuklatilgan. Cheklovlar doimiy ravishda (ikki va undan ko'p) buzilgan holda, uni qamoqqa olish tariqasidagi ehtiyot chorasiga almashtirish mumkin. Bunday buzilishlar hujjatlar bilan (nazoratchilar bildirgilari, guvohlar ko'rsatmalari) asoslangan bo'lishi lozim. Gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi ustidan nazorat olib boradigan mansabdor shaxslar uning o'zini tutishi va cheklovlarga amal qilishini tekshirish maqsadida kunning har qaysi paytida uning yashash joyiga kelishlari mumkin. Nazoratni yetarli darajada olib bormagani uchun ular qonunda belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

Uy qamog'ini ehtiyot chorasini sifatida qo'llash bo'yicha mansabdor shaxslar harakatlari ustidan shikoyat qilish tartibi Qozog'iston Respublikasi JPKning 110-moddasida, shuningdek, Konstitutsiyaning 4-moddasi 1-qismiga binoan majburiy bo'lgan va amaldagi qonunchilik sirasiga kiradigan Qozog'iston Respublikasi Oliy sudining 2003-yil 20-martdagi № 1-sonli "Prokurorning gumonlanuvchini qamoqqa olish, uy qamog'iga olish va ularning muddatlarini cho'zish yuzasidan roziligi ustidan sud tartibida shikoyat qilish" to'g'risidagi normativ Qarorida belgilangan. Prokuror sanksiyasi ustidan shikoyat qilish va u tomonidan qabul qilingan qaror qonuniyligi va asoslanganligini tekshirish tartibidan tashqari, Qozog'iston Respublikasi Oliy sudining 2003-yil 20-martdagi № 1-sonli "Prokurorning gumonlanuvchini qamoqqa olish, uy qamog'iga olish va ularning muddatlarini cho'zish yuzasidan roziligi ustidan sud tartibida shikoyat qilish" to'g'risidagi normativ Qarorida uy qamog'i faqat qonun bo'yicha ikki yildan ko'p ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyat yoki qonun bo'yicha uch yildan ko'p ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki

ayblanayotgan shaxsga nisbatan qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Uy qamog'i ayb qo'yilayotgan moddada sanksiya sifatida ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek, 14-18 yoshdagi shaxs og'irlik darajasi yuqori bo'lmagan jinoyat yoki 14-16 yoshdagi shaxs o'rtacha og'irlikdagi jinoyatni birinchi marta sodir etganda qo'llanilmaydi. Uy qamog'ini qo'llash muddatlari va uni cho'zish tartibini belgilashda qamoqqa olish ehtiyot chorasi bilan bog'liq tartib-qoidalar qiyos qilib olingan va bu to'g'ridan-to'g'ri Qozog'iston Respublikasi JPK 149-moddasida ko'rsatilgan. Aytib o'tish joizki, JPKda ham, Yo'riqnomada ham uy qamog'ini qo'llash muddatlari va uni cho'zish tartibi xuddi Rossiya Federatsiyasi JPKdagi kabi alohida tartibga solinmagan. Lekin Qozog'iston qonunchiligida uy qamog'ini tartibga soluvchi idoralararo normativ hujjat borligi ahamiyatga molik.

Belarus Respublikasi qonunchiligida uy qamog'i ehtiyot chorasi JPKning 125-moddasida o'z aksini topgan. Unga ko'ra, uy qamog'i bu gumonlanuvchi yoki ayblanuvchini jamiyatdan ajratgan holda, lekin qamoqqa olmasdan, prokuror yoki uning o'rinbosari tomonidan belgilangan cheklovlarni qo'llagan holda amalga oshiriladi. Yana shuni ko'rish mumkinki, ushbu moddada keltirilgan qoidalar MDH davlatlari uchun – model JPKning 175-moddasida keltirilgan qoidalarga juda o'xshash, faqat yagona katta farq – bu ehtiyot chorasini qo'llashga sanksiya berish vakolatiga ega subyekt, ya'ni Belarus Respublikasida bu prokuror, MDH model JPKsida esa – sud [6]. Shaxsga nisbatan uy qamog'i qo'llanilgan taqdirda, unga quyidagi cheklovlar alohida yoki asosli majmua sifatida qo'llanilishi mumkin: yashash joyidan umuman yoki ma'lum vaqtlarda chiqmaslik; telefon so'zlashuvlar, yozishmalar va boshqa aloqa vositalaridan foydalanishga taqiq; ma'lum shaxslar bilan muloqot qilish, ularni yashash joyida qabul qilishga cheklov; elektron nazorat vositalaridan foydalanish

va ular faoliyatini ta'munlash majburiyati; nazorat telefon qo'ng'iroqlari yoki boshqa signallarga javob berish, gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi xatti-xarakatlarini nazorat qiladigan surishtiruv yoki boshqa organga shaxsan kelishi; gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki uning yashash joyi ustidan nazorat o'rnatish; gumonlanuvchi, ayblanuvchining jamiyatdan izolyatsiyasi va maqbul xatti-xarakatlarini ta'minlovchi boshqa choralar.

Shuni hisobga olish kerakki, Rossiya JPKsidan farqli o'laroq, Belarus Respublikasi JPKsida o'rnatiladigan cheklovlar doirasida "boshqa choralar" degan ta'rif bilan kengaytiriladi va boshqa cheklovlar qo'yish tashabbusi beriladi. Bunday chora, bizning fikrimizcha, ancha munozarali, chunki uy qamog'i shaxsning konstitutsion huquqlarini cheklashini inobatga olsak, bunday cheklovlar doirasining aniq belgilanishi nafaqat qonun amaliyoti birligi, balki gumonlanuvchi, ayblanuvchining huquqlariga rioya qilinishi ustidan nazorat qilishni osonlashtiradi. Xuddi Rossiya va Qozog'iston JPKdagidek, gumonlanuvchi, ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasi faqat ma'lum hollarda qo'llaniladi va bunda ehtiyot chorasi qo'llanilgan yoki ushlangandan keyin 10 kun ichida ayblov qo'yilmasa, ehtiyot chorasi bekor qilinadi.

Shunday qilib, Qozog'iston Respublikasi JPK kabi, Belarus Respublikasi JPK uy qamog'iga sanksiya berish huquqini prokurorga bergan. Buni, bizning fikrimizcha, ijobiy huquqiy yechim deb bo'lmaydi, chunki uning "yengilligi"ga qaramasdan, ma'lum konstitutsion huquqlar cheklanishini nazarda tutadi va bunday qarorni qabul qilishga faqat sud qarori asos bo'la olishi lozim. Qozog'iston va Belarus Respublikalari JPKda uy qamog'ini qo'llash haqidagi qaror ustidan nazorat surishtiruv organiga yuklatilgan bo'lsa, Rossiya JPKsida uy qamog'ini qo'llash to'g'risidagi sud qarorida uning nazorati qaysi organ yoki mansabdor shaxsga yuklatilishi belgilanishi zarur deyilgan, lekin nazorat organi qaysi ekanligi aniq ko'rsatilmagan. Bu holatni

S.V. Aleksandrovich Rossiya Federatsiyasi JPKdagi kamchilik sifatida e'tirof etadi [6].

Uy qamog'i shaklidagi ehtiyot chorasi Gruziya JPK 166-moddasida [12] o'z aksini topgan. Unga ko'ra, uy qamog'i qonunchilik bo'yicha ikki yil va undan ko'proq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan jinoyatlarda, voyaga yetmaganlar uchun esa uch yil va undan ko'proq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan jinoyatlarda qo'llaniladi. Bunda shaxsning to'la izolyatsiyasiga hojat yo'qligi talab etiladi va u yashash joyini tark etish taqiqlanishida o'z aksini topadi. Ushbu ehtiyot chorasini qo'llashda sog'lik holati (og'ir bemorlar, nogironlar, 12 haftalikdan oshgan homiladorlar), jinoyat turi, sudlanganlik va boshqa holatlar inobatga olinadi. Uy qamog'i sud qarori bilan nafaqat huquqiy cheklovlar, balki uning muddatini ham ko'rsatgan holda qo'llaniladi. Ishni ko'rib chiqish vaqtida uy qamog'i muddati uch oyni tashkil etadi va 9 oygacha cho'zilishi mumkin. Ushbu muddat o'tgandan so'ng ehtiyot chorasini o'zgartirish yoki bekor qilish talab etiladi.

Ozarbayjon Respublikasi JPKga [13] muvofiq, uy qamog'i – bu ayblanuvchiga sud qarori bilan belgilangan, ozodligi va bir qancha huquqlariga cheklovlar qo'yish hamda bunda uni qamoqqa olmaslik va jamiyatdan to'la izolyatsiya qilmaslikdir. Uy qamog'i qamoqqa olish ehtiyot chorasiga alternativ bo'lib, faqat qamoqqa olishga sud qarori chiqqandan so'ng qo'llanilishi mumkin. Uy qamog'ini qo'llash to'g'risidagi sud qarori faqat himoya tarafidan berilgan arizaga asosan qamoqqa olishni o'rniga qo'llanilishi mumkin. Shunga e'tibor qaratish kerakki, uy qamog'i faqat himoya tarafi arizasiga binoan qo'llanilishi mumkin va bu qonunan belgilab qo'yilgan. Bizningcha, ushbu norma taraflar tengligi prinsipiga zid. Bundan tashqari, uy qamog'i faqat qamoqqa olish o'rniga qo'llanilishi uning mustaqilligini yo'qotadi.

Yuqorida nomlari keltirilgan davlatlardan tashqari jinoyat-protsessual ehtiyot chora-

si sifatida uy qamog'i Moldova Respublikasi JPK (188-moddasi), Qirg'iziston Respublikasi JPKda (109-moddasi) ham ifodalangan bo'lib, ular ham boshqa MDH mamlakatlari jinoyat-protsessual qonunchiligiga deyarli o'xshashdir. Biroq uy qamog'i MDH davlatlarining hammasida ham mavjud emas, masalan, Armaniston JPKda bunday ehtiyot chorasi nazarda tutilmagan. Muhimi, asta-sekin qolgan davlatlar ham ushbu ehtiyot chorasini protsessual qonunchiligiga kiritmoqda.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlardan tashqari uy qamog'i dunyo bo'yicha qirqdan ortiq mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida mavjud bo'lib, ushbu davlatlarning huquqiy tizimlarida uy qamog'ining huquqiy tartibga solinishi va qo'llash amaliyotiga nazar solish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Tadqiqot natijalari tahlili

Birinchi navbatda, shuni aytib o'tish lozimki, uy qamog'i ayrim davlatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Shvetsiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Braziliya va h.k.) ko'proq ehtiyot chorasi sifatida emas, balki jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan sud tomonidan tayinlanadigan jinoiy jazolarning bir turi sifatida qo'llaniladi.

Masalan, AQShda uy qamog'i ham, ehtiyot chorasi ham jazo sifatida qo'llanilishi mumkin, chunki har bir shtat hududida o'z huquqiy tizimi mavjud bo'lib, faqat ayrim hollardagina federal qonun-qoidalar kuchga ega bo'ladi. AQShda protsessual majburlov choralari shaxsning konstitutsion huquqlarini sezilarli cheklagani tufayli sudning ruxsati bilan qo'llaniladi. AQSh Konstitutsiyasiga kiritilgan 4-o'zgartirishga ko'ra, sud qasam yoki tantanali va'da bilan tasdiqlangan yetarli asoslarsiz qamoqqa olishga order bermaydi. Bunday order qamoqqa olinadigan shaxsning tavsifini aks ettirmog'i lozim [14].

AQShda qamoqqa olish boshqa choralarga qaraganda, shu jumladan, uy qamog'iga nis-

batan ham ko'proq qo'llaniladi. Og'ir jinoyatlar sodir etgan yoki qayta sodir etgan hamda jamiyat, ayniqsa, oilasiga xavf tug'diradigan jinoyatchilarga nisbatan uy qamog'i qo'llanilmaydi. Shaxsning xavflilik darajasi politsiya tomonidan shaxsni o'rganish natijasida aniqlanadi. Jinoyat sodir etganlikda gumon qilinuvchini qamoqqa olish yoxud uyida qamoqda saqlab turish uchun politsiya zaruriy faktik ma'lumotlarni yig'ib turib, sudga iltimos bilan murojaat qiladi va ushbu shaxsni qamoqqa olishga ruxsat beradigan qaror chiqarish to'g'risida ish qo'zg'atadi. Bu umumiy qoida bo'lib, AQSh Konstitutsiyasiga kiritilgan 4-o'zgartirish, shtat konstitutsiyalari va boshqa qonunlarda ham federal, ham shtat darajasida belgilangan. Biroq jinoyat protsessidagi boshqa qoidalar kabi bu qoidani ham istisno qiladigan holatlar mavjud. Misol sifatida kichiktirib bo'lmaydigan holatlarda qamoq sud qarorisiz ham amalga oshirilishi mumkin. Bu usulda olingan politsiya ixtiyoridagi faktik ma'lumotlar, odatda, protsessual majburlov choralari qo'llashga asos bo'lishi mumkin. Bunday ma'lumotlardan, birinchi galda, majburlov choralari konstitutsiyaviy huquqlarni cheklash bilan bog'liq bo'lgan tur-larini qo'llashda zarurligini ta'kidlash joiz. Lekin qamoqning qonuniyligini tekshirish uchun qamoqqa olingan shaxsni "imkon qadar tez-roq" sudga topshirish kerak. Sud qarori bilan yoki qarorisiz qamoq qo'llanilayotgan-da, politsiya qonunlar va boshqa qonunosti aktlarda belgilangan qoidalarga amal qilishi shart [14].

Amaliyotda bunday shaklda amalga oshiriladigan qamoqqa olishlar odat tusiga kirib qolgan. Bunga AQSh Qonunlari majmuasining "Jinoyatlar va jinoyat protsessi" nomli bo'limi ruxsat beradi. "Shaxsni qamash uchun sudga taqdim qilinadigan ma'lumotda bayon etilgan faktlar va holatlar, – deyiladi AQSh Oliy sudi 1878-yilda Steysi ishi bo'yicha chiqar-gan qarorida, – har qanday farosatli va eh-tiyotkor odamni ishontiradigan darajada bo'lishi shart [6]". Uy qamog'i haqida shaxs-

ning roziligi yozma ravishda olinadi. Uni qo'llash to'g'risidagi qarorga yashash joyi va telefoni borligi, qamoqqa olingan shaxs oila a'zolarining tushunishi va uy qamog'i us-tidan nazorat olib boruvchi organlar bilan hamkorlik qilishi ta'sir o'tkazadi. Uy qamog'i faqat sud qarori asosida qo'llaniladi va unga binoan aybdor shaxs doim o'z uyida bo'lishi lozim. Istisno tariqasida, shaxs aniq belgilan-gan ommaviy ishlarga chiqishi yoki maxsus dasturlarga borishi mumkin. Dam olish kun-lari va kechki soatlarda esa uy-joydan chiqish mutlaqo taqiqlanadi, agar bu shifokor qabu-li yoki sud tomonidan belgilangan ish bilan bog'liq bo'lmasa. Ushbu ehtiyot chorasi ish ko'rilishining turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin, hatto muddatidan oldin ozod etish-da ham [14].

Uy qamog'ida bo'lgan shaxsning o'rnatil-gan taqiqlarga rioya qilishi ustidan nazorat-ni amalga oshirish uchun AQShda elektron nazorat (qo'l va oyoq tasmalari), nazorat markazi kompyuteriga ulangan elektron signalizatsiya keng tarqalgan. Elektron nazoratdan tashqari, politsiya ofitserlari uy qamog'iga olingan shaxslar ustidan kutilma-gan qo'ng'iroq, tashrif yoki patrul yordamida nazorat olib borishga haqlidir.

AQShda bo'lgani singari Yevropaning ko'pgina davlatlarida ham uy qamog'i, av-valo, jinoiy jazo turi hisoblanadi. Misol uchun, Shvetsiyada uy qamog'i 3 oydan ko'p bo'lmagan qamoq jazosi nazarda tutilgan ji-noyatlarni sodir etgan deb topilgan shaxs-larga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu shaxslar ovozli identifikatsiya orqali nazorat qilinadi, ya'ni qamoqqa olingan shaxs uyida istalgan vaqtda telefon jiringlaydi va unga javob be-rişda shaxs ma'lum kodni aytadi va u yor-damida kompyuter uning shaxsini aniqlay-di. Bundan tashqari, aybdor shaxs to'pig'ida maxsus qurilma mahkamlanib, u har bir aybdor yo'nalishi kiritilgan kompyuterga radiosignallar yuborib turadi. Agar o'rnatil-gan tartib buzilsa, signalizatsiya ishga tu-shadi. Shvetsiyada bunday amaliyot ijobiy

natijalar keltirayotgani statistik ma'lumotlar bilan isbotlanadi. Masalan, uy qamog'i jazosidan so'ng 13 % shaxslar qayta jinoyat sodir etadi, qamoqdan so'ng esa bu ko'rsatkich 24 %ni tashkil etadi. Bunday nazorat tizimi Isroilda ham yo'lga qo'yilgan, ya'ni jazoni o'tayotgan shaxslarga uydan uzoqlashganda, politsiyaga signal yuboradigan bilaguzuklar taqiladi [14].

Avstraliyada esa uy qamog'ining ozodlikdan mahrum qilish joylariga nisbatan iqtisodiy foydasi va uni qo'llash istiqbollari ta'kidlab o'tishdi.

Fransiyada Napoleon 1804-yilda imzolagan va 1970-yil 17-iyul, 1984-yil 9-iyul va 1989-yil 6-iyulda bir qator o'zgarishlar kiritilgan Jinoyat-protsessual kodeksiga binoan, ayblanuvchi tergovni to'g'ri o'tkazish manfaatlari va jamiyat xavfsizligi nuqtayi nazaridan yo sudgacha nazorat ostiga olinishi, yoxud dastlabki qamoqda saqlanishi mumkin (137-modda). Fransiya JPK III bobining VII bo'limi "Sud nazorati va dastlabki qamoq" deb nomlanishi amalda faqat ikki turdagi majburlov chorasi qo'llanilishini ko'rsatadi.

Fransiya JPKda «ehtiyot choralari» atamasi umuman ishlatilmagan [15]. Biroq mazmun-mohiyati va qo'llanilish maqsadi hamda asoslariga ko'ra, ular bizning jinoyat-protsessual ehtiyot choralari aynan mos tushadi. Ma'lum bo'ldiki, Fransiyada ham uy qamog'i tariqasidagi jinoyat-protsessual ehtiyot chorasi mavjud emas. Lekin yuqorida aytib o'tilgan fransuz sudyalari tomonidan qo'llaniladigan sudgacha nazorat ehtiyot chorasi uy qamog'i juda yaqin bo'lganligi bois ushbu ehtiyot qisqacha chorasiga to'xtalmoqchimiz. Sudgacha nazorat ostiga olish dastlabki qamoq chorasining muqobili sifatida 1970-yilda qabul qilingan bo'lib, hozir Fransiyada asosiy ehtiyot chorasi hisoblanadi va bu chora qamoqqa olishlarning umumiy hajmi kamayishiga olib keldi [15].

Sud nazorati chorasini qo'llash to'g'risidagi qaror dastlabki tergovning har qan-

day bosqichida qabul qilinishi mumkin (139-moddaning birinchi qismi). Masalani hal qilish chog'ida sud, asosan, jinoyatning mohiyati va xavflilik darajasini hisobga oladi. Sud nazorati kompleks majburlov chorasi hisoblanib, 16 ta turli cheklashlardan iborat. Sudgacha nazorat axloq tuzatish turmasiga qamash nazarda tutilgan jiddiy jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsga magistrat sudi tomonidan tayinlanadi va uning zimmasiga bir qator majburiyatlar yuklanadi, chunonchi: magistrat belgilagan hududdan tashqariga chiqmaslik; magistrat ijozat bergan hollardan boshqa sabablar bilan o'zining doimiy istiqomat joyidan ketib qolmaslik; magistrat taqiq etgan joylarga bormaslik yoki faqat u ruxsat bergan joylarga borish; magistrat belgilagan joylarda muttasil ro'y-xatdan o'tib turish; barcha turdagi yoxud ba'zi transport vositalarini haydamaslik; ba'zi shaxslar bilan muloqotda bo'lmaslik; ekspertiza, davolash yoki shifoxonada bo'lish kabi choralarga bo'ysunish; muayyan kasb bilan shug'ullanmaslik; qurol olib yurmaslik, uni topshirish; oilasi yoki boshqa shaxslarga muttasil moddiy yordam berish, belgilangan to'lovlarni o'z vaqtida bajarish va boshqalar (JPKning 138-moddasi). Mazkur talablarni bajarmaslik sudgacha dastlabki qamoq chorasi qo'llanishiga sabab bo'ladi (JPKning 144-moddasi).

Shaxs og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarida ayblanayotgan va unga boshqa majburlov chorasi qo'llanishi maqsadga muvofiq emasligi aniq bo'lgan holdagina qamoqqa olinadi. Shunga qaramay, aksariyat Yevropa mamlakatlariga qaraganda Fransiyada qamoq chorasi ko'proq qo'llaniladi. Avvallari ishni mazmunan ko'rib, hukm chiqaradigan sudya ayblanayotgan shaxsni qamashga vakolatli edi. Fransuz sudyalaridan biri J.M. Lamber o'z kitobida shunday yozgandi: «Asoslanmagan qamoqqa olishlarni omma-viy tanqid qilayotganlar haq, bu haqiqat, bizdagi barcha yuridik tizimni tubdan isloh qilishga tayyorgarlik ko'rishdan boshqa

chora yo'q» [16]. JPKga 2000-yil 15-iyunda kiritilgan o'zgarishlarga binoan, bu vakolat xolislikni ta'minlash maqsadida yangi ta'sis etilgan erkinlik va vasiylik sudyalari-ga berildi [17]. Ular yuqoriroq darajadagi sudyalar hisoblanadi (JPKning 137¹-moddasi).

Qamoqqa olish yoki uning muddatini uzaytirish haqidagi qaror ustidan apellatsiya sudiga shikoyat keltirilishi mumkin. Shikoyat (apellatsiya) tegishli qaror qabul qilingan kunning ertasidan kechiktirilmay berilishi kerak. Umumiy qoidaga ko'ra, apellatsiya berilishi vaqtincha qamoqqa olish haqidagi qarorning ijrosini to'xtatib turmaydi, ya'ni shaxs bu masala ko'rib chiqilgunga qadar qamoqda saqlanadi. 1993-yil 24-avgustdagi qonun bilan fransuz jinoyat protsessiga yangi «refere-liberte» institutining kiritilishi qamoqda saqlash muddatlarining kamayishiga olib keldi. "Uning mazmuni – taxminan "shaxs ozodligi haqida masalani kechiktirmasdan ko'rib chiqish", – deydi professor G. To'laganova o'z tadqiqotlarida [4].

Fransuz jinoyat-protsessual qonunchiligidagi yana bir o'ziga xos jihat shundan iboratki, 2000-yil 15-iyunda qabul qilingan qonunga ko'ra, apellatsiya berayotgan shaxs tergov kamerasing o'zidan yuqoridagi singari masalani zudlik bilan kollegial tarzda ko'rib chiqilishini talab qilishga haqli.

Fransiyada qamoq muddati bir yildan oshmasligi lozim. Lekin asoslar yetarli bo'lsa, erkinlik va vasiylik sudyasi uni yana olti oyga uzaytirishi mumkin. Faqat favqulodda hollarda bir necha og'ir jinoyatda: giyohvand modda tarqatish, terrorizm, uyushgan jinoyatlar-da ayblanayotganlar to'rt yilgacha qamoqda saqlanishi mumkin (JPKning 145²-moddasi) [18].

Italiya jinoyat-protsessual va jinoyat qonunchiligida ham xuddi AQShda bo'lgani kabi uy qamog'i ham ehtiyot chorasi, ham jinoyat uchun tayinlanadigan jazo turi sifatida xizmat qilmoqda. Xususan, Italiya

qonunchiligiga ko'ra, yetmish yoshdan oshgan sudlanuvchilar qamoq jazosini uy qamog'i yoki jamoat ishlarida ishlash bilan almashtirishlari mumkin. 1988-yilda qabul qilingan Italiya JPKga muvofiq, protsessual majburlov choralari "dastlabki tergov bo'yicha sudya" tomonidan qo'llaniladi. Sudgacha ayblanuvchini qamoqda (JPK 255-moddasi) yoxud uy qamog'ida (JPK 284-moddasi) saqlash sodir etilgani uchun qonun bo'yicha uch yildan ortiq muddatga turma qamog'i nazarda tutilgan va aybi yetarli dalillar bilan tasdiqlangan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Shuningdek, shaxs tergovdan bosh tortmoqchi, dalillarni yo'qotmoqchi, yana jinoyat qilmoqchi ekani to'g'risidagi ma'lumotlarning bo'lishi shaxsni uy qamog'iga joylashtirishga sanksiya berilishiga olib kelishi mumkin.

Germaniyada Jinoyat-protsessual kodeksi Napoleon kodeksiga o'xshash bo'lib, 1877-yilda qabul qilingan va 1987-yil 7-aprelda bir qator o'zgartishlar bilan yangi tahrirda tasdiqlangan. Unda ehtiyot choralarini qo'llash tartibi batafsil bayon etilib, «...shaxsni qamash sudning ruxsati bilan ko'riladigan favqulodda chora» [19] ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Latviya, Litva, Estoniya, Moldova davlatlarida uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi faqat sud tomonidan qo'llanilmoqda [6].

Shotlandiya, Shveysariya kabi Yevropa davlatlari jinoyat-protsessual va jinoyat qonunchiligida uy qamog'i tarzidagi protsessual ehtiyot chorasi nazarda tutilmagan bo'lib, ularda ham eng jiddiy va asosiy protsessual majburlov chorasi qamoq hisoblanadi. Yevropa mamlakatlaridan tashqari boshqa davlatlarda ham uy qamog'i mavjud bo'lib, u, asosan, jinoiy jazo turi hisoblanadi. Jumladan, Yaponiya jinoyat qonunchiligiga ko'ra, mahkum 1 kundan 30 kungacha uy qamog'ida saqlanishi mumkin. Shu bilan birga, chet ellarda uy qamog'ini faqat jazo sifatida ishlatishadi, desak xato bo'ladi. Bu chora jinoiy ishning sudgacha bo'lgan

qismida ehtiyot chorasi sifatida ham keng qo'llaniladi.

Xulosalar

Amalga oshirilgan tadqiqotga tayanib, quyidagi xulosalar va ular asosida takliflar berishimiz mumkin.

Fikrimizcha, uy qamog'i shaklidagi ehtiyot chorasi deganda, sud ajrimi asosida gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan tayinlanadigan, shaxsni yashash uchun yaroqli bo'lgan turar-joyda qisman jamiyatdan ajratib, unga nisbatan qonunda belgilangan cheklovlarni o'rnatishni o'z ichiga olgan ehtiyot chorasi tushuniladi. Demak, bunda shaxsni jamiyatdan to'la ajratish imkoni mavjud bo'lmay, u Konstitutsiyamizga muvofiq, jamiyatning asosiy bo'g'ini sanalmish oilada qoldirilgan holda, muayyan huquq va erkinliklarini amalga oshirishdan mahrum bo'ladi. Shunga ko'ra, JPK 242¹-moddasi 1-qismidagi shaxsni jamiyatdan "to'la" ajratish jumlasini chiqarish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Uy qamog'i tushunchasi va mazmun-mohiyati shundan dalolat beradiki, u shaxs erkinligini uning tabiiy huquqlari va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirgan holda, cheklovchi ehtiyot chorasidir.

Uy qamog'ini qo'llash asoslari nafaqat qonunda belgilangan, balki buning uchun ma'lum shart-sharoitlar bo'lishi zarur. Ushbu shartlar va qonuniy asoslar birgalikda jinoyat protsessi qatnashchilari huquqlari buzilishining oldini olish va ushbu ehtiyot chorasini istiqbolli amalga kiritishga xizmat qiladi.

Uy qamog'ini qo'llash *asoslari* sifatida tergov materiallarida dalillar bilan tasdiqlangan ma'lumotlar hisoblanib, ular ayblanuvchi yoki gumonlanuvchini tergov yoki suddan yashirinishi, jinoyat faoliyatni davom ettirishi, jinoyat protsessi qatnashchilariga bosim o'tkazishi, dalillarni o'zgartirishi yoki yo'q qilishi, hukm ijrosiga to'sqinlik qilishi mumkinligiga oid o'z tasdig'ini topgan ma'lumotlar bo'lishi mumkin.

Uy qamog'i shaklidagi ehtiyot chorasini qo'llash *shartlari* – bu aynan mazkur ehtiyot chorasini qo'llashga yo'l ochib beradigan va uning qonuniyligini ta'minlaydigan jinoiy-huquqiy va faktik shart-sharoitlardir. Uy qamog'i shaklidagi ehtiyot chorasini qo'llash shartlari umumiy va maxsus shartlarga bo'linadi. *Umumiy shartlar* – bu jinoiy-protsessual qonunchilikda belgilangan shartlar bo'lib, ushbu ehtiyot chorasini qo'llashga asos bo'la oladi. Ular quyidagilardan iborat: amaldagi jinoiy ish borligi; tergovni olib borish va ehtiyot chorasini belgilash huquqiga ega subyekt borligi; tergov obyekti – gumonlanuvchi, ayblanuvchi borligi; tergov materiallarida uy qamog'i shaklidagi ehtiyot chorasini qo'llash uchun yetarli asos borligi.

Maxsus shartlar – bu faktik, ya'ni amaldagi shartlar bo'lib, ular tanlovning qonuniyligi va uning keyingi ijrosini ta'minlaydi: jinoiy-huquqiy – jinoyat kategoriyasi; kriminologik-huquqiy – gumonlanuvchi, ayblanuvchi shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar (yoshi, sog'lig'i holati, oilaviy ahvoli, sudlanganligi, mehnat faoliyati, yashash, ish yoki o'qish joyidan tavsifnomalar va sh.k.); gumonlanuvchi, ayblanuvchining yashash joyi mavjudligi va uning maqomi; cheklovlar o'rnatish mumkinligi.

Ba'zi davlatlar JPKda yuqoridagi kabi faktik (maxsus) shartlarning ayrimlari, xususan, shaxsning keksaligi, nogironligi, homiladorligi, yosh bolasi borligi, voyaga yetmaganligi uchun qamoqqa olishga asoslar mavjud bo'lsa-da, uy qamog'ini qo'llash shartligi belgilangan. Masalan, Moldoviyada 60 yoshdan oshgan, birinchi guruh nogironi, homilador yoki 8 yoshgacha bolasi bor ayollarga qamoqqa olishning muqobili tariqasida uy qamog'i qo'llaniladi. Fikrimizcha, bu holatda yuqoridagi singari ayblanuvchining shaxsiy sifatleri ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini qo'llash asosi hisoblanadi va bu protsessual qonunchilikning yanada insonparvarlashishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi JPKda yuqoridagi holatlar kabi sifatlarga ega shaxslar uchun ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini qo'llash shartligi belgilansa, aniqrog'i, sog'lig'i holati, oilaviy ahvoli va boshqa holatlardan qat'i nazar, ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i qo'llanilishi lozim bo'lgan shaxslar doirasini kiritish lozim. Jumladan, I guruh nogironlari, 70 yoshdan oshgan keksalar, homilador yoxud 1 yoshgacha bolasi bor bo'lgan ayollar, 14 yoshga to'lmagan bolalar shunday shaxslar doirasiga kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ma'lum bo'ldiki, uy qamog'i bizning qonunchiligimiz tomonidan yaratilgan yangilik emas va chet elda ancha keng qo'llanish amaliyotiga ega. Uy qamog'i ehtiyot chorasi yaxshi istiqbolga ega va u tomonidan o'rnatiladigan cheklovlar ehtiyot choralari oldida turgan vazifalarni to'laqonli bajara oladi. Chet el jinoyat-protsessual qonunchiligining uy qamog'ini qo'llash asoslari, tartibi, muddatini cho'zish, bekor qilish va bajarilishi ustidan nazorat qilishga doir ayrim jihatlarini bizning qonunchiligimizda ham qo'llasa bo'ladi. Uy qamog'ini jinoiy-huquqiy jazo instituti sifatida qo'llash chet el amaliyotini milliy qonunchiligimizda ham tajribaga kiritish istiqbolari mavjud.

Yuqorida amalga oshirgan tadqiqotimiz va uning natijalariga muvofiq ega bo'lgan ilmiy-nazariy xulosalarimizga asoslangan holda, milliy qonunchiligimizga kiritish maqsadga muvofiq deb bilgan quyidagi takliflarni ilgari surmoqchimiz:

Birinchidan, JPK 242¹-moddani quyidagicha uchinchi qism bilan to'ldirish: "Uy qamog'i I guruh nogironlari, 70 yoshdan oshgan keksalar, homilador yoxud 1 yoshgacha farzandi bor ayollar, 14 yoshga to'lmagan bolalarga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud bo'lganda qo'llanishi lozim".

Ikkinchidan, ma'lum bo'ldiki, ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i jinoiy protsessual majburlovning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, jinoiy javobgarlikka jalb etilgan, ba'zan esa jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarga nisbatan odil sudlov faoliyatini ta'minlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. U majburlov xarakteriga ega bo'lib, amalda uning har qanday cheklovi fuqaro shaxsiy konstitutsiyaviy erkinligining (iroda erkinligi, harakat qilish, daxlsizlik va h.k.) cheklanishiga sabab bo'ladi. Shu sababdan aksariyat MDH (Ukraina, Belarus, Qozog'iston, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya) davlatlarida prokurorning uy qamog'ini qo'llash haqidagi qarori ustidan sudga shikoyat bilan murojaat qilish tartibi belgilangan. Garchi bizda prokurorlarga uy qamog'ini bevosita o'zi qo'llash vakolati berilmagan bo'lsa-da, ushbu ehtiyot chorasining yuqoridagi xususiyatlarini inobatga olgan holda, protsess ishtirokchilarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida prokuror yoki tergovchilarning ushbu ehtiyot chorasini qo'llash bilan bog'liq masalalarni hal etishi yuzasidan sudga shikoyat qilish tartibi joriy qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shundan kelib chiqqan holda, JPK 243-moddasi 4-qismi quyidagicha to'ldirilishini taklif qilamiz: "Prokurorning qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnoma asosligini tekshirishi natijalaridan taraflar norozi bo'lsa, uning harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish mumkin".

Yuqoridagi xulosa va takliflar milliy va xorijiy qonunchilik, protsessualist olimlar fikrlari hamda bevosita amaliyotni o'rganish asnosida tavsiya etilayotgan bo'lib, ular ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini qo'llash tartibi va ijrosini nazorat qilishni takomillashtirishga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

REFERENCES

1. Criminal Procedure Code of the Republic of Tajikistan. Available at: <https://ncz.tj/content/ugolovno-prosessualnyy-kodeks-respubliki-tadjikistan/>.
2. Criminal Procedure Code of Ukraine. Available at: www.Kalinovsky-k.narod.ru/zakon/.
3. Model'nyy Ugolovno-protsessual'nyy kodeks dlya gosudarstv – uchastnikov SNG [Model Code of Criminal Procedure for the CIS Member States]. *Information Bulletin of the Interparliamentary Assembly of the CIS*, 1996, no. 10.
4. To'laganova G.Z. Jinoyat protsessida protsessual majburlov va uning o'ziga xos xususiyatlari [Procedural coercion in criminal proceedings and its characteristics]. PhD thesis. Tashkent, 2009, p. 178.
5. Lyublinskiy P.I. Svoboda lichnosti v ugolovnom protsesse [Freedom of the individual in the criminal process]. St. Petersburg, 1906, p. 235.
6. Aleksandrovich S.V. Domashniy arest kak mera presecheniya v ugolovnom protsesse Rossiyskoy Federatsii [House arrest as a measure of restraint in the criminal process of the Russian Federation]. PhD thesis. Kaliningrad, 2009, p. 22.
7. Ovchinnikov Y.G. Domashniy arest kak mera presecheniya v ugolovnom proizvodstve [House arrest as a measure of restraint in criminal proceedings]. PhD thesis. Omsk, 2006, p. 35.
8. Rossiyskoe zakonodatel'stvo X-XX vekov [Russian Legislation of the X-XX centuries]. Judicial reform. Moscow, Yuridicheskaya literatura, 1991, vol. 8, p. 307.
9. Petrukhin I.L. Neprikosновенност' lichnosti i prinuzhdenie v ugolovnom protsesse [Inviolability of the person and coercion in criminal proceedings]. Moscow, Nauka, 1998, p. 147.
10. Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi [Criminal Procedure Code of the Republic of Kazakhstan]. Almata, Yurist, 2005, p. 217. Available at: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000231/>.
11. Trunov I.L., Trunova J.K. Mery presecheniya v ugolovnom protsesse [Measures of restraint in criminal proceedings]. St. Petersburg, Yuridicheskij sentr Press Publ., 2003, pp. 151, 153.
12. Criminal Procedure Code of the Republic of Georgia. Available at: http://www.base.spinform.ru/show_doc.fwx?regnom/.
13. Criminal Procedure Code of the Republic of Azerbaijan. Available at: www.km.undp.sk/.
14. Qo'shayev N.M., AQSh jinoyat protsessi [US criminal procedure]. Tashkent, TSIL, 2010, pp. 41–42.
15. Golovko L.V. Doznanie i predvaritel'noe sledstvie v ugolovnom protsesse Fransii [Inquiry and preliminary investigation in the criminal process of Francia]. Moscow, Spark, 1995, pp. 90–94.
16. Lamber J.M. Malen'kiy sudya [Little Judge]. Moscow, Yuridicheskaya literatura Publ., 1990, p. 198.
17. Ismoilov O. Fransiyada dastlabki tergov [Preliminary investigation in France]. 2005, no. 5, p. 32.
18. Filimonov B.A. Sushhnost' i kharakter zaklyucheniya pod strazhu v ugolovnom protsesse FRG [The essence and nature of detention in the criminal process of Germany]. *Vestnik Moscow University*, 1982, Ser. 2. Law, 1982, no. 4, pp. 16–17.
19. To'laganova G.Z. Uy qamog'ini ehtiyot va jazo choralari sifatida qo'llash bo'yicha xorij tajribasi [Foreign experience in the use of house arrest as preventive and punitive measures]. Tashkent, TSUL, 2015, p. 17.

UDC: 343.268.3(045)(575.1)

TIBBIY YO'SINDAGI MAJBURLOV CHORALARI QO'LLANILAYOTGAN SHAXSNING PROTSESSUAL MAQOMINI TAKOMILLASHTIRISH

Sayfullayev Bahodir Bahromovich,

IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi, leytenant

ORCID: 0000-0002-0108-7860

e-mail: bahodirsayfullayev0001@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada aqli noraso yoki ruhiyati vaqtinchalik buzilgan shaxslar tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganda yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgandan so'ng ruhiyati vaqtinchalik buzilgan shaxslarning surishtiruv hamda dastlabki tergov jarayonida protsessual maqomi bilan bog'liq qonun va amaliyotda vujudga kelayotgan muammolar o'rganilgan. Mamlakatimizda shaxsning huquq va erkinlari, uning jamiyatdagi munosib o'rnini ta'minlashga qaratilgan islohotlarga qaramasdan, jinoyat-protsessual huquqda shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashda, uning protsessual maqomi aniq qilib ko'rsatilmaganligi bilan asoslanadi. Hattoki O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ham, yuridik adabiyotlarda ham tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilayotgan shaxsning maqomi tarqoq bo'lib, turli normalarga ega. Shu sababdan ham tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilayotgan shaxsning maqomini yaqqol ko'rsatib, uning huquq va majburiyatlarini aniq belgilagan holda, mamlakatimiz qonunlarida mustahkamlash lozim. Mazkur muammoga huquqiy tomondan to'g'ri va aniq barham berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'rsatilgan hamda xalqaro talablarga zid bo'lmagan ravishda aqli noraso shaxsning tergov jarayonidagi huquqiy maqomini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif ushbu muammoning huquqiy yechimini topishda asosiy yo'nalish qonunlarda tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilayotgan shaxsga nisbatan uning protsessual maqomi, huquq va majburiyatlari aniq qilib belgilab o'tilishi lozim, degan pozitsiyasini ilgari suradi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy xavfli qilmish, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari, aqli norasolik, ruhiy holatning buzilishi, protsessual maqom, huquq va majburiyatlar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОГО СТАТУСА ЛИЦ, В ОТНОШЕНИИ КОТОРЫХ ПРИМЕНЯЮТСЯ ПРИНУДИТЕЛЬНЫЕ МЕРЫ МЕДИЦИНСКОГО ХАРАКТЕРА

Сайфуллаев Баходир Бахромович,

лейтенант, самостоятельный соискатель

Академии МВД Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье исследуются проблемы, возникающие в законодательстве и на практике, связанные с процессуальным положением лиц с умственной отсталостью или временным расстройством психики при совершении или после совершения общественно опасного деяния в ходе производства дознания и предварительного следствия. В нашей стране, несмотря на реформы, направленные на обеспечение прав и свобод человека и его законного места в обществе, в уголовно-процессуальном законодательстве применение к лицу принудительных мер медицинского характера, а также его процессуальный статус четко не определены. Даже в Уголовно-процессуальном кодексе Республики Узбекистан и юридической

литературе статус лица, в отношении которого применяются принудительные меры медицинского характера, разрознены, и содержатся различные нормы. По этой причине в нашей стране необходимо усиление законодательства, четко регламентирующего статус лица, к которому применяются принудительные меры медицинского характера, и определяющего его права и обязанности. Для правильного и четкого решения данной проблемы с правовой стороны важно обеспечить правовой статус умственно отсталого лица в процессе следствия, который указан в законах Республики Узбекистан и не противоречит международным требованиям. Автор выдвигает положение о том, что основным направлением в поиске правового решения данной проблемы является четкое определение в законах процессуального статуса, прав и обязанностей лица, к которому применяются принудительные меры медицинского характера.

Ключевые слова: общественно опасное деяние, принудительные меры медицинского характера, умственная отсталость, психическое расстройство, процессуальный статус, права и обязанности.

IMPROVING THE PROCEDURAL STATUS OF PERSON WHOM APPLIED COERCIVE MEDICAL MEASURES

Sayfullayev Bahodir Bakhromovich,

Independent researcher of the Academy
of the Ministry of Internal Affairs, lieutenant

Abstract. This article examines the legal and practical problems related to the procedural status of persons with temporary mental disorders during the investigation and preliminary interrogation of socially dangerous acts committed by mentally ill or temporarily mentally ill persons or after the commitment of socially dangerous acts. Despite the reforms in our country aimed at ensuring the rights and freedoms of individuals, and their worthy place in society, the application of coercive measures against a person in criminal procedural law is based on the fact that their procedural status is not clearly defined. Even in the Criminal Procedural Code of the Republic of Uzbekistan and in the legal literature, the status of a person subject to coercive medical measures is fragmented and differentiated by various norms. For this reason, coercive medical measures should be enshrined in the laws of our country, clearly indicating the status of the person to whom the coercive medical measures are applied, and clearly defining his rights and obligations. In order to eliminate this problem legally and clearly, it is important to ensure the legal status of a mentally ill person in the investigation process, as provided by the laws of the Republic of Uzbekistan and it should not contradict international requirements. The author argues that the main direction in finding a legal solution to this problem is that the law should clearly define the procedural status, rights, and obligations of a person to whom coercive medical measures are applied.

Keywords: socially dangerous act, coercive medical measures, mental retardation, mental disorder, procedural status, rights and obligations.

Kirish

Jinoyat-protsessual maqom o'z ichiga huquqlar, burchlar, shaxsiy erkinliklar va qonuniy manfaatlar kafolatlarini qamrab oladi. Bir nechta mualliflar individual protsessual maqomni ajratib ko'rsatganda, ular umumiy maqomning sanab o'tilgan elementlari bilan bir qatorda, jarayonning aniq ishtirokchisi paydo bo'lishi, uning yuridik

shaxs ekanligi, o'ziga xos huquqlari, majburiyatlari va kafolatlari paydo bo'lgan payt tushunchasi va asosini ham o'z ichiga olishini ta'kidlaydilar [1].

Jinoyat sodir etgandan keyin ruhiy kasallikka chalingan yoki jinoyat sodir etgan yoki jazoni qo'llashning iloji bo'lmagan shaxs jinoyat qonunida taqiqlangan qilmishni aybsiz sodir etganligi aniqlanganda, bu toifadagi

shaxslar gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi deb atalishi, shuningdek, tegishli maqomga ega bo'lishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan, jinoyat-protsessual munosabatlarning har bir ishtirokchisi so'zsiz o'z huquq va majburiyatlariga ega bo'lishi lozim. Shu jumladan, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilayotgan shaxsni gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining huquqlari bilan cheklash maqsadga muvofiq emas.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida aqli noraso yoki ruhiyati vaqtinchalik buzilgan shaxslar tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganda yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganidan so'ng ruhiyati vaqtinchalik buzilgan shaxslarning surishtiruv hamda dastlabki tergov jarayonida protsessual maqomi bilan bog'liq qonun va amaliyotda vujudga kelayotgan muammolar taqqoslov metodi bilan o'rganildi.

Tadqiqot natijasi

Ko'p yillar davomida ushbu soha yo'nalishida tadqiqot olib borgan olimlar orasida ushbu turdagi shaxslarning huquqlari va ularning shaxsan o'zlari jinoyat protsessida ishtirok etishlari bo'yicha ilmiy tortishuvlar yuzaga kelgan. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilayotgan shaxsning huquqlari o'rtasida bo'layotgan tortishuvlarda xalqaro huquqiy jihatlarga to'xtalib o'tmaslikning iloji yo'q edi. Eng avvalo, 1971-yil 20-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Aqli zaif shaxslarning huquqlari to'g'risi"dagi deklaratsiyaga tayanish lozim [2]. Unda yozilishicha: a) aqli zaif shaxslar boshqa odamlar kabi maksimal darajada bir xil huquqlarga ega; b) shaxs har qanday ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilsa, uning aqliy darajasini to'liq hisobga olgan holda, qonuniylikni tegishli tarzda amalga oshirish huquqiga ega bo'lishi kerak; d) aqli zaif shaxsning shaxsiy farovonligi va manfaatlarini himoya qilish zarur bo'lganda, ushbu

shaxslar malakali vasiylik xizmatlaridan foydalanish huquqiga to'liq ega [3].

Jinoyat-protsessual qonuni mukammallikdan yiroq bo'lib, faqat jinoyat protsessi ma'lum bir ishtirokchilarining ta'rifi va protsessual maqomiga oid tarqoq normalarni o'z ichiga oladi. Keltirib o'tilgan shaxsning ta'rifi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining jinoyat protsessi ishtirokchilariga bag'ishlangan 2-bo'limi, aqli noraso shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxslarni e'tibordan chetda qoldirgan. Kodeksning asosiy qoidalarda ushbu toifadagi shaxslarning aniq ta'rifi yetishmasligi sababli keyingi normalarda ushbu jinoyat protsessi ishtirokchisining quyidagi turli nomlarini topishimiz mumkin: «aqli noraso holatda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs» (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 567-, 576-moddalari); "Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari bo'yicha ish yurituvchi qo'llanilayotgan shaxs" (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksining 173-moddasi 1-qismi 4-bandi, 179-moddasi 2-qismi, 578- va 579-moddalari); "aqli noraso deb topilgan shaxs" (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksining 269-moddasi).

Ko'plab yuridik adabiyotlarda ham tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilayotgan shaxsga nisbatan turli xil atamalar qo'llaniladi: "aqli noraso shaxs", "ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxs", "tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash masalasi ko'rib chiqilayotgan shaxs", "tibbiy yo'sindagi majburlov choralari muhtoj shaxs", "tibbiy yo'sindagi majburlov choralari amalga oshirilayotgan shaxs", "tibbiy yo'sindagi majburlov choralari bo'yicha ish yurituvchi olib borilayotgan shaxs" va boshqalar.

Bizning fikrimizcha, oxirgi qo'llanilgan ibora eng katta ustunlikka ega, chunki u tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxsning protsessual maqomining o'ziga xos xususiyatlari

ni aks ettirgan va bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksi 61-bobining sarlavhasi – "Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish yurituvchi" nomiga ham zid emas.

Huquqiy adabiyotlarda jinoyat protsessi ko'rib chiqilayotgan ishtirokchisining jinoyat-protsessual maqomi muammosi haqida turlicha qarashlar mavjud. M.S. Strogovichning fikricha, ularga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxslarga protsessual huquqlar berilishi mumkin emas [4]. Biroq P.A. Kolmakov, bizning fikrimizcha, to'g'riroq pozitsiyani tanlagan, ya'ni "hech qanday bir holatda tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilmayotgan shaxs hamda gumonlanuvchi va ayblanuvchilarning huquqiy maqomlari o'rtasida tenglik belgisi qo'yib bo'lmaydi" [5]. B.B. Bulatov ham P.A. Kolmakovning fikriga qo'shilgan holda, "tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilayotgan shaxs jinoyat protsessining mustaqil, o'z manfaatini himoya qiluvchi subyekti va ushbu subyekti o'z huquq va majburiyatlariga ega" bo'lishini ta'kidlaydi [6], ammo amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda ularga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxslar nazarda tutilmagan. Bu holat ruhiy kasallikka chalingan shaxslarning barcha fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlardan foydalanishi va shaxsning o'zi, boshqalarning salomatligi va xavfsizligini himoya qilish yoki jamoat xavfsizligi, tartib, sog'liq yoki axloqni himoya qilish va qonun doirasida ularni cheklash zarur bo'lgan taqdirda, xalqaro huquq normalari nuqtayi nazaridan bahslidek ko'rinadi. Buni psixiatriya sohasidagi ichki qonunchilik fonida ham kuzatish mumkin: ruhiy kasalliklarga chalingan shaxslar hamda ularning boshqa toifadagi fuqarolar bilan teng huquqliligi, huquq va erkinliklarini cheklashga yo'l qo'yilmasligini e'lon qilganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-mayda qabul qilingan

"Psixiatriya yordami to'g'risida"gi O'RB-690-sonli Qonunining 8-moddasi bunga yaqqol misoldir.

Shaxsning huquqiy maqomga ega bo'lishi unga ma'lum sharoitlarda tegishli subyektiv huquqlarga ega bo'lish, ularni shaxsan amalga oshirish, shuningdek, o'z majburiyatlarini bajarish va qonuniy javobgarlikni o'z bo'yniga olish kabi protsessual subyekti huquqini beradi. Ayrim mualliflarning fikricha, protsessual huquqiy subyekti qonunda belgilangan tartib va vakolatli organ tomonidan jinoyat protsessi ishtirokchisi sifatida e'tirof etilgan hamda qabul qilingan yoki harakatga kelgan paytdan boshlanadi.

E.V. Mishenko o'z asarlarida "muayyan belgilangan huquqlar bilan ta'minlanmagan shaxsning huquqiy maqomi (qonun normalarida belgilangan shakllar bilan) amalga oshirilishi rasmiy xarakterda e'lon qilinadi" deb ko'rsatib o'tgan. "Muomalaga layoqatsiz shaxslar muayyan huquqiy munosabatlarning qonuniy ishtirokchilari boshqa subyektlar bilan munosabatlari hisoblanmaydi, chunki ular o'zlari va boshqalarning harakatlari hamda ularning oqibatlarini tushunmaydi va to'g'ri baholay olmaydi" [7].

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan inson va fuqaro huquqlari hamda erkinliklarini jinoyat ishini yuritishda shaxsning u yoki bu jinoyat protsessining ishtirokchisi sifatida rasman tan olinishi bilan emas, balki tegishli huquqlarni ta'minlashga muhtoj bo'lgan shaxsning haqiqiy holatini tavsiflovchi ba'zi muhim belgilar mavjudligi bilan shartlanishi lozim.

Shu o'rinda jinoyat protsessining ko'plab ishtirokchilari vakolatli organ yoki mansabdor shaxs tomonidan tegishli huquqni muhofaza qilish hujjati chiqarilganidan qat'i nazar, muayyan sharoitlarda o'z maqomi va tegishli huquqlarini qo'lga kiritadilar: jabrlanuvchi – unga nisbatan sodir etilgan jinoyat tufayli jismoniy, mulkiy va ma'naviy zarar yetkazilgan paytdan boshlab (O'zbekiston Respublikasi

Jinoyat-protsessual Kodeksining 54-moddasi), gumonlanuvchi – shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida e'tirof etish to'g'risidagi surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror qaror chiqargan paytdan boshlab (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksi 48-moddasi), guvoh – jinoyat ishi uchun muhim bo'lgan holatlar to'g'risida bilganida va guvohlik berishga chaqirilganda (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksining 65-moddasi).

S.V. Guseva ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan paytdagi yoki sodir etilganidan keyin shaxsning ruhiy holatiga shubha tug'ilganda, sud-psixiatriya ekspertizasi natijalarini kutmasdan, tergovchining majburiy tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha ish qo'zg'atish to'g'risidagi qaror chiqarishi shartligini yozadi [8]. Ushbu pozitsiyaga V.Sh. Gasanova ham qo'shiladi [9].

E.Z. Troshkin va A.S. Zaxarov tegishli "vaqtinchalik" hujjatni "tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxs sifatida tan olish to'g'risida qaror" deb nomlashni taklif qildi [10]. Shu bilan birga, A.S. Zaxarovning fikriga ko'ra, jinoyat protsessi yangi ishtirokchisining paydo bo'lishi masalasi faqat "tergovchi sud-psixiatriya ekspertizasi xulosasi hamda ushbu jinoyat ishida to'plangan boshqa barcha dalillar olgandan va uni ichki ishonchiga ko'ra baholaganidan keyin hal qilinishi mumkin" [11].

Tergov va boshqa protsessual harakatlarda ishtirok etish masalasi ular ishtirokida olingan dalillarni keyinchalik baholash bilan chambarchas bog'liq. Jinoyat-protsessual qonun tomonidan ushbu toifadagi jinoyat protsessi ishtirokchilari ko'rsatmalarining dalil sifatida tasniflanmagani (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasi), bizning fikrimizcha, mutlaqo to'g'ri emas. Shuni yodda tutish lozimki, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan va ijtimoiy xavfli qilmish paytida psixotik darajadagi vaqtinchalik ruhiy buzilishdan aziyat chekkanligi

sababli aqli noraso deb e'lon qilingan, lekin keyinchalik ahvoli yaxshilangan shaxslar psixotik darajadagi surunkali ruhiy kasalliklarga chalingan shaxslar toifasiga kiradi, bu esa jinoyat qonun bilan taqiqlangan harakatlarni sodir etish va jinoyat ishini yuritish jaryonida ularning aqli norasoligini aniqlaydi.

Aqli noraso deb topilgan shaxslarning guvohliklaridan foydalanish imkoniyati, birinchi navbatda, ruhiy buzilish va uning aqliy faoliyatiga qanday ta'sir qilishi bilan bog'liq. Masalan, shizofreniya bilan og'rikan bemorlarning aqliy faoliyati patologiyasi ma'lum obyektlar va hodisalarga boshqacha rejalashtirilgan ko'p o'lchovli yondashuvdan iborat bo'lib, bunda obyektlarning ham haqiqiy, ham amalda muhim, ham tasodifiy yoki ahamiyatsiz xossalari va xususiyatlari bir xil darajada moslashtiriladi va foydalaniladi. Bunday qonunbuzarliklarni aqliy faoliyatning operativ tomoni xavfsizligi va bilimlar zaxirasi, shuningdek, hukmlarning rasman mantiqiy to'g'riligi bilan birlashtirish mumkin [12].

Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, ko'plab mualliflar ruhiy kasalliklarga chalingan shaxslarni tekshirishni tavsiya etadilar. V.Sh. Gasanova o'z tadqiqotlarida alohida tergov harakati – ruhiy buzilish holatidan aziyat chekayotgan shaxslarning ruhiy holatini tekshirishni taklif qiladi [13] va ayni paytda M.Sh. Bufetova [14] ham yuqoridagi fikrga qo'shiladi. P.A. Kolmakov tergov harakatini "sud-psixiatriya ekspertizasi" deb atash mumkin deb hisoblaydi va uning tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin uni iloji boricha tezroq o'tkazish zarurligiga e'tiborini qaratadi [15]. L.G. Tatyana so'zlariga ko'ra, mavjud ruhiy anomaliyalar o'rnini bosadigan, ruhiy buzilish bilan og'rikan shaxs ishtirokida barcha tergov harakatlarni o'tkazish uchun mutaxassis jalb qilish va majburiy ishtirok etish zarur [16].

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 142-moddasi doirasida ruhiy buzilish bilan

og'rigan odamni tekshirish mutlaqo maqsadga muvofiq emas. Birinchidan, qonunga muvofiq, agar sud ekspertizasi talab qilinmasa, inson tanasidagi maxsus belgilar, jinoyat izlari, tan jarohati, mastlik holati yoki jinoyat ishi uchun muhim bo'lgan boshqa xususiyatlar va belgilarni aniqlash uchun tekshiruv o'tkaziladi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksining 173-moddasida, agar gumon qilinayotgan shaxsning ruhiy holatini aniqlash zarur bo'lsa, jinoiy ish qo'zg'atilganda, uning aqli rasoligi yoki o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qilish qobiliyatiga shubha tug'lsa, sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlash va o'tkazish zarurligi belgilab qo'yilgan. Ikkinchidan, agar tergov harakatlarning ro'yxati ruhiy holatni tekshirish bilan to'ldirilgan bo'lsa ham, uni amalda samarali amalga oshirishning iloji bo'lmaydi. Insonning ruhiy holatini aniqlash juda murakkab jarayon bo'lib, ruhshunos tergovchi tomonidan berilgan savollarga javob bera olmaydi, chunki shaxsning ruhiy holatini aniqlash ancha uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi, shuningdek, ba'zida odamning xulq-atvorini o'rganishni emas, balki uzoq muddatli klinik kuzatuv va laboratoriya tadqiqotlari natijasidagi tibbiy yozuvlarni ham talab qiladi. Sud-psixiatriya ekspertizasini o'tkazmasdan tekshirish o'tkazish yo'li bilan odamning ruhiy holatini aniqlash ham imkonsiz.

Jinoyat qonuni bilan taqiqlangan qilmish sodir etilgan paytda aqli noraso deb topilgan shaxslarning ko'rsatmalaridan isbotlash jarayonida foydalanish mumkin. Biroq ma'lumotnomalar, sud-psixiatriya ekspertizasi xulosasi, tergov vaqtida ruhiy salomatlik holati hisobga olingan holda, ularning ko'rsatmalari faqat individual bo'lishi lozim. Ular faqat boshqa dalillar bilan birgalikda foydalanilishi mumkin. Agar ekspert xulosasi ushbu shaxslardan olingan ko'rsatmalarni foydalanishga yaroqsiz deb ko'rsatsa, undan isbotlash jarayonida foydalanish mumkin emas.

Tadqiqot natijalar va tahlili

Yuqorida keltirib o'tilganlarni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksining "Jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar. Himoyachilar va vakillar" deb nomlangan 5-bobini quyidagi yangi 46¹-modda bilan to'ldirishni taklif etamiz: "Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxs to'g'risida".

1. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxs – jinoyat qonunida taqiqlangan qilmishni aqli noraso holatda sodir etgan yoki jazo tayinlash yoki uning ijrosini imkonsiz qiluvchi ruhiy kasallikka jinoyat sodir etganidan keyin chalingan shaxsdir. O'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxsni tan olish to'g'risidagi qaror tergovchining qarori bilan rasmiylashtiriladi.

2. Ruhiy holatini hisobga olgan holda, tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash bo'yicha ish yuritilayotgan shaxs quyidagi huquqlarga ega:

1) sud jarayoni olib borilayotgan ijtimoiy xavfli qilmish haqida bilishi;

2) jinoyat ishini tugatish yoki to'xtatib qo'yish va tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha ish qo'zg'atish to'g'risidagi qarorning nusxasi, shaxsni tan olish to'g'risidagi qarorning nusxasi, sud majburiy chorani qo'llash to'g'risida qaror qabul qilgunga qadar uni ruhiy kasalliklar shifoxonasiga joylashtirish to'g'risidagi qarorning nusxasi, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash maqsadida jinoyat ishini sudga yuborish to'g'risidagi qarorning nusxasini olish;

3) berilgan qaror, shuningdek, uning mohiyatiga e'tiroz bildirish, sodir etilgan harakat to'g'risida guvohlik berish yoki guvohlik berishdan bosh tortish. Agar shaxs guvohlik berishga rozi bo'lsa, ko'rsatmasi jinoyat ishi da dalil sifatida ishlatilishi mumkinligi, shu jumladan, u keyinchalik ushbu ko'rsatmalar-

dan bosh tortgan taqdirda, ushbu Kodeksning 95¹-moddasi birinchi qismining 3-bandida nazarda tutilgan hol bundan mustasnoligi to'g'risida ogohlantirilishi shart;

4) dalillarni taqdim etish;

5) ariza va e'tirozlar bildirish;

6) o'z ona tilida yoki o'zi so'zlashadigan tilda guvohlik berish va tushuntirish;

7) tarjimon, himoyachi, shuningdek, qonuniy vakil yordamidan bepul foydalanish;

8) himoyachi bilan shaxsiy va maxfiy tarzda, ularning soni va davomiyligini cheklama-gan holda uchrashuvlar o'tkazish;

9) tergovchining ruxsati bilan uning iltimosiga binoan yoki uning himoyachisi yoki qonuniy vakilining iltimosiga binoan o'tkaziladigan tergov harakatlarida ishtirok etish, shuningdek, ushbu harakatlarning bayonnomalari bilan tanishish va ularga sharhlar berish;

10) sud ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qaror bilan tanishish, ekspertga savollar berish va ekspert xulosasi bilan tanishish;

11) dastlabki tergov jarayoni oxirida jinoyat ishining barcha materiallari bilan tanishish va jinoiy ishdan olingan istalgan hajmdagi ma'lumotlarni yozib olish;

12) jinoyat ishi materiallarining nusxalarini texnik vositalar yordamida olish;

13) surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari (harakatsizligi) va qaror-

lari ustidan shikoyat qilish hamda ularni sud-da ko'rib chiqishda ishtirok etish;

14) ushbu Kodeksning 83- va 84-moddalarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha jinoyat ishi tugatilishiga e'tiroz bildirish;

15) sud majlisi bayonnomasi bilan tanishish va unga sharhlar berish;

16) sud ajrimi, qarori ustidan shikoyat qilish va shikoyat qilingan qarorlarning nusxalarini olish;

17) jinoyat ishi qo'zg'atilgan shikoyat va arizalarning nusxalarini olish hamda ushbu shikoyat va arizalariga e'tiroz bildirish;

18) tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini bekor qilish, o'zgartirish va uzaytirish bilan bog'liq masalalarning sud tomonidan ko'rib chiqilishida ishtirok etish;

19) berilgan huquq va erkinliklarni ta'minlash uchun ushbu Kodeksda taqiqlanmagan boshqa vositalar va usullardan foydalanish.

Xulosalar

Shu bilan birga, shuni esda tutish lozimki, ruhiy kasalliklarga chalingan shaxslarning holati har doim ham o'z huquq va majburiyatlarini to'liq bajarishga imkon bermaydi. Shubhasiz, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash bo'yicha har bir holatda, protsessual salohiyat doirasi shaxsning ruhiy buzilishining chuqurligi va uning ish yuritish paytidagi holatini hisobga olgan holda, individual, obyektiv ravishda belgilanishi lozim.

REFERENCES

1. Sukhoverova E.V. A preliminary investigation of cases of the application of compulsory medical measures. Moscow, 2013, p. 39.

2. Declaration on the rights of mentally retarded persons: adopted by a resolution of 2856 (XXVI) General Assalm dated December 20, 1971. Available at: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declaards/retarded.shtml/.

3. Levchenko O.V., Mishchenko E.V. Problems of the legal status of a person in respect of whom the production is carried out on the application of compulsory measures of a medical nature. Available at: <https://cybereninka.ru/article/n/problemy-pravovogo-statusa-litsa-otnoshenii-kotorogowayetsya-proizvodvo-o-prinuditsinhinh-mer-Meditskogolnyh-rmeditskogolnyh-rmeditskogolnyh-Meditskogolnyh/>.

4. Strogovich M.S. The course of the Soviet criminal process Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/protsessualno-pravovovovo-status-nevmeemyh-lits/viewer/>.
5. Kolmakov P.A. The legal status of a person in need of the use of forced measures of a medical nature Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/protsessualno-pravovovovo-status-nevmeemyh-lits/Viewer/>.
6. Bulatov B.B. Ensuring the rights of the person in respect of whom pre-trial proceedings are carried out on the application of compulsory medical measures. Available at: https://www.elibary.ru/download/elibary_22625149_84036538.pdf/.
7. Mishchenko E.V. Criminal Procedure Guarantees for the legal status of an individual. *Vestnik OSU – Bulletin of the Orenburg State University*, 2010, March, no. 3. Available at: https://www.elibary.ru/download/elibary_14805329_4186444.pdf/.
8. Guseva S.V. Decree. Available at: <https://helpiks.org/2-14392.html/>.
9. Gasanova V.Sh. Production on the use of forced measures of a medical nature. PhD thesis. Nizhny Novgorod, 2006, p. 69.
10. Troshkin E.Z., Zakharov A.S. The question of the legal personality of the person in respect of whom the production is carried out on the application of compulsory medical measures. *Black in Russian legislation*, 2008, no. 2, p. 219.
11. Troshkin Ye.Z., Zakharov A.S. Dosudebnoye proizvodstvo po ugovolnym delam ob obshchestvenno opasnykh deyaniyakh nevmenyayemykh lits [Pre-trial proceedings in criminal cases on socially dangerous acts of insane persons]. Moscow, Yuniti-Dana: Zakon i pravo, 2010, 239 p., p. 33.
12. Sokolova E.T., Nikolaeva V.V. Features of personality in borderline disorders and somatic diseases. Available at: https://lib.uni-dubna.ru/search/files/psy_socolova/~psy_socolova.htm/.
13. Gasanova V.Sh. Production on the use of forced measures of a medical nature. Abstract of PhD thesis. Available at: <http://www.unn.ru/pages/disser/117.pdf/>.
14. Bufetova M.Sh. Production on the use of forced measures of a medical nature. Abstract of PhD thesis. Available at: <https://lawbook.online/kniga-rossii-protsess-ugolovnyiy/proizvodstvo-primeneni-prinuditelnyih-mer422.html>.
15. Kolmakov P.A. About some problematic situations of legal regulation of compulsory medical measures. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/on/o-nekotoryh-problemnyh-situatsiyah-pravovogo-prinuditelnyh-mer-mer-haraktera/viewer/>.
16. Tatyana L.G. Procedural problems of criminal proceedings with the participation of persons with mental deficiencies. Available at: <https://viewer.rsl.ru/ru/rs101003240789?page=1&rotate=0&Theme=white/>.

UDC: 343.140.02(045)(575.1)

ADVOKATNING DALILLAR TO'PLASH VA MUSTAHKAMLASH JARAYONIDAGI ROLINI OSHIRISH

Gafurov Mavlon Kuchkarovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
ORCID: 0000-0002-6322-6379
e-mail: gmavlon@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyat ishlari bo'yicha isbot qilishni amalga oshirishda himoyachining tutgan o'рни va ahamiyati, mazkur masalani tartibga solish bo'yicha qonunchilik hujjatlari tarixi hamda olimlarning fikrlari, shuningdek, qonunchilik hujjatlaridagi huquqiy bo'shliqlar, amaliyotdagi muammolar tahlil qilingan. Jumladan, O'zbekiston SSR Jinoyat-protsessual kodeksida ayblanuvchining himoyachiga ega bo'lish huquqi ko'rsatilmagan. Faqat prokurorning qarori va ruxsati bilangina himoyachi ayblanuvchiga ayb e'lon qilingan paytdan ishtirok etishiga yo'l qo'yilgan. Mustaqil O'zbekiston sharoitida qonunchilik hujjatlari xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajriba asosida tubdan qayta shakllantirilib, advokatlarning huquqiy maqomi oshirilgan, biroq, shu bilan birga, shaxs huquqlarining to'laqonli himoyasi uchun qonunlarda yetarlicha imkoniyat yaratilmagan. Jumladan, qonunda himoyachi tomonidan dalilily ahamiyatga ega ma'lumotni olish, uni qayd etish va tergov organiga taqdim etish tartibi belgilanmagan. Bundan tashqari, himoyachini dalillar to'plash subyektlari qatoriga qo'shish yoki qo'shmaslik masalasida yakdil fikrga kelinmagan. Shuningdek, amaliyotda advokatning iltimosnomasini asossiz rad etish holatlarining oldini olish choralari ko'rilmagan. Keltirilgan tahlillar asosida advokatning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha asoslantirilgan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: advokat isbot qilish subyekti, isbot qilish, iltimosnoma kiritish, dalillar to'plash, tortishuvchanlik.

ПОВЫШЕНИЕ РОЛИ АДВОКАТА В ПРОЦЕССЕ СОБИРАНИЯ И ЗАКРЕПЛЕНИЯ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ

Гафуров Мавлон Кучкарович,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье проанализированы роль и значение защитника при доказывании по уголовным делам, история законодательных актов и мнение ученых по регулированию данного вопроса, в том числе правовые пробелы в законодательных актах, проблемы на практике. В частности, в Уголовно-процессуальном кодексе Узбекской ССР не было указано право обвиняемого на защиту. Защитник допускался к участию в деле только по решению и с согласия прокурора с момента представления обвинения. В условиях независимого Узбекистана акты законодательства были усовершенствованы в корне, с учетом международных стандартов и передового зарубежного опыта, статус адвокатов повышен, однако вместе с тем в законах не созданы надлежащие возможности для полноценной защиты прав. Так, в законе не урегулирован порядок получения адвокатом сведений, имеющих доказательное значение, их закрепления и предоставления следственному органу. В дополнение

к этому, отсутствует единое мнение по вопросу о включении адвокатов в ряд субъектов собирания доказательств. Не приняты меры по предупреждению случаев безосновательного отказа при ходатайстве адвоката на практике. При анализе результатов исследования представлены обоснованные предложения по расширению прав и возможностей адвоката.

Ключевые слова: адвокатский предмет ходатайства, ходатайство, внесение ходатайства, собирание доказательств, состязательность.

INCREASING THE ROLE OF THE LAWYER IN THE PROCESS OF COLLECTING AND CONFIRMING EVIDENCE

Gafurov Mavlon Kuchkarovich,
Independent Researcher
of Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the role and importance of the defence counsel in proving criminal cases, the history of legislative acts and the opinion of scientists on the settlement of this issue, legal gaps in legislative acts, and problems of practice. In particular, the Criminal Procedural Code of the Uzbek SSR does not specify the right of the accused to defence. Only by the decision and consent of the prosecutor was the defence lawyer allowed to participate in the case from the moment the charges were brought. Under the conditions of independent Uzbekistan, the status of lawyers has been raised, but the laws do not create sufficient opportunities for the full protection of the rights of individuals. The law does not regulate the procedure for a lawyer to obtain data of evidentiary value, secure it and provide it to the investigating authority. In addition, there is no consensus on the issue of including a lawyer in a number of subjects for collecting evidence. Measures have not been taken to prevent cases of groundless refusal of a lawyer's petition. Based on the analysis, substantiated proposals for the empowerment of a lawyer are presented.

Keywords: lawyer, subject of proof, proof, petition, collection of evidence, adversarial nature.

Kirish

Jinoyat ishlari bo'yicha isbot qilishni amalga oshirishda *himoyachining tutgan o'rne, uning dalillar to'plash va mustahkamlash borasidagi imkoniyatlarini kengaytirish* masalalari ilmiy doira vakillari, qonun ijodkorlari va amaliyotchilarning doimiy diqqat-e'tibor markazida bo'lib kelgan.

Bu bejiz emas, chunki himoyachi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining himoyasini ta'minlash vakolatiga ega yagona subyekt hisoblanadi va u o'z zimmasiga yuklatilgan mas'uliyatli vazifani samarali amalga oshira olishi, davlatning ayblov apparati qarshisida o'zining himoya pozitsiyasini lozim darajada va teng maqomda ta'minlay olishi uchun *barcha zaruriy huquqiy imkoniyatlarga ega bo'lishi talab etiladi.*

Material va metodlar

Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli yondashuv, qiyosiy-mantiqiy, analiz, so'rov, kompleks yondashuv kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalari

Himoyachining jinoyat protsessi, jumladan, dalillar to'plash borasidagi ishtiroki masalasiga turli davrlarda turlicha yondashuvlar bo'lgan. Xususan, 1959-yil 21-mayda qabul qilingan O'zbekiston SSR Jinoyat-protsessual kodeksida "jabrlanuvchi, grajdanlik da'vogari, grajdanlik javobgari, gumondor, ayblanuvchi "dalillar taqdim etishga haqli" deb belgilangan bo'lsa-da, ayblanuvchining huquqlari sanab o'tilgan muddada uning *himoyachiga ega bo'lish huquqi ko'rsatilmagan* [1, 26-b.].

Bundan tashqari, ushbu Kodeksda himoyachining isbot qilish jarayonidagi ishtiro-

ki *jiddiy ravishda cheklangan*. Xususan, Kodeksning 42-moddasida *himoyachining ishda ishtirok etishiga faqat dastlabki tergov tamom bo'lganligi to'g'risida ayblanuvchiga ma'lum qilingan va ishga oid materiallar tanishib chiqish uchun ayblanuvchiga ko'rsatilgan paytdan boshlab yo'l qo'yilishi* qayd etilgan. Faqat prokurorning qarori va ruxsati bilanгина himoyachi ayblanuvchiga ayb e'lon qilingan paytdan ishtirok etishiga yo'l qo'yilishi mumkinligi belgilangan.

Shuningdek, Kodeksda voyaga yetmaganlarning, soqovlar, karlar, ko'rlar va o'zining jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari sababli o'zini-o'zi himoya qilish huquqini amalga oshira olmaydigan boshqa shaxslarning ishlarini dastlabki tergov qilish va sudda ko'rish paytida himoyachining ishtirok etishi majburiyligi, bunday hollarda ham *ayblanuvchiga ayb e'lon qilingan paytdan boshlab* ishda himoyachi ishtirok etishiga yo'l qo'yilishi belgilangan.

Bundan tashqari, Kodeks bilan himoyachining dalil to'plash va taqdim etish bo'yicha ham imkoniyatlari *qat'iy chegaralangan* va prokuror, tergovchiva surishtiruvchining *xohish-irodasiga bog'liq qilib qo'yilgan*.

Jumladan, Kodeksda himoyachi dalillar *to'plash huquqiga ega ekanligi ko'rsatilmagan*, balki u dalil-isbot *taqdim etishni iltimos qilishga* haqli ekanligi qayd etilgan.

Shuningdek, agar himoyachi so'roq vaqtida hozir bo'lsa, *tergovchi orqali* savol berishga haqli bo'lgan.

Albatta, bunday yondashuv bilan mutlaqo kelishib bo'lmaydi, ayniqsa, inson huquqlari oliy darajada e'tirof etilayotgan hozirgi davrda.

Hattoki o'sha davrning protsessualist olimlari ham qonunchilikdagi bunday yondashuvni *tanqid qilib*, himoyachi – advokating o'ziga dalillar to'plash huquqini berish orqali taraflarning tengligini ta'minlash zarurligini ta'kidlashgan [2, 107-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Mustaqillik yillarida inson va umume'tirof etilgan huquqlarining ustuvorligi tan olini-

shi asnosida advokatlar maqomini oshirish, huquqlarini kengaytirish va tortishuvchanlik prinsipi doirasida prokuror bilan tengligini ta'minlashga qaratilgan bir qator choralar ko'rildi.

1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasida ayblanuvchi himoyalani huquqi bilan ta'minlanishi, tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi belgilandi. Mazkur konstitutsiyaviy kafolatlar 1994-yilda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksi hamda 1996-yilda qabul qilingan "Advokatura to'g'risida"gi Qonunda ham o'z aksini topdi.

Biroq eski davr an'analaridan butunlay voz kechilmagan amaliyot ushbu qonunlarga ham ta'sir ko'rsatib, advokatlarga dalillar to'plash huquqini taqdim etish masalasi yana ortga surildi.

Lekin O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 1-maydagi "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan mazkur muammolarning bir qismini hal qilishga erishildi.

Unda himoyachiga dalillar sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar: ishga taalluqli axborotga ega bo'lgan shaxslarni *so'rovdan o'tkazish* hamda ularning roziligi bilan *yo'zma tushuntirishlar olish*; davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga so'rov yuborish hamda ulardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar, tushuntirishlar va boshqa hujjatlar olish orqali to'plash *huquqi berildi*. Shu bilan birga, himoyachi to'plangan materiallarni ishga qo'shib qo'yish to'g'risidagi iltimosnoma kiritishi mumkinligi ko'rsatilib, bu iltimosnoma surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan, *albatta, qanoatlantirishi kerakligi* belgilandi.

Keyinchalik mazkur norma takomillashtirilib, O'zbekiston Respublikasining 2018-yil

4-apreldagi O‘RQ–470-sonli “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni asosida “iltimosnoma kiritish” jumlasini o‘rniga “*dalillar taqdim etish*” huquqi belgilandi. Shu bilan birga, himoyachi taqdim etgan dalillar jinoyat ishi materiallariga *qo‘shib qo‘yilishi*, shuningdek, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o‘tkazish va jinoyat ishini sud da ko‘rish jarayonida *majburiy baholanishi lozimligi* qat‘iy belgilandi [3].

Shu o‘rinda aytish joizki, Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasi 1-qismida “dalillar to‘plash dastlabki tergov va sud harakatlarini yuritish, shuningdek, tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish yo‘li bilan to‘planadi” [4], deb ko‘rsatilgan.

Bir qarashda O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq, dalillar to‘plash qonun bilan tegishli vakolat berilgan subyektlar, xususan, tergov, sud va tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazish vakolatiga ega *mansabdor shaxslar tomonidagina amalga oshiriladi*, degan xulosaga kelish mumkin.

Aynan mazkur fikrni mamlakatimiz olimlari, jumladan, B.A. Rajabov, L.Z. Turdiyevlar o‘z izlanishlarida ilgari surgan [5, 62-b.].

Lekin bunday yondashuv bilan kelishib bo‘lmaydi, chunki dalillar to‘plash jarayoniga taalluqli ushbu normani *subyektlar doirasini belgilovchi* norma sifatida emas, balki jinoyat ishi bo‘yicha ish yurituv boshlangandan to uning yakuniga qadar bo‘lgan bosqichlarni ifodalovchi qoida sifatida tushunish maqsadga muvofiq.

Chunki O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasi 2-qismida *himoyachi* ham jinoyat ishi bo‘yicha dalillar to‘plash va taqdim etishga *haqli* ekanligi belgilangan bo‘lib, unga muvofiq, himoyachi tomonidan to‘plangan va taqdim etilgan dalillar jinoyat protsessining

har qanday bosqichida ish materiallariga qo‘shib qo‘yilishi, shuningdek, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o‘tkazish va jinoyat ishini sud da ko‘rish jarayonida majburiy baholanishi lozim.

B.A. Rajabov, L.Z. Turdiyevlar mazkur masalaga doir fikrlarini davom ettirib, Jinoyat-protsessual kodeksi 87-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan protsessual normalar bir-biriga zid hisoblanishi, chunki himoyachiga tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish, tergov va sud harakatlarini amalga oshirish vakolati berilmaganligini asos sifatida keltirganlar [5, 63-b.].

Mualliflarning bu fikri bilan ham kelishib bo‘lmaydi. Chunki Jinoyat-protsessual kodeksining ishtirokchilar huquqlarini belgilovchi normalarida umumiy norma sifatida “dalillar to‘plash va taqdim etish” huquqi berilgan va mazkur huquq jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritishning qaysi bosqichida amalga oshirilishi lozimligi ko‘rsatilmagan.

Bundan tashqari, ushbu Kodeksning 87-moddasi 2-qismida himoyachi tomonidan taqdim etilgan dalillar “jinoyat ishi materiallariga qo‘shib qo‘yilishi, shuningdek, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o‘tkazish va jinoyat ishini sud da ko‘rish jarayonida majburiy baholanishi lozim” deb belgilangan. Ya‘ni himoyachi tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o‘tkazish va jinoyat ishini sud da ko‘rish jarayonlarida dalillar to‘plashi va taqdim etishi mumkin hamda u taqdim etgan dalillar ish materiallariga qo‘shib qo‘yilishi va baholanishi lozim.

O‘z navbatida, qayd etib o‘tish joizki, jinoyat-protsessual qonun himoyachi tomonidan daliliy ahamiyatga ega ma‘lumot olish, uni qayd etish va tergov organiga taqdim etish jarayonining o‘zini tartibga solmagan [6, 47-b.].

Qonun ijodkori tortishuvchanlik va tenglik prinsiplarini ta‘minlashga urinib, dalillar to‘plash huquqini ham ayblov tarafdagi, ham himoya tarafdagi taqdim etgan. Biroq himoyachiga bunday huquq beruvchi norma-

lar bilan dalillar to'plashning tartibi va usullari, ularni mustahkamlash va tekshirishni belgilovchi normalar o'rtasida qarama-qarshilik vujudga keldi. Ushbu muammo dalillar nazariyasi nuqtayi nazaridan fikrlash va qonun darajasida hal etishni talab qiladi [7, 5-6-b.].

Mazkur fikrni davom ettirib, E.X. Narbutayev himoyachi dalillar to'plash imkoniyatidan foydalanishi mumkin, lekin himoyachi tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlar shakli va mazmuni bo'yicha dalillar to'plashga oid talablarga javob bermasligini qayd etgan [8, 48-b.].

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilik himoyachi tomonidan to'plangan, ayniqsa, so'roq qilish orqali olingan *dalillar mustahkamlash shaklini belgilamagan*. Dalillar to'plashda himoyachi ishtirokida qonunchilikda nazarda tutilgan, lekin himoyachi tomonidan to'plangan ma'lumotlar, ular sud ishlari ni yuritayotgan shaxslarga taqdim etilgandan so'nggina dalilga aylanishi mumkin. Sud ishlarini yuritayotgan shaxslar himoyachi taqdim etgan ma'lumotlarni ish uchun ahamiyatli deb tan olishlari va ularga zarur protsessual shakl berishlari kerak [9, 23-b.].

A.P. Popov boshchiligidagi mualliflar mazkur masalaga e'tibor qaratib, "qonun dalillar taqdim etish huquqini bergan bo'lsa-da, lekin uning protsessual shakli belgilanmagan, ya'ni ushbu huquqni amalga oshirish tartibi o'rnatilmagan. Bu holatlarda huquqni qo'llovchilar doim ham qonunga mos kelavermaydigan harakat qilishga majbur bo'ladilar. Lekin ish uchun ahamiyatga ega ma'lumotlarni to'plash bo'yicha harakatlarni amalga oshirishning qonun bilan aniq va bir xilda o'rnatilgan tartibisiz ularning ishonchligini ta'minlash qiyin" [10, 129-b.]ligini qayd etadilar. Bu fikrni Yu. Pulatov, G. To'laganova [6, 47-b.] ham qo'llab-quvvatlagan.

Darhaqiqat, so'nggi vaqtlardagi ilmiy izlanishlarda himoyachining Jinoyat-protsessual kodeksning 87-moddasida ko'rsatilgan harakatlarini *dalillar to'plash sifatida baho-*

lash lozimligi qayd etilmoqda. Mualliflar tortishuvchilik prinsipini izchil hayotga tatbiq etish va shu tariqa isbot qilish jarayonida advokatlar rolini oshirish zaruriyatidan kelib chiqmoqda. Bu fikr bilan kelishmasdan iloji yo'q. Lekin himoyachining protsessual shaklga rioya etilmagan holdagi erkin harakatini (so'rov o'tkazish, yozma tushuntirishlar olish, hujjatlarni olish) dalillar to'plash deb hisoblash uchun uning isbot qilish jarayonini qat'iy tartibga soluvchi qonun normalariga qanchalik mosligiga e'tibor qaratish lozim.

Barcha olimlar ham himoyachi tomonidan amalga oshirilgan so'rov natijalarini mustaqil daliliy ahamiyatga ega deb hisoblamaydi. V. Falileyev va Yu. Garmayevlar "agar himoyachi so'rov natijasida ayblanuvchining holatini yengillashtiruvchi ma'lumot olgan taqdirda ham, ular faqat vakolatli subyektlar (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror) ushbu shaxsni so'roq qilganlaridan keyingina maqbul dalil hisoblanadi, negaki so'rov tergov harakati hisoblanmaydi va, demak, u orqali dalil olinmaydi" [11, 90-91-b.], deb hisoblaydi.

Bundan tashqari, ayrim olimlar, haqiqatan ham, ba'zi himoyachilar tomonidan taqdim etilgan dalillar va so'rovlar o'tkazish orqali olingan ma'lumotlarni har doim ham maqbul dalil deb bo'lmasligi, ular, albatta, tekshirilishi va baholanishi shartligi, chunki bunda tazyiq, shantaj, fuqaroni o'z tomoniga og'dirib olish yoki uni chalg'itish holatlari uchraydi, deb hisoblaydilar. Shuningdek, ushbu muammoni hal etish uchun qonunda himoyachi tomonidan noqonuniy harakatlar sodir etilishiga qarshi kafolatlar belgilangan bo'lishi kerakligi, bunday kafolatlar qatoriga so'rov o'tkazishni texnik vositalar yordamida qayd etish (masalan, videoyozuv) yoki notarius ishtirokini kiritadilar hamda bunday tartibda o'tkazilgan so'rovni keyinchalik tergovchi tomonidan qayta so'roq qilishga zarurat qolmasligini ta'kidlaydilar [6, 50-b.].

Bundan tashqari, himoyachini dalillar to'plash subyektlari qatoriga qo'shish yoki

qo‘shmaslik masalasida olimlarning fikri ikkiga bo‘lingan. Bir qator olimlar, jumladan, N.N. Egorov [12, 8-9-b.], V.I. Tolmosov [13, 7-6-b.], A.S. Zakotyanskiy [14, 10-11-b.], N.V. Palchikova [15, 11-b.], A.A. Larinkov [16, 8-10-b.]lar *himoyachini dalillar to‘plash subyektlari qatoriga kiritmasdan*, ular faqat dalil sifatida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlarni to‘plashi mumkinligini qayd etgan bo‘lsa, B.A. Rajabov [5, 64-b.], L.G. Demurchev [17, 13-14-b.], N.A. Popova [18, 10-b.], I.E. Milova [19, 7-b.], N.P. Sareva [20, 11-b.], Ye.B. Smagorinskaya [21, 5-10-b.], A.D. Geroyevlar [22, 11-12-b.] *himoyachilar, albatta, dalillar to‘plash subyektlari qatorida bo‘lishlari lozimligini* aytganlar.

Xususan, B.A. Rajabov O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 86-moddasining birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi: “Isbot qilishni tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud va advokat amalga oshiradi. Himoyachi (advokat) hujjatlar va tushuntirishlar *talab qilib olish*, shaxslarni so‘rovdan o‘tkazish va ekspertiza tayinlash orqali dalillar to‘plashi va tekshirishi mumkin” [23, 28-b.].

Himoyachiga bunday huquqlar berish juda bahsli va qaysidir ma‘noda jamiyatda hokimiyat vakolatlari, jumladan, kuch ishlatish vakolatlarining taqsimoti bilan bog‘liqdir. Chunki dalillarni *kuch ishlatish orqali* to‘plash himoyachining protsessual maqomiga xos emas va bunday huquq qonunan davlatning majburlov apparatiga aloqador idoralar, jumladan, tergovni amalga oshirayotgan hamda uning borishi va natijasi uchun javobgar bo‘lgan mansabdor shaxslar tomonidan tegishli nazorat va javobgarlik tahdidi bilan berilganligi to‘g‘ridir.

Ushbu fikrni Y. Pulatov, G. To‘laganova va qo‘llab-quvvatlab, “himoyachiga, uning protsessual statusi va ishni yuritishda ishtirokidan maqsadidan kelib chiqib, dalil-

lar to‘plash *majburiyatini yuklash* mantiqsiz bo‘lgan bo‘lar edi. Isbot qilish majburiyati ayblov tarafiga yuklatilgan. Himoyachi aybsizlik yoki yengillashtiruvchi holatlarni isbotlaganda, himoyasi ostidagi shaxsning aybdorligini bildirgan bo‘lar edi va bu holat *aybsizlik prezumpsiyasiga zid hisoblanadi*. Shu bilan birga, qonun uning dalillar to‘plash huquqini hech qanday cheklamayapti”, degan xulosaga kelishgan [6, 49-b.].

Ayrim amaliyotchi advokatlar bugungi kunda himoyachiga qonun bilan berilgan imkoniyatlar himoya ostidagi shaxsning huquqlarini to‘laqonli himoya qilish uchun *yetarli*, faqat undan qanday tartibda va ko‘rinishda foydalanishni *bilishning o‘zi yetarli*, deb hisoblaydilar.

Buni amaliyotdagi ko‘plab misollar orqali ham ko‘rish mumkin.

Masalan, fuqaro “M” advokat “B”ga murojaat qilib, giyohvand moddalar savdosiga suiqasd qilishda ayblanayotgan 19 yoshli qizi “O”ga huquqiy yordam ko‘rsatishini so‘ragan. Bu vaqtda birinchi instansiya sudi “O”ga nisbatan hukm e‘lon qilgan va unga 7 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlagan. “O” aybini to‘liq bo‘yniga olgan. Tergov va sud davrida “O”ning himoyasi bilan boshqa advokat shug‘ullangan. Sudlanuvchining aybiga to‘liq iqrorligi hukmni bekor qilish yoki jazoni yengillashtirishga hech qanday imkoniyat bermasdi. Ish hujjatlaridan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, “O” internetdagi e‘lon orqali 40 ta paketchada giyohvand moddalar sotib olgan, keyin uni tezkor xodimlar ushlagan. Advokatning ishtirokisiz o‘tkazilgan so‘roq davomida u giyohvand moddalarni sotishga tayyorgarlik ko‘rishda aybini tan olgan. Bu holat jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar tezkor xodimlar tomonidan o‘tkazilgan so‘roq davomida qayd etilgan. “O” gumonlanuvchi va ayblanuvchi tariqasida, suddagi so‘rog‘ida, oxirgi so‘zida ham iqrorlik ko‘rsatmasini bergan. Shu tariqa hukm qonun talabiga javob berardi. Shu orada advokat “B” bilan uchrashuvda “O” boshqa holat haqida gapirgan.

U ikki marta giyohvand moddalar saqlaganlik uchun sudlangan “G” ismli dugonasi borligi; vaqti-vaqti bilan “G” olib keladigan giyohvand moddalarni iste’mol qilishgani; bir kuni uzoq tanaffusdan so’ng “G” unga qo’ng’iroq qilib, birgalikda iste’mol qilish uchun internet orqali giyohvand moddalar sotib olishni so’raganligi; o’zi doim sotib oladigan internet do’koni orqali endi giyohvand moddalar sotib ololmayotganini tushuntirgani; keyin “O” “G” ko’rsatgan manzilda internet orqali giyohvand moddalar yetkazuvchilar bilan bog’langani va ular giyohvand moddalar joylab qo’yilgan tuynukni “O”ga aytishgani; so’ng “O” aytilgan joyga borgani, lekin u yerda giyohvand moddalar ikkita emas, qirqta paket bo’lgani; “O” ularni olib, “G”ning oldiga borgani, ammo uchrashuvga “G” bir nechta yigit bilan, keyinchalik ma’lum bo’lishicha, xodimlar bilan kelganini aytib bergan. Jinoyat ishida esa bu haqiqiy holatlar aks etmagan. Advokat “B”ning nima uchun bu masalalarni “O”ning himoyachisi tergov va sud davrida ko’tarmaganini so’raganida, “O” bular haqida himoyachiga aytgani, lekin himoyachi unga hech narsani isbotlab bo’lmasligi, yaxshisi, aybni bo’yniga olish orqali kamroq jazo muddati olish kerakligini tushuntirganini ma’lum qilgan. Himoyachi “G”ning roli haqida gapirmaslikni maslahat berib, uning giyohvand moddalarni sotib olishdagi ishtirokini isbotlab bo’lmasligini aytgan. Holatning o’ziga xosligi yana shundaki, “O”ning onasi ham “O”ga ta’sir o’tkazib, himoyachining pozitsiyasidan chiqmaslikni tayinlagan. Bunday holatda ikkinchi advokatning (ya’ni advokat “B”) vazifasi ishning haqiqiy holatlarini apellatsiya instansiyasiga yetkazishdan iborat bo’lgan. Lekin sudlanuvchining o’zgartirilgan ko’rsatmalarining o’zi apellatsiya instansiyasi uchun yetarli emas edi. Sudlanuvchining yangi pozitsiyasini tasdiqlovchi qo’shimcha ma’lumotlar va guvohlik ko’rsatmalari talab etilar edi.

Advokat “B” guvohlar – “O”ning “G” bilan tanish ekanini to’liq tasdiqlovchi dugonalari-

ni topgan. Guvohlar “G”ni katta tajribaga ega giyohvand ekanini aytishgan. So’ng advokat “B” “G”ning shaxsiy ma’lumotlarini bilib, uni so’rovdan o’tkazmoqchi bo’lgan, lekin buni amalga oshirishning iloji bo’lmagan, sababi “G” undan o’zini olib qochgan. Keyin advokat “B” “G” giyohvand moddalar savdosi uchun sudlangan so’nggi jinoyat ishini so’rab olgan. Hukm nusxasini o’rgana turib, “G”ni ham “O”ni ushlagan tezkor xodimlar ushlaganligi ma’lum bo’lgan. Shu bilan birga, jinoyat ishini qo’zg’atgach, tergovchi “G”ni qamoqqa olish to’g’risida iltimosnoma bermagan, sud esa uni yosh bolalari borligini inobatga olib, jazoni o’tashdan ozod qilgan. Barcha dalillar “G”ning tezkor xodimlar bilan bog’liq ekani va sudlangandan so’ng ularning provokator agenti bo’lganini yaqqol tasdiqlab turardi.

Olib borilgan ishlar natijasida apellatsiya instansiyasida yangi guvohlar – “O”ning dugonalari so’roq qilinib, ular “O”ning “G” bilan munosabati haqida ko’rsatma bergan. Himoya taraf sudga “G”ga nisbatan sud hukmlari nusxalarini taqdim etgan. Ularda “G”ni ushlagan tezkor xodimlar keyinchalik “G” ishtirokida “O”ni ushlagani ko’rinib turardi. Sudda, shuningdek, “O”ning onasi ishtirok etgan va “O”ning o’zi ko’rsatmalarini o’zgartirgan. Ularning chiqishlaridan shu narsa oshkor bo’ldiki, “O”ni tergov va birinchi instansiya sudida himoya qilgan advokat ayblov bilan kelishish pozitsiyasini egallagan, ishning haqiqiy holatlarini esa yashirgan. Shuningdek, “O”ning onasi advokat bilan suhbat va uning “O”ga jinoyat holatlari haqida haqiqatni gapirmaslik to’g’risidagi maslahatlarini sudga batafsil aytib bergan. Himoya, shuningdek, yangi to’plangan dalillarga asosan, tezkor xodimlarda avvaldan “O” giyohvand moddalar sotishga harakat qilgani haqida ma’lumot bo’lmaganini qayd etgan. Apellatsiya instansiyasi sudi himoya tarafning vajlari bilan kelishib, hukmni bekor qilib, “O”ni qamoqdan ozod qilgan va ishni qaytadan birinchi instansiya sudida ko’rib chiqish uchun yuborgan. Birinchi instansiya sudi esa himoyaning

barcha vajlarini o'rganib, "O"ni faqatgina giyohvand moddalarni noqonuniy saqlaganlikda aybdor deb topgan va shartli hukm qilgan [24, 24-28-b.].

Mazkur misoldan, qolaversa, amaliyotda ko'plab uchraydigan bu kabi holatlardan ma'lum ma'noda himoyachining dalillar to'plash va taqdim etish borasidagi mavjud huquqlari va imkoniyatlari shaxs huquqlarini ishonchli va samarali himoya qilish uchun yetarli ekanligi ko'rinadi. Bunda faqat advokatning *professionallik darajasi, ish tajribasi va qonun taqdim etgan imkoniyatlardan unumli foydalanish layoqatiga egaligi* bilan yutuqqa erishish mumkin.

Shu bilan birga, advokatlarning amaliyotda uchrab turadigan bu kabi yutuqlari jinoyat protsessida advokatning dalillar to'plash borasidagi vakolatlarini *yanada kengaytirish*, sohadagi muammolar va qonunchilikdagi *mavjud huquqiy bo'shliqlarni bartaraf* etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarni davom ettirish vazifasidan ozod qilmaydi va, aksincha, ularni yanada jadallashtirishni taqozo etadi.

Masalan, yuqorida aytganimizdek, Jinoyat-protsessual kodeksning 87-moddasi ikkinchi qismida himoyachi jinoyat ishi bo'yicha dalillar to'plash va taqdim etishga haqli ekanligi, ular jinoyat ishi materiallariga *qo'shib qo'yilishi*, shuningdek, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o'tkazish va jinoyat ishini sudda ko'rish jarayonida *majburiy baholanishi lozimligi* belgilangan. Lekin advokat o'z imkoniyatidan kelib chiqib to'plagan bu dalillar ishini to'g'ri hal etish uchun xizmat qiladigan dalillarning *bir qismini bo'lishi mumkin, xolos*.

Sir emaski, ko'plab jinoyat ishlarida *hal qiluvchi ahamiyatga ega dalillar tergov va sud harakatlarini yuritish* (masalan, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh, jabrlanuvchi, ekspertni so'roq qilish; yuzlashtirish; tanib olish uchun ko'rsatish; ko'rsatmani hodisa ro'y bergan joyda tekshirish; olib qo'yish; tintuv; ko'zdan kechi-

rish; guvohlantirish; murdani eksqumatsiya qilish; eksperiment o'tkazish; ekspertiza tadqiqotlari o'tkazish uchun namunalar olish; ekspertiza va taftish tayinlash; taqdim etilgan ashyolar va hujjatlarni qabul qilish; telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish), shuningdek, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish *yo'li bilan to'planadi*.

Himoya nuqtayi nazaridan ushbu harakatlarni o'tkazishga *zarurat tug'ilganda esa* himoyachida *birgina instrument* – iltimosnoma berish imkoniyati bor, xolos. Qonun esa bunday iltimosnomalarni hal etish masalasini to'liq tergovchi (JPK 377-modda) va surishtiruvchi (JPK 381¹⁴-modda) *ixtiyoriga bog'liq qilib qo'lygan*.

Bunday deyishimizga sabab surishtiruvchi va tergovchi tomonidan iltimosnomalarni ko'rib chiqish tartibi belgilangan ushbu moddalarda faqatgina "tergovchi (yoki surishtiruvchi) iltimosnomani to'la yoki qisman rad qilish to'g'risida qaror chiqarishi ... bu qaror ustidan ikki sutka ichida prokurorga shikoyat qilinishi mumkinligi" haqidagi qoida mustahkamlangan.

Eng e'tiborli tomoni ushbu moddalarda *"qanoatlantirish"* degan so'z *uchramaydi*. Go'yoki bu kabi *iltimosnomalarga nisbatan bo'lishi kerak bo'lgan munosabat qonunda oldindan belgilab qo'yilgandek*.

Aytish joizki, himoyachi gumon qilinuvchi, ayblanuvchining huquqlarini himoya qilish, ishga oydinlik kiritish va haqiqatni aniqlash maqsadida bunday iltimosnomalarni beradi. Bular, asosan, guvohlarni so'roq qilish, ekspertiza o'tkazish, olib qo'yish ko'rinishida bo'ladi.

Jinoyat ishi uchun ahamiyatli holatlarni o'rganish qo'shimcha dalillar to'plashga bog'liq bo'lsa, bunday iltimosnomalarni *bemalol va hech qanday to'sqinliksiz rad etish imkoniyatining mavjudligi* nafaqat ushbu idoralar oldida turgan vazifalar, balki jinoyat-protsessual qonunchilikning vazifalariga ziddir.

Xulosalar

Shu sababli, fikrimizcha, surishtiruvchi, tergovchi himoyachining (yoki protsessning boshqa ishtirokchisining) dalillar to'plash maqsadida muayyan tergov harakatlari o'tkazish haqidagi iltimosnomasiga, agar holatlar ish uchun ahamiyatli bo'lsa, *rad javobini berishga haqli bo'lmasligi kerak*.

Bugungi kunda qonunchilikda bu kabi normaning mavjud emasligi *himoyachining dastlabki tergov davrida dalillar to'plash huquqi to'laqonli amalga oshirilmaligiga sabab bo'lmoqda*.

Qonun ijodkori *sud tomonidan iltimosnomalarni ko'rib chiqish masalasida ushbu muammolarga birmuncha e'tibor qaratib, "taraf arz qilgan har bir iltimosni muhokama qilib, sud boshqa tarafning fikrini tinglaydi va basharti, iltimos ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlashga qaratilgan bo'lsa, uni qanoatlantiradi, aks holda, qanoatlantirishni rad etadi"* degan qoida JPKning 438-moddasida qayd etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qonunchilikdagi huquqiy bo'shliqni bartaraf etish va sudga qadar ish yurituv davrida himoyachi-

ning iltimosnomasi asosida dalillar to'plash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida Jinoyat-protsessual kodeksi 377-moddasining ikkinchi qismini *quyidagi tahrirda bayon qilish* maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

"Taraflarning arizasiga binoan, iltimosnomalar tayyorlash va taqdim qilish uchun uch sutka doirasida vaqt berilishi mumkin. Tergovchi iltimosnomani *qanoatlantirish yoxud to'la yoki qisman rad qilish to'g'risida qaror* chiqaradi va bu haqda iltimosnoma berilgan vaqtdan boshlab uch sutka ichida arizachiga xabar beradi. *Agar iltimosnoma jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlash maqsadida guvohlarni so'roq qilish, ekspertiza tayinlash va boshqa tergov harakatlarini o'tkazish haqida bo'lsa, uni rad etishga yo'l qo'yilmaydi*".

Xuddi shunday o'zgarishni JPK 381¹⁴-moddasi ikkinchi qismida ham aks ettirish lozim.

Qonunchilikdagi huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish himoyachining dalillar to'plash borasidagi imkoniyatlarini kengaytirish, natijada shaxs huquq va erkinliklarining yanada samarali himoya qilinishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Makarov A.M., Alekseeva L.B. What to be a criminal process? *Soviet state and law*, Moscow, 1990, no. 11, p. 152.
2. Razhabov B.A., Turdiev L.Z. Collection of evidence in the criminal process of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2020.
3. Pulatov Yu., Tulaganov G. On the evidentiary value of the materials provided by the defence counsel at the stage of pre-trial proceedings. *Lawyer*, 2017, no. 3.
4. Balakshin V.S. Evidence in the theory and practice of criminal procedure proof: The most important problems in the light of the Code of Criminal Procedure of the Russian Federation. Abstract of Doctor's degree dissertation. Yekaterinburg, 2005.
5. Narbutaev E.Kh. Jinoyat protsessi [Criminal proceedings]. Tashkent, Academy of Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2013.
6. Tyumentseva V. Collecting evidence in criminal proceedings. Graduation qualified work. Tomsk, 2016.
7. Popov A.P., Popova I.A., Zinchenko I.A. Problems of modern criminal procedure evidence law. Pyatigorsk.

8. Falileev V., Garmaev Yu. Limits of the powers of the defence counsel to collect evidence (view from the side of the prosecution). *Criminal Law*, Moscow, 2003, no. 1.
9. Egorov N.N. Theoretical and applied problems of the doctrine of physical evidence. Abstract of Doctor's degree dissertation. Irkutsk, 2005.
10. Tolmosov V.I. Problems of admissibility of evidence at the pre-trial stages of the Russian criminal process. Abstract of PhD thesis. Samara, 2002.
11. Zakotyansky A.S. Problems of using non-procedural information in proving in criminal case. Abstract of PhD thesis. Samara, 2015.
12. Palchikova N.V. Theoretical and practical problems of proof at the stage of initiating a criminal case. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2013.
13. Larinkov A.A. Theoretical and law enforcement problems of proof at the stage of trial in the court of first instance. Abstract of PhD thesis. St. Petersburg, 2006.
14. Demurchev L.G. Collection of evidence in the course of pre-trial proceedings by carrying out other procedural actions. Abstract of PhD thesis. Krasnodar, 2012.
15. Popova N.A. Physical evidence: Collection, presentation and use of them in proof. Abstract of PhD thesis. Saratov, 2007.
16. Milova I.E. Participation of a defence lawyer in collecting evidence during the preliminary investigation. Abstract of PhD thesis. Samara, 1998.
17. Tsareva N.P. Other documents admitted as evidence under the Code of Criminal Procedure of the Russian Federation. Abstract of PhD thesis. Saratov, 2003.
18. Smagorinskaya E.B. Participation of a lawyer in proving in pre-trial criminal proceedings. Abstract of PhD thesis. Volgograd, 2004.
19. Geroev A.D. Participation of a lawyer-defender in proving during the preliminary investigation. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2004.
20. Razhabov B.A. Ishni sudga qadar yuritishda isbot qilishning umumiy shartlariga rioya etilishini ta'minlash [Ensuring compliance with the general conditions of proof when conducting the case before the court]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2019.
21. Khalikov A.N. How a lawyer used the right to check and collect evidence. Two successful cases of drug trafficking. *Criminal trial, the practice of successful defence and prosecution*, 2019, no. 9.
22. Rogatkin A.A., Petrukhin I.L. On the reform of criminal procedure law. Problem of the Russian Advocacy. Collection of scientific papers. Moscow, University, 1997.

UDC: 341.96:343.91

INTERNATIONAL LEGAL ASPECTS OF THE FIGHT AGAINST TRANSNATIONAL ORGANIZED CRIME

Valijonov Daler Dilshodovich,

Acting Associate Professor of the Department
of International Law and Human Rights of the
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law Sciences
ORCID: 0000-0003-0356-4293
e-mail: d.valijonov@tsul.uz

Abstract. *This scientific article provides a systematic analysis of the international legal foundations of cooperation in the fight against transnational organized crime. In the article, the author tried to highlight the theoretical aspects of the issue of international cooperation of law enforcement agencies in the system of combating transnational organized crime. The content and essence of the concepts “international criminal group” and “international criminal community”, which were considered relevant today, were also analyzed in this article. The comparative analysis of the author on international conventions, declarations, and legislation of foreign countries served as a reflection of the specifics of this article. Moreover, the relevance of the research topic is because the commission of transnational organized crimes is characterized by the use of modern technical means and technologies. The predicted result was a significant increase in the number of serious crimes of a transnational nature. The lack of proper legal cooperation between States leads to the emergence and spread of dangerous practices when criminals, committing a crime in one State, illegally cross the borders of another in order to avoid justice and criminal prosecution. The problem of disclosure, investigation, and prevention of transnational organized crimes within the framework of international cooperation in criminal matters is the most urgent today.*

Keywords: *international cooperation, legal assistance, criminal prosecution, fight against corruption, regional organizations, digital globalization, digital integration.*

TRANSMILLIY UYUSHGAN JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHNING XALQARO HUQUQIY JIHATLARI

Valijonov Daler Dilshodovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasida dotsenti v.b.,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha hamkorlikning xalqaro huquqiy asoslari tizimli tahlil qilingan. Maqolada muallif transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xalqaro hamkorligi masalasining nazariy jihatlarini yoritishga harakat qilgan. Shuningdek, bugungi kunda dolzarb hisoblangan “xalqaro jinoiy guruh” va “xalqaro jinoiy hamjamiyat” tushunchalarining mazmuni va mohiyati tahlil qilingan. Muallifning xalqaro konvensiyalar, deklaratsiyalar va xorijiy davlatlar qonunchiligining qiyosiy tahlili ushbu maqolaning o'ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Bundan tashqari,*

tadqiqot mavzusining dolzarbligi transmilliy uyushgan jinoyatlarni sodir etish zamonaviy texnik vositalar va texnologiyalardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Bashorat qilingan natija transmilliy xarakterdagi og'ir jinoyatlar sonining sezilarli darajada oshishi bo'ldi. Maqolada davlatlar o'rtasida lozim darajadagi huquqiy hamkorlikning mavjud emasligi jinoyatchilar bir davlatda jinoyat sodir etib, odil sudlov va tegishli organlarning ta'qibidan qochish maqsadida noqonuniy ravishda boshqa davlat chegaralarini kesib o'tishi kabi salbiy holatlarning paydo bo'lishiga va tarqalishiga olib kelishi ta'kidlangan. Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik doirasida transmilliy uyushgan jinoyatlarni fosh etish, tergov qilish va oldini olish muammosi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: xalqaro hamkorlik, huquqiy yordam, jinoiy javobgarlikka tortish, korrupsiyaga qarshi kurashish, mintaqaviy tashkilotlar, raqamli globalizatsiya, raqamli integratsiya istiqbollari.

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ БОРЬБЫ С ТРАНСНАЦИОНАЛЬНОЙ ОРГАНИЗОВАННОЙ ПРЕСТУПНОСТЬЮ

Валижонов Далер Дилшодович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

и. о. доцента кафедры «Международное право и права человека»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной научной статье проведен системный анализ международно-правовых основ сотрудничества в борьбе с транснациональной организованной преступностью. В статье автор попытался осветить теоретические аспекты вопроса международного сотрудничества правоохранительных органов в системе борьбы с транснациональной организованной преступностью. Также проанализированы содержание и сущность понятий «международная преступная группа» и «международное преступное сообщество», которые считаются актуальными на сегодняшний день. Сравнительный анализ автора по международным конвенциям, декларациям и законодательству зарубежных стран послужил отражением специфики настоящей статьи. Более того, актуальность темы исследования обуславливается тем, что совершение транснациональных организованных преступлений характеризуется использованием современных технических средств и технологий. Прогнозируемым результатом стало значительное увеличение числа тяжких преступлений, имеющих транснациональный характер. Отсутствие надлежащего правового сотрудничества между государствами приводит к появлению и распространению опасной практики, когда преступники, совершая преступление в одном государстве, незаконно пересекают границы другого в целях избежания осуществления правосудия и привлечения к уголовной ответственности. Проблема раскрытия, расследования и предупреждения транснациональных организованных преступлений в рамках международного сотрудничества по уголовным делам на сегодня является наиболее актуальной.

Ключевые слова: международное сотрудничество, правовая помощь, борьба с коррупцией, региональные организации, цифровая глобализация, перспективы цифровой интеграции.

Introduction

Everyone knows that since the end of the 19th century, the international activity of crime has steadily increased. In recent decades, this has been facilitated by the blurring of the borders of states, their growing transparency, the expansion and the

interpenetration of economic markets that were previously closed or tightly controlled by states.

This creates conditions for the emergence of new, previously unknown forms of crime, deepening its professionalization. As a result of changes in the structure of trade, finance

and information, crime often loses stable ties with specific states, national borders are increasingly losing the nature of obstacles to its prevalence.

According to the well-known jurist A.G. Volevodz [1, 2, p. 11], the global trend is the absolute and relative growth of crime common to most countries, especially its organized forms, which are predominantly forcibly mercenary and mercenary in nature, which is accompanied by a sharp increase in the volume of proceeds of criminal activity, in most cases, hidden abroad.

Some specialists point out that crime has gone abroad as a characteristic feature of its current state and development trend.

